

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT
SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

O‘.Toshmatov, X.Beknazarov

CHOLG‘USHUNOSLIK

(DARSLIK)

(O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining
2016 yil 6 apreldagi 137-017 -sonli bo‘yruq‘iga asosan nashriyotlarda
nashr qilishga ruxsat berilgan)

Toshkent 2015

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

Ilmiy kengashining 2015-yil ____ - _____dagi yig‘ilishida (____-sonli bayonnoma) nashrga tavsiya etilgan.

Taqrizchilar:

Mirmuxsin G‘ofurov – O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi kafedrası dotsenti

Karimjon Azimov – O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Xalq cholg‘ularida ijrochilik” kafedrası professori

Cholg‘ushunoslik fani bo‘yicha so‘nggi qo‘llanmalar yaratilgan davrdan keyin musiqiy hayotimizda yuz bergan o‘zgarishlar, musiqa cholg‘ularining evolyusiyasi, qo‘llanilayotgan cholg‘ularning ommalashuvi yoki iste‘moldan chiqib ketishi yangi o‘quv adabiyotini tayyorlash va chop etishni talab etmoqda. Talabalarning «Cholg‘ushunoslik» fanini o‘zlashtirish jarayonida yangi, qo‘shimcha ma’lumotlar olishlariga imkoniyat yaratish, shuningdek, fanni o‘zlashtirishida solishtirish, taqqoslash, ijodiy yondashish va tanlash imkoniyatidan foydalanishlarini ko‘zlangan holda mazkur darslik 5151600-Xalq ijodiyoti (cholg‘u jamoalariga rahbarlik) yo‘nalishi talabalari uchun ishlab chiqildi.

МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕ СПЕЦИАЛЬНОГО
ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

У.Ташматов, Х.Бекназаров

ИНСТРУМЕНТОВЕДЕНИЕ

(УЧЕБНИК)

Ташкент 2015

Резензы:

Мирмухсин Гафуров – доцент кафедры “Инструментального исполнительства” Государственного института искусств и культуры Узбекистана

Каримжан Азимов – профессор кафедры “Исполнительства на народных инструментах” Государственной консерватории Узбекистана

После издания последних учебных пособий по предмету “Инструментоведение” произошли перемены в музыкальной жизни нашей Республики. Некоторые инструменты в этот период претерпели изменения, некоторые перестали использоваться, а некоторые, прежде не использованные, получили популярность. Эти обстоятельства стали причиной создания данной литературы. В данном учебнике авторы постарались собрать максимальную информацию об истории, эволюции и современном состоянии музыкальных инструментов используемых в нашем регионе.

Данный учебник рассчитан для студентов образовательного направления бакалавриата 5151600 – Народное творчество (руководство инструментальными коллективами).

KIRISH

«Cholgʻushunoslik» fan sifatida oliy va oʻrta maxsus taʼlim muassasalari oʻquv rejasiga kiritilganiga uzoq vaqt boʻlgan boʻlsada, bu fanga bevosita taalluqli boʻlgan darslik va oʻquv qoʻllanmalari kam yaratilgan. Mazkur fan boʻyicha A. Petrosyans tomonidan yaratilgan «Инструментоведение» (Cholgʻushunoslik) qoʻllanmasi uzoq vaqtdan buyon eng asosiy manba sifatida taʼlim jarayonida qoʻllanib kelinmoqda. Qoʻllanma yaratilgan davrdan keyin musiqiy hayotimizda yuz bergan oʻzgarishlar, musiqa cholgʻularining evolyusiyasi, qoʻllanilayotgan cholgʻularning ommalashuvi yoki isteʼmoldan chiqib ketishi mazkur qoʻllanmadagi kerakli maʼlumotlardan foydalanish bilan bir qatorda unga qoʻshimcha yangi maʼlumotlarni ham talaba-oʻquvchilarga yetkazish zaruratini keltirib chiqardi. Mazkur darslik talabalar «Cholgʻushunoslik» fanini oʻzlashtirish jarayonida qoʻshimcha maʼlumotlar olishlariga imkoniyat yaratish, ular fanni oʻzlashtirishida solishtirish, taqqoslash, ijodiy yondashish va tanlash imkoniyatidan foydalanishlarini koʻzlab yaratildi.

Har bir musiqa cholgʻusi zamon va vaqt nuqtai-nazaridan qotib qolgan, oʻzgarmas koʻrinish va mazmunga ega emas. Uning yashovchanligi, kam oʻzgarishga uchrashi va eng asosiysi - doimiy isteʼmolda boʻlishi muayyan cholgʻuning mukammalligi va uni targʻib etilishi bilan bevosita bogʻliq. Misol uchun doyra cholgʻusining tarixiga nazar tashlasak, uning soʻnggi bir asr davomida shakl jihatidan kichrayganligi, doyrachilarning ijro mahorati keskin oʻsganligi, sadosining ancha taranglashganligi (doyra muqaddam olovda bunchalik darajada toblanmagan), doyra ichiga osiladigan xalqachalardan foydalanish ahamiyatining susayganligi, noxun bilan chalish uslubining deyarli yoʻqolganligi va yana boshqa oʻzgarishlarni kuzatish mumkin. Doyra cholgʻusining keng ommalashuvi esa bevosita Gʻafur Azimov, Toʻychi Inogʻomov, Qahramon Dadayev, Odil Kamolxoʻjayev, aka-uka Dilmurod, Xolmurod va Elmurod Islomovlar, Abbos Qosimov va boshqa doyra ijrochilarining faoliyati bilan bogʻliq. Oʻtgan asrning

70-80- yillarida qashqar rubob va dutorning, 80- yillardan chang cholg'usining ommalashuvida rubobchi Muhammadjon Mirzayev, dutorchilar ansambli rahbari G'anijon Toshmatov, chang ijrochisi va targ'ibotchisi Ahmad Odilovlarning targ'ibot ishlari muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin xalqimiz tarixi, o'tmishi, urf-odatları, qadriyatlari va madaniy merosimizga munosabat o'zgardi. Jamiyat a'zolarini tarbiyalashda milliy urf-odatlar va an'analardan keng foydalanish, azaliy qadriyatlarimizni tiklash va ular vositasida yoshlar ongida milliy mafkurani shakllantirish muhim vazifalardan biriga aylandi. Shu jarayonda muqaddam musiqa ijrochiligida umuman foydalanilmayotgan, unutilish darajasiga yetib qolgan sodda musiqa cholg'ulariga qayta jon bag'ishlandi. Nafaqat havaskor folklor jamoalari faoliyatida, balki akademik yo'nalishdagi professional jamoalar va hatto estrada ijrochiligida ham changqo'biz, sibizg'a, do'mbira, sopol nay kabi xalqimizning qadimiy cholg'ularidan foydalanish boshlandi. Musiqiy hayotimizdagi ana shu jarayonlar ham talabalar tomonidan o'zlashtirilishiga arziydi, deb hisoblaymiz.

PREDMETNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Har qanday ko'p ovozli cholg'u jamoasi rahbari o'zi boshqarayotgan jamoa repertuarida adabiyotlarda nashr etilgan, tayyor asarlardan foydalanish bilan chegaralanib qolmasdan o'z jamoasi imkoniyatlaridan kelib chiqib, yangidan-yangi asarlarni o'zi boshqarayotgan jamoa ijrosiga moslashtira bilish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim. Bu ish ayniqsa, havaskor jamoalar rahbarlariga ko'proq taalluqlidir. Chunki, havaskor jamoalarning tarkibi ko'p hollarda ishtirokchilarning ijro imkoniyatlariga bog'liq bo'lib qoladi. Ularning imkoniyatlaridan kelib chiqib, ma'lum musiqa asarlarini soddalashtirish yoki ma'lum ijro murakkabligi bilan bog'liq bo'laklarni boshqa cholg'ularda ijro ettirish singari ayrim cheklovlar talab etiladigan holatlar tez-tez uchrab turadi. Shu ma'noda har bir o'rganilayotgan musiqa asari jamoa imkoniyati nuqtai-nazaridan qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Bu jarayonni amalga oshirish uchun jamoa rahbari cholg'u jamoasi tarkibidagi hamma cholg'ularni, ulardagi ijrochilarning imkoniyatlarini yaxshi bilishi lozim bo'ladi. Havaskor jamoalarga rahbarlar tayyorlaydigan oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida bo'lajak jamoa rahbarini ana shu bilimlar bilan qurollantirish maqsadida "Cholg'ushunoslik" fani o'qitiladi. Fanning maqsadi talabalarni o'zbek xalq cholg'ulari haqida tegishli ma'lumotlar bilan ta'minlab, ularni musiqiy asarlarni mustaqil ravishda cholg'ulashtirishga tayyorlash va keyingi bosqichda o'tiladigan "Cholg'ulashtirish" fanini o'zlashtirish uchun zamin yaratishdan iborat.

"Cholg'ushunoslik" fanini o'zlashtirish davrida talabalar oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- o'zbek xalq cholg'ulari tarixidan xabardor bo'lish;
- cholg'u guruhlari va guruh tarkibidagi barcha cholg'ularning imkoniyatlarini nazariy jihatdan mukammal o'zlashtirish;
- o'zbek xalq cholg'ularining takomillashuvi, qayta ishlanishi va cholg'u oilalari yaratilishi jarayonini bilish;

- cholg‘u guruhlari va turli tarkibdagi xalq cholg‘u ansambllari uchun asarlarni cholg‘ulashtirishda lozim bo‘ladigan nazariy ma’lumotlardan xabardor bo‘lish;

- ko‘p ovozli cholg‘u ansambllari va o‘zbek xalq cholg‘u orkestri partituralarini yozishda qo‘llaniladigan qoidalar, belgilar, iboralarni o‘zlashtirish va qo‘llay bilish.

“Cholg‘ushunoslik” fanidan olingan bilim va ko‘nikmalar talabalarning “Dirijyorlik amaliyoti”, “Xalq cholg‘ularini o‘rganish”, “Cholg‘ulashtirish”, “Badiiy jamoalar bilan ishlash uslubiyoti”, “Ko‘hna cholg‘ular ijrochiligi” singari qator fanlarda qo‘l kelishini xisobga olib, bu fanni o‘zlashtirishdagi ma’suliyat juda yuqori bo‘lishi talab etiladi.

Fanni o‘zlashtirish o‘zbek xalq cholg‘ulari diapazoni va sozlanishini yodlab olishdangina iborat bo‘lib qolmasligi uchun har bir musiqa cholg‘usi o‘zlashtirilishi davrida shu cholg‘u tarixi, takomillashuv jarayoni, cholg‘u imkoniyatlari, qay turdagi cholg‘u ansambllarida samarali foydalanish yo‘llari, cholg‘uda ijro etish uslublari xaqidagi qiziqarli ma’lumotlar talabalarga yetkazilishi kerak.

“Cholg‘ushunoslik” fani amaliy mashg‘ulotlar ko‘rinishida o‘qitiladi. Mashg‘ulotlarning samarali o‘tishida xalq cholg‘ulari, plakatlari, cholg‘u guruhlari yoki orkestrlar ijrosida yozilgan musiqali yozuvlar, cholg‘u partituralaridan ko‘rgazmali qurol sifatida foydalanish yaxshi natijalarga olib keladi. Talabalarning musiqiy ma’lumotlari turlicha bo‘lgan hollarda mustaqil tayyorgarlik uchun vazifalar ularning imkoniyatlari va qobiliyatlarini inobatga olgan holda to‘g‘ri qo‘yilishiga, barcha talabalar tomonidan vazifalarning to‘liq bajarilishiga ahamiyat berish kerak.

O‘zbek xalq cholg‘ulari tarkibidagi aksariyat cholg‘ular boshqa xalqlarda ham ancha keng tarqalgan bo‘lib, ular xuddi shunday ko‘rinishda yoki bir oz o‘zgargan ko‘rinishda, shunday nomda yoki boshqacha nomlanishda uchraydi. Cholg‘ular tarixiga oid mavzu o‘zlashtirilayotganda shunday cholg‘ular haqida ham to‘liqroq ma’lumotlar berilishi foydadan holi bo‘lmaydi. Har bir cholg‘u alohida o‘rganilayotgan paytda esa uning sozlanishi yoki diapazoni qaysidir boshqa

cholgʻu ga oʻxshashlik tomonlariga bogʻlanib oʻrganilishi talabalar uchun yengillik tugʻdiradi. Misol tariqasida kontrabas dutor torlarining sozlanishi prima rubobi torlarining sozlanishiga teskari ekanligi, yaʼni - rubob prima torlari sol, re, lya, mi, tovushlariga sozlansa, kontrabas dutor torlari - mi, lya, re, sol tovushlariga sozlanadi. Bunday oʻxshashliklarni topa bilish va undan unumli foydalanish talabalar xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladigan mashgʻulotlarni tashkil etish imkoniyatini yaratadi. Diapazonlar oʻzlashtirilayotgan davrda ham shunga oʻxshash jihatlaridan unumli foydalanish tavsiya etiladi. Aytaklik, mezrobli cholgʻular guruhiga kiruvchi cholgʻularning dastasi 2 oktavalik va bir yarim oktavalik ekanligi mutaxassislar uchun yangilik emas. Prima rubobi, qashqar rubobi, alt dutori va bas dutorlarning dastasi 2 oktavalik hisoblanadi, chunki bu cholgʻulardagi ochiq tor sadosi bilan eng oxirgi parda bosilganda hosil boʻladigan tovush sadosi oʻrtasida 2 oktava farq bor. Misol uchun, rubob primaning birinchi ochiq tori ikkinchi oktava mi tovushiga sozlangan boʻlsa, shu tordagi eng oxirgi tovush ham mi tovushini, lekin 4- oktava mi tovushini beradi. Shunday qilib, biz yuqorida sanab oʻtgan cholgʻularning sozlanishini yodlab olgan talaba uning diapazonini aniqlashda birinchi torning sozlanishidan 2 oktava yuqoridagi tovushni topishi juda oson kechadi. Afgʻon rubobi, kontrabas dutorlarning dastasi bir yarim oktavalik xisoblanadi.

Nazariy maʼlumotlar imkoniyat darajasida koʻrgazmali vositalar, amaliy topshiriqlar bilan mustahkamlanishiga erishish zarur. Cholgʻular alohida oʻzlashtirilayotganda shu cholgʻuda taʼlim olayotgan talabalar bilan suhbat, muloqot shaklida mashgʻulotlarni tashkil etish ham yaxshi samara beradi. “Cholgʻushunoslik” fanini oʻzlashtirish jarayonida talabalar oʻzbek milliy musiqiy cholgʻulari turlari, ular xaqidagi tarixiy maʼlumotlar, har bir musiqiy cholgʻuning sozlanishi, diapazoni, ijro imkoniyatlari va xususiyatlari, shuningdek cholgʻu jamoalarida foydalanish oʻrni, qaysi cholgʻular bilan qoʻshilib ijro etilganda yaxshi sadolanishi kabi maʼlumotlarni olishi rejalashtiriladi.

Talabalarning turli musiqiy cholgʻularda taʼlim olishidan unumli foydalangan holda har bir cholgʻu oʻzlashtirilayotgan paytda talabalarning oʻzlari

o'zlashtirayotgan musiqiy cholg'u haqida ma'lumotlar to'plashi va boshqalarga yetkazishi usulidan samarali foydalanish zarur. Orkestr va ansambl ijrosida yozib olingan musiqiy yozuvlardan, turli cholg'u jamoalari partituralaridan foydalanishi ham yaxshi natijalar beradi. Har bir musiqiy cholg'uning jamoa tarkibida ishlatilish o'rni, yutuqlari va kamchiliklari haqida batafsil ma'lumotlar berilishi kerak. "Cholg'ushunoslik" darsligida berilgan ma'lumotlar zamon talabi va tinglovchilar ehtiyojiga ko'ra qayta ko'rib chiqilayotgani, xususan, darslikda ko'rsatilmagan musiqiy cholg'ularning musiqiy xayotimizga kirib kelayotgani va aksincha ba'zi musiqiy cholg'ularning iste'moldan chiqib ketayotganligi ham taxlil etilishi mumkin.

Talaba o'zbek xalq musiqiy cholg'ulari imkoniyatlari - sozlanishi, diapazoni va ijro shtrixlarini yoddan bilishiga erishish zarur. Har bir musiqiy cholg'u haqida yetarlicha tasavvurga ega bo'lishi uchun o'rganilayotgan cholg'u albatta namoyish etilishi va imkoniyat darajalari amaliy ijro bilan ko'rsatilishi maqsadga muvofiq. "Cholg'ulashtirish" fani bo'yicha mashg'ulotlar davrida qiyinchiliklar, tushunmovchiliklar tug'ilmasligi uchun transpozitsiya qilinadigan musiqiy cholg'ular, musiqiy kalitlar haqidagi ma'lumotlar ham talaba tomonidan chuqur o'zlashtirilishi kerak.

"Cholg'ushunoslik" fani bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etish jarayonida talabalarning "Fortepiano", "Maxsus cholg'u", "Musika nazariyasi", "Orkestr sinfi", "Ansambl sinfi" fanlarida olgan nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalari yordam beradi. O'z navbatida "Cholg'ushunoslik" fani bo'yicha olgan bilimlari "Cholg'ulashtirish", "Xalq cholg'ularini o'rganish", "Orkestr sinfi", "Ansambl sinfi" kabi qator fanlari o'zlashtirishlarida yengillik yaratadi.

O'zbek musiqiy cholg'ulari diapazoni va sozlanishi xaqidagi ma'lumotlar qat'iyiligi, aniqligi va o'zgarmasligini nazarda tutgan holda ushbu ma'lumotlar test holida ishlab chiqilishi va kompyuterga kiritilishi ham mumkin. Talabalar cholg'ularning sozi va diapazonini yoddan bilishlari uchun kompyuterga kiritilgan ma'lumotlar orqali o'zlarini sinab borishi yaxshi natijalar beradi.

“Cholg‘ushunoslik” fani bo‘yicha yakuniy nazorat ham test sinovlari tarzida kompyuterda topshirilishi mumkin.

Oliy ta’lim muassasalarining o‘quv rejasida umumiy soatlarning uchdan bir qismi talabalarning mustaqil ishi sifatida rejalashtirilgan. “Cholg‘ushunoslik” fanidan mustaqil ish talabani o‘zi tomonidan amalga oshirilib, bu jarayon quyidagi ko‘rinishlarda tashkil etilishi mumkin:

- O‘zbekiston davlat konservatoriyasi qoshidagi musiqiy cholg‘ular eksperimental laboratoriyasiga, musiqiy cholg‘ular muzeyiga birgalikda tashrif uyushtirish;
- professional xalq cholg‘u orkestrlari va ularning kutubxonalariga borish;
- xalq musiqiy cholg‘ularining tarixi va cholg‘ularning shakllanish jarayoni, cholg‘u ijrochiligi bilan bog‘liq ma’lumotlar jamlangan maxsus adabiyotlar va manbalar bilan ishlash;
- milliy musiqa cholg‘ulari ijrosidagi musiqiy yozuvlarni birgalikda tinglash va taxlil etish;
- xalq musiqa cholg‘ularining mohir ijrochilari bilan uchrashuvlar o‘tkazish;
- musiqa cholg‘ulari tarixi va rivojlanishiga oid, nashr etilmagan materiallarni to‘plash, hozirgi kunda musiqiy hayotimizga kirib kelayotgan noyob musiqiy cholg‘ularning imkoniyatlarini birgalikda o‘rganish;
- musiqa cholg‘ulari va umuman cholg‘u ijrochiligi bilan bog‘liq mavzular bo‘yicha referatlar, ilmiy ma’ruzalarni tayyorlash.

Mustaqil ish talabalar tomonidan amalga oshirilib, amaliy mashg‘ulotlar va mustaqil ta’lim jarayonida berilgan yo‘llanmalar va ko‘rsatmalar asosida talabalar bilim doyrasini kengaytirishga xizmat qiladi. Mustaqil ish uchun ajratilgan vaqtdan qay darajada foydalanish har bir talabani mavuzalarni o‘zlashtirish darajalariga va qiziqishlariga qarab bo‘ladi. O‘qituvchi har bir talaba mustaqil ishini tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatmalar va vazifalar qo‘ya bilishi predmetni chuqur o‘zlashtirishda ijobiy natijalarga olib keladi.

MUSIQA CHOLG‘ULARI VA ULARNI O‘RGANISH TARIXIDAN

Prezidentimiz I.Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” kitobida Samaraqand shahri yaqinidagi Mo‘minobod qishlog‘i hududida ayol kishining qabridan tilla va bronza buyumlari qatorida suyakdan yasalgan nay topilganligi, bu esa zaminimizda bronza davrida ham o‘ziga xos musiqa madaniyati mavjud bo‘lganligini faxr bilan e’tirof etadi. Farg‘ona tog‘ tizmasida joylashgan Saymalitosh qoya chizmalarida topilgan va marosim qatnashchilari o‘rtasida tasvirlangan aylana shaklidagi doyraga o‘xshash cholg‘u ham eramizdan avvalgi II asrga oid deb hisoblanadi. Xuddi shuningdek, mustaqillik davrida topilgan va jahon moddiy merosining durdonalari ro‘yxatiga kiritish uchun tavsiya etilayotgan “Sarmishsoy petrogliflari”da uchraydigan ayrim musiqa cholg‘ularining tasviri ham buni yana bir bor isbotlaydi.

O‘rta Osiyo hududida juda qadimgi zamonlardan boshlangan tarixiy jarayon eramizdan avvalgi birinchi mingyillikning yarmidan boshlab o‘z o‘rnini boshqa turmush tarziga, ya’ni davlatchilikning shakllanishiga bo‘shatib berdi. Buning natijasida ushbu hudud va Eron zaminida eramizdan avvalgi IV-III asrlardayoq bir nechta davlat paydo bo‘ldi. Ushbu davlatlardagi shahar madaniyati asosan o‘troq dehqonchilik va hunarmandchilikka asoslangan bo‘lib, aholining boshqa bir qismi ko‘chmanchilik turmush tarzini saqlab qoldi va ularning asosiy faoliyati chorvachilik bilan bog‘liq bo‘lganligini tarixdan bilamiz. Bu yerda yashagan aholining musiqa madaniyati ularning turmush tarzi bilan bevosita bog‘liq bo‘lganligini isbotlab o‘tirishning hojati yo‘q.

Eramizdan avvalgi 330-324 yillarda O‘rta Osiyoni zabt etgan Aleksandr Makedonskiy bu yerdagi mustahkam qal’alar ko‘rinishidagi shaharlar, qizg‘in ijtimoiy va madaniy hayotni ko‘rib hayron bo‘lgan. Zaminning istilyosi davrida tabiiy ravishda mahalliy aholi madaniyati va turmush tarzi juda katta yo‘qotishlarga uchrashi qatorida ellin madaniyatiga xos yangiliklar ham kirib kelib, aholining ijtimoiy va madaniy turmush tarzini boyitdi. Tarixchilarning

ta'kidlashlaricha bu davrda o'z mustaqilligini saqlab qolgan Xorazm madaniyati o'z mustaqilligini yo'qotgan Parfiya va Baqtriyaga qaraganda kamroq o'zgarishni sezgan.

Afrosiyob (Samarqand) xarobalaridan topilgan mehnat qurollari, turli jang qurollari, maishiy va badiiy sopol buyumlar, tangalar va boshqa ashyolar qatorida topilgan sopol terrakotalar (loydan yasaliib, keyin olovda pishirilgan, orqa tomoni yaassi, yuza qismi esa bo'rttirilgan ko'rinishdagi, bo'yi va eni taxminan 9-10 sm. bo'lgan sopol) da aks ettirilgan musiqachi erkak va ayollarning tasvirlari o'sha davr musiqa cholg'ulari haqida juda qimmatli ma'lumotlarni beradi. Ularning taxminiy yoshi eramizdan avvalgi III-I asrlariga oidligi aniqlangan. Afrosiyob terrakotalarida eng ko'p tasvirlangan musiqiy cholg'u ud hisoblanadi. Bu esa ushbu cholg'uning o'sha davrda juda keng tarqalgan sevimli cholg'u ekanligidan dalolat beradi. Tasvirlarda udning uch va to'rt torli ko'rinishda ifodalangani kuzatiladi. Terrakotalar yaratilgan davrdan keyingi o'tgan 7-8 asr davomida ham bu cholg'ularning ko'rinishi va torlarining sonida deyarli o'zgarish bo'lmagan. Abu Nasr Farobiy tomonidan yaratilgan "Musika haqida katta kitob"da ham ud cholg'usi xuddi shunga yaqin tasvirlangan. Farobiydan keyin yaratilgan musiqiy risolalarda esa udning to'rtinchi toriga qo'shimcha ravishda Farobiy tomonidan beshinchi tor kiritilganligi va uning sozi kvarta oralig'ida sozlana boshlanganligi yozilgan.

Afrosiyob xarobalarida topilgan cholg'ular tasviri orasida arfa cholg'usining ham o'z aksini topganligi, bu cholg'uning vatani sifatida ancha davrgacha Misr hisoblanib kelinganligi, lekin Old Osiyoda olib borilgan qazilmalar natijasida Ur dinastiyasining birinchi bo'g'ini bo'lgan Shumer malikasi xilxonasidan (eramizdan oldingi 3 ming yil) topilgan 11 torli nafis bezakli arfaning topilishi uning tarqalish hududi (geografiyasi)ni kengaytirish qatorida nafaqat Misrga balki Old Osiyoga ham tegishli bo'lishi mumkinligi mazkur manbada keltirilgan. Unda yozilishicha, burchakli arfa yoysimon arfadan keyin paydo bo'lgan va u Misrga Osiyodan keltirilgan. Shuning uchun ham uni "Osiyo arfasi" deb atashgan (22 bet).

Afrosiyobdan topilgan terrakotalar orasida damli (puflab chalinadigan) cholg'ular guruhiga oid bir qator naysimon cholg'ular tasviri ham uchraydi. Bu cholg'ularning aksariyati bo'ylama naylar bo'lib, ularning ijrochilari sifatida ko'p hollarda ayollar tasvirlangan.

Rus tilida prodolniiy deb nomlanadigan ijro uslubini biz quyida Afrosiyob topilmalari orasidagi yonlama nay tasviri eramizdan oldingi III-I asrlarga taalluqliligidan kelib chiqib, yonlama nayning vatanini ham O'rta Osiyo deb belgilash mumkin. Bu topilmalar orasida kichik hajmdagi bo'ylama cholg'u tasviri ham uchraydi. Muallif bu cholg'uning qay turdagi nay tipiga kirishi to'g'risida aniq fikr bildirmasa-da, sibizg'a yoki sopol nay bo'lishi ehtimolligini bayon etadi.

Afrosiyobda topilgan terrakotalarda tanbursimon cholg'ular va zarbli cholg'ular (baraban, tarelka) tasviri ham uchraydi.

Mazkur manbada Parfiyona (manbada Parfiyena) davlatining (hozirgi Turkmaniston hududi) poytaxti bo'lgan Naysa (manbada Nisa) joylashgan hududda olib borilgan qazilmalar chog'ida topilgan ritonlar (fil suyagi bilan bezatilgan shoxsimon idishlar)da ishlangan rang-barang tasvirlar mutaxassislarni lol qoldirganligi ham bayon etiladi. Ushbu tasvirlar orasida musiqa cholg'ularidan – kifara, tanbursimon cholg'u, Pan fleytasi, avlos, doyrasimon cholg'u va tarelkalarining aniq aks ettirilishini kuzatish mumkin (29-bet). Manbaga tayangan holda shuni aytish mumkin-ki, kifara ham lira (hozirda tasviri musiqani ifodalovchi musiqa cholg'usi)simon cholg'udir. Kifara professional cholg'u bo'lsa, lira havaskorlar tomonidan foydalanilgan. Avlos (grekcha nomlanishi) – surnaysimon cholg'u bo'lib, uning quvur qismi alohida, puflanadigan qosmi alohida tayyorlanadi. Ya'ni asosiy tovush surnay va goboydagi singari “nay pachoq” qismi bilan bog'liq. Pan fleytasi (grekcha) esa bir-biriga birlashtirilgan quvurlardan iborat bo'lib, ularning har birida alohida tovush hosil qilinadi. Uning nomlanishi grek xudosi Pan nomi bilan bog'liq bo'lib, ushbu xudo doimiy ravishda mazkur cholg'uni ushlagan holda tasvirlanadi. Grek mualliflarining guvohlik berishicha,

har ikki cholg‘u ham ularga Sharq mamlakatlaridan kirib kelgan (30-31 betlar). Hozirda juda ko‘p Sharq xalqlarida (Xitoy, Indoneziya, Koreya, Yaponiya va boshqa) avlos tipidagi va Pan fleytasi tipidagi cholg‘ular uchraydi.

Naysa ritonlarida tasvirlangan zarbli cholg‘ulardan biri – doyrallardir. Bu tasvirlardagi doyralarning ko‘rinishi va hajmi hozirgi o‘zbek doyralaridan juda kam farqlanadi. Shunisi e’tiborliki, aksariyat hollarda doyra ijrochilari sifatida ayollar tasvirlangan. Bu holatni muallif diniy marosimlar bilan bog‘lashga harakat qiladi (32 bet).

Naysa ritonlarida tasvirlangan tarelkalar ikki xil ko‘rinishga ega. Birinchisi – raqqosa ayollar qo‘liga maxsus tasma bilan bog‘langan piyolasimon shaklda bo‘lsa, ikkinchisi – cholg‘uchilar qo‘lidagi yassi ko‘rinishdagi tarelkalardir. Rossiyadan O‘rta Osiyoga kelib (19 asrning oxiri) kapelmeyster lavozimida faoliyat ko‘rsatgan Avgust Eyxgorn tomonidan jamlangan kolleksiyadagi tarelka yassi tarelkaga yaqin ko‘rinishga ega.

Turkmanistonning janubiy qismida muqaddam hukm surgan Marg‘iyona davlatining markazi Marv (hozirgi Bayram Ali shahri yaqini) o‘rnida topilgan terrakotalarda ham musiqa cholg‘ularining tasviri uchraydi (33 bet). Bu yerda Afrosiyob udiga o‘xshash ud cholg‘usi va undan farqlanadigan, suvoriy (otliq) qo‘lida tasvirlangan do‘mbirasimon cholg‘uni alohida ko‘rsatish mumkin. Muallifning fikricha, suvoriy qo‘lidagi cholg‘u Tog‘li Oltoy va Xakasiya o‘lkalarida “toshpur”, “xomus” kabi nomlanadigan baxshilar cholg‘ulariga juda o‘xshab ketadi. Nima uchundir ushbu cholg‘uning hozirgacha Surxondaryo va Qashqadaryo baxshilarining sevimli cholg‘usi bo‘lgan do‘mbira bilan aloqadorligi masalalari yoritilmagan (O‘.T.).

Makedonskiy istilosidan omon qolgan antik Xorazm madaniyatiga oid yodgorliklar – tasviriyy san’at va haykaltaryoshlik namunalari, sopol buyumlar va terrakotalardagi musiqa cholg‘ularining tasviri (Qo‘y qirilgan qal’a va Tuproq qal’a topilmalari) eramizdan oldingi IV-III asrlarga oid ma’lumotlarni beradi. Bu

yerdan eng qadimiy davrlarga oid arfa va kifarani, keyingi davrlarga oid ko'plab tirnama cholg'ularni keltirish mumkin (34-35 betlar). Tirnama cholg'ular ichida do'mbrasimon yoki dutorsimon cholg'ular uchraydi va muallif bu cholg'ularni ko'chmanchi xalqlar cholg'usiga, Afrosiyob udlarini esa shahar cholg'usiga kiritadi.

Biz yuqorida qayd etganimizdek, O'rta Osiyoning greklar tomonidan istilyo qilinishi mahalliy tamaddun natijalarining greklar tomonidan o'zlashtirishlari va o'z navbatida ellin madaniyatining mahalliy xalq turmush tarziga singdirilishiga sabab bo'lgan. Makedonskiy tomonidan ishg'ol qilingan hududlarga ellin madaniyatining ta'siri borasida Farmer "... greklar Sharqqa bergandan ko'ra ko'proq narsani olgan"ligini e'tirof etadi.

Hozirgi Surxondaryo viloyati hududida xukm surgan Kushon davlatining eski shaharlari o'rnini (hozirgi Xolchayon va Dalvarzintepa) da olib borilgan qazilma ishlari natijasida ham musiqa cholg'ulariga oid (eramizdan oldingi I asr) artefaktlar topilgan. Xususan, Xolchayondagi Saroy xarobalarida topilgan loydan ishlangan va yupqa bo'yoq berilgan haykallar majmuasi ichida ud ushlagan ayolning tasviri alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, to'la saqlanmagan bo'lsa-da, uning libosi va yuz tuzilishiga ko'ra bu ayol mahalliy aholi vakili ekanligini aniqlash mumkin. Dalvarzintepadan topilgan terrakotalarda ham ud va arfa ijrochilarining tasviri uchraydi.

Biz tahlil etayotgan davrda madaniy almashuvlar nafaqat uzoq o'lkalarga qaraganda yonma-yon joylashgan mamlakatlar bilan kengroq bo'lgan. O'rta Osiyo va Eron o'rtasidagi madaniy almashuv haqida shunday fikrlar mavjud. O'sha davrda So'g'd va Xurosonda bir xil cholg'ular mavjud bo'lgan. Yana qizig'i shundaki, sosoniylar davridagi Fors davlatining mashhur musiqachisi bo'lgan Borbad asli O'rta Osiyolik (Marvlik) bo'lgan va eron musiqa tizimidagi yetti asosiy maqomlar (pardalar)ning ixtirosini uning nomi bilan bog'lashadi. Xusrav II saroyiga kelgan Borbad mukammal shakllangan musiqachi bo'lib, o'zi bilan

vatanida juda keng tarqalgan barbat cholgʻusi bilan birga unda ijro etish texnikasini ham olib kelganligi aniq.

Yapon imperatorlariga sovgʻa qilingan buyumlar orasida saqlangan va Oʻrta Osiyodan keltirilgan (IX-X asr) ud cholgʻusining deka qismiga tushirilgan tasvirda ikkita cholgʻuchi ifodalangan. Ularning biri mizrob bilan ud chalayotgan holda tasvirlangan boʻlsa, ikkinchisi juda aniq tasvirlanmagan va u kamon bilan tik holda ushlangan cholgʻuni ijro etayotganligi aniq. Bu cholgʻu yoki ikki torli kamon bilan chalinadigan rubob, yoki qoshiqsimon koʻrinishda tayyorlanadigan qoʻbiz cholgʻusi boʻlishi mumkin. Qoʻbiz cholgʻusining qozoqlarda paydo boʻlishi (musiqashunos B.Sariboyev fikricha) yarim afsonaviy Qoʻrqut nomi bilan bogʻlanadi.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

Savollar:

1. Afrosiyob terrakotalarida qaysi musiqa cholgʻusi eng koʻp tasvirlangan?
2. “Musika haqida katta kitob” risolasining muallifi kim?
3. Naysa ritonlarida tasvirlangan tarelkalar necha xil koʻrinishda boʻlgan?
4. Antik Xorazm madaniyatiga oid yodgorliklardagi musiqa cholgʻularining tasviri nechanci asrlarga oid?
5. Ud ushlangan ayolning tasviri qaysi hududdan topilgan?
6. Yapon imperatorlariga IX-X asrda sovgʻa qilingan buyumlar natijasida Yaponiyada qaysi cholgʻu paydo boʻlgan?

Topshiriqlar:

1. Rus tilida chop etilgan V Belyayevning «Muzikalniye instrumenti Uzbekistana» va T. Vizgoning «Muzikalniye instrumenti Sredney Azii» kitoblaridan mavzuga oid maʼlumotlarni topib oʻqing.
2. Internet saytlaridan foydalangan holda mavzu boʻyicha maʼlumotlaringizni boyiting.
3. Tarixiy maʼlumotlar asosida musiqa cholgʻularining oʻzgarishi va takomillashishini tahlil eting.

4. 2006 yilda chop etilgan O‘.Toshmatovning “Cholg‘ushunoslik” o‘quv qo‘llanmasidagi Al Xorazmiy qalamiga mansub ma’lumotlar bilan tanishing.

MUSIQA CHOLG‘ULARINING O‘RTA ASR OLIMLARINING RISOLALARIDA AKS ETTIRILISHI

IX-XI asrlarda yashab ijod qilgan O‘rta Osiyoning buyuk donishmandlari – Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Abdulloh al Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniylar o‘z davridagi mavjud barcha dunyo ilmlarini puxta egallash va tahlil qilish evaziga o‘z ta’limotlarini yaratishga erishdilar. Bu nazariyalar va ilmlar eng ilg‘or va mukammal bo‘lganligi bois nafaqat Arab xalifaligi hududida, balki butun jahonda bir necha asrlar davomida dunyo ilmining rivojlanish yo‘lini belgilab berdi.

Arab tilining islom dini qabul qilingan barcha mamlakatlarda davlat tili sifatida joriy etilishi bir tomondan noqulaylik tug‘dirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan ushbu mamlakatlarda yashagan ilm ahlining arab tiliga tarjima qilingan grek falsafasi va ilmidan bahramand bo‘lish imkonini yaratdi. Bu davrda Aristoksen (“Garmonika”, “Ritmika”), Aristotel (“Muammolar”), Yevklid (“Garmonika”, “Kanon”), Ptolomey (“Garmonika”) va boshqa mualliflarining asarlari arab tiliga tarjima qilingan edi. Ushbu asarlarning tanqidiy o‘rganilishi natijasida IX-XI asrlar davomida O‘rta Osiyoning buyuk olimlari – Farobiy, Ibn Sino, al-Xorazmiylar tomonidan o‘z davrining mukammal musiqa nazariyasi ishlab chiqildi. Bu asarlarga yuz yillar davomida G‘arb va Sharq musiqashunoslari eng mukammal manba sifatida murojaat etdilar. O‘sha davrlarda musiqa ilmi matematika ilmining tarkibiy qismi sifatida qabul qilingan edi. Buyuk olimlarning asarlarida musiqa tovushining hosil bo‘lishi, musiqiy tovushlarning o‘zaro munosabati, ularning tartibi, intervallar, ladlar, tovushlarning qo‘shilishi asosida hosil qilinadigan kuylar haqidagi ma’lumotlar bilan birga musiqa cholg‘ulari to‘g‘risida ham juda qimmatli ma’lumotlar berilgan. Ana shu davrdan boshlangan musiqa ilmi XII asr boshlarida

Faxruddin ar-Roziy (“Ilmlar majmuasi”ning bir bo‘limi musiqaga bag‘ishlangan), XIII asrda Safiuddin Urmaviy “Risolatun ash Sharafiya” va “Kitob ul advor”), XIV asrda eronlik olimlar ash-Sheroziy va al-Amuli, XV asrda Abdurahmon Jomiy (“Musiqqa haqida kitob), al-Husayniy, Abdulqodir Marog‘iy, XVI-XVII asrlarda buxorolik Kavkabiyy va Darvish Alilarning asarlari bilan yanada boyitildi.

Abu Nasr Farobiy ellin falsafasi nomyondalari (grek olimlari)ning asarlarini batafsil o‘rganish asosida O‘rta Osiyoda birinchi bo‘lib musiqqa nazariyasini yaratgan olim hisoblanadi. Uning “Musiqqa haqida katta kitob”i nafaqat mukamal musiqqa nazariyasi, balki cholg‘ushunoslik bo‘yicha ham ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ilk manbadi. Ushbu yirik risolaning ikkinchi kitobi musiqqa cholg‘ulariga bag‘ishlangan. Ushbu manbada eng mukammal cholg‘ulardan biri sifatida ud keltiriladi. Bu davrda udning to‘rtta tori bo‘lganligi, uni yanada yaxshiroq qilish uchun beshinchi tor ham kiritilishi maqsadga muvofiqligi bayon etiladi. Shundan kelib chiqib, ayrim mualliflar, shu jumladan Abdurahmon Jomiy ud cholg‘usiga beshinchi torni Farobiy kiritgan, degan xulosaga keladi. Aslida esa Farobiygacha davrda yashagan al-Kindiy (taxminan 790-847 yillar) ud cholg‘usiga 5-tor kiritilib, u xayvon ichagidan eshilgan holda tayyorlanganligi va yog‘ochdan yasalgan mizrob (plektr) o‘rniga suyakdan yasalgan mizrob ishlatila boshlangani to‘g‘risida ma’lumot beradi. Farobiyning kitobida ud cholg‘usining tasviri berilmagan bo‘lsa-da, uning zamondoshi bo‘lgan Bag‘dod xalifasi Ja’far al Muqtidir (manbada Djafar al-Muktidir-bi-alax) o‘zining ud cholg‘usini ushlab turgan holatini kumush tangada zarb qildirgani bois Farobiy davridagi ud to‘g‘risida tasavvur qilish mumkin.

Farobiyning kitobida keltirilishicha, tanbur o‘z sadosiga ko‘ra udga eng yaqin cholg‘u. Bu davrdagi tanburning ikkita, ba’zida uchta tori bo‘lgan. Farobiy ikki turdagi tanbur to‘g‘risida ma’lumot beradi. Ularning birinchisi – xuroson tanburi, ikkinchisi – bag‘dod tanburi. Ularning shakli va tovush qatorida farqi bor ekanligi, bag‘dod tanburida 5 ta bog‘lama parda mavjudligi uchun unda faqat qadimiy kuylarni ijro etish mumkinligi, agar u takomillashtirilib, tovush qatori o‘zgartirilsa qadimiy kuylarni chalish imkoniyati chegaralanib qolishi

mumkinligini ma'lum qiladi. Aksincha, xuroson tanburidagi doimiy (qo'zg'almas) 5 ta pardadan tashqari 13 ta suriladigan pardalar mavjudligi va unda turli xil kuylarni chalish imkoniyati birmuncha kengligi aytiladi. 5 ta o'zgarmas (muqim) pardalarning birinchisi – xarrak va shayton xarrak orasidagi masofaning to'qqizdan bir qismida, ikkinchisi – to'rtidan bir, uchinchisi – uchdan bir qismida, to'rtinchisi – teng yarmida, beshinchisi xarrak bilan to'rtinchi parda orasidagi masofaning to'qizdan bir qismida joylashganligi ma'lum qilinadi. (79 bet).

Farobiyning kitobida damli (puflab chalinadigan) cholg'ular to'g'risida ham ma'lumotlar bor. Unda keltirilgan birinchi cholg'u bo'ylama nay bo'lib, tojiklarning tutak cholg'usiga yaqin bo'lgan bo'lsa kerak. Ushbu bo'ylama nayning ustki qismida 7 ta orqa tomonida 2 ta teshik bo'lgan.

Ushbu manbada keltirilgan (muallifning ta'biricha surnay) yana bir cholg'uning ustki qismida 8 ta, orqa tomonida 1 ta va yon tomonida 2 dona teshigi mavjudligi bayon etiladi. Muallif (T.S. Vizgo) Farobiy ushbu cholg'uni naylar guruhiga noto'g'ri kiritgan, degan xulosa beradi. Bizning fikrimizcha, bu haqiqatan ham yonlama nay bo'lishi mumkin. Chunki, haligacha deyarli o'zgarmagan nay cholg'usida haqiqatan ham 1 ta havoni yuborish teshigi, 6 ta tovush balandligini boshqaradigan teshik qatorida uning yuza qismida 2 ta foydalanilmaydigan teshik va orqa yoki yon tomonida yana bitta foydalanilmaydigan teshik mavjud.

Farobiy yana bir cholg'u – qo'shmay to'g'risida ham ma'lumot keltirib, uni dubay deb ataydi (balki aslida dunay, ya'ni ikki nay ma'nosidadir).

Manbada “rubob” nomi bilan keltirilgan cholg'u ikki yoki bitta torli bo'lganligi va uning tovushi inson ovozigacha yaqinligini hisobga olgan holda bu yerda g'ijjak cholg'usi haqida gap ketayotganligini fahmlash mumkin. Chunki, arablar hozirgacha g'ijjak cholg'usini “rabob” deb ataydi (O.T.). Bu cholg'u kvarta oralig'ida, ud cholg'usining ikkinchi va uchinchi toriga mos holda sozlanishi bayon etilgan.

Arfa cholgʻusi – har bitta tovush hosil qilish uchun alohida tor tortiladigan cholgʻular qatoriga kiritilib, oʻsha davrda uning 11 yoki 12 torli turlari tarqalganligi, ijroda qulaylik boʻlishi uchun uning 15 torli turi ancha maʼqul ekanligi, ushbu cholgʻuning yanada mukammal boʻlishi uchun uning torlari sonini 25 taga yetkazish lozimligi aytiladi. Arfaga bagʻishlangan qismda yana bir arfasimon cholgʻu – maʼzif toʻgʻrisida ham qisqa maʼlumot keltirilgan. Shu bilan musiqa cholgʻulari toʻgʻrisidagi maʼlumotlar yakunlanadi. Lekin boshqa bir boʻlimda tovush oraligi va balandligini aniqlashtirish uchun parallelepiped asosga 15 dona tor tortilgan cholgʻuni tavsiya etadi. Bu cholgʻuning oʻsha davrda isteʼmolda boʻlgan “shoxrud” yoki uning oilasiga kiruvchi cholgʻu ekanligini taxmin qilish mumkin.

Farobiy davriga yaqin muddatda yashagan Abu Ali ibn Sino ham musiqani matematika fani tarkibiga kiritgan va oʻzining “Kitob ush Shifo” asarining bir qismini musiqaga bagʻishlagan. Ushbu nashrda u torli cholgʻularni birinchi marta turlarga ajratgan va ularni:

- mizrobli (tanbur, barbat);
- rezonator ustiga torlari tortilgan (shohrud);
- ikkita asosga torlari tortilgan (lira);
- kamon vositasida tovush hosil qilinadigan (rabob) cholgʻularga ajratadi.

Abu Ali ibn Sino Farobiydan farqli ravishda hozirda ud nomi bilan mashhur cholgʻuning eski – barbat nomi bilan keltiriladi. Barbat asli turkiyzamin va eronzaminda juda qadimdan mavjud boʻlib, unda XIII asrda birinchi boʻlib arab musiqasini ijro etgan shaxs Ibn Surayi boʻlganligi Farmer tomonidan eʼtirof etilgan. Shu davrning oʻzida yashagan al Xorazmiy ham barbat – bu ud cholgʻusi ekanligi, bar – koʻkrak, bat – oʻrdak, yaʼni oʻrdak koʻkrak ekanligini yozgan. Haqiqatan ham davrlar taʼsirida oʻzining koʻrinishini yoʻqotmagan udning yon tomonidan qaralsa, bunga amin boʻlish mumkin.

O'sha davr musiqa cholg'ulari to'g'risida ma'lumot beruvchi yana bir manba "Mafotih al ulum" bo'lib, u Farobiy va Ibn Sinolarga juda yaqin davrda yashagan Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Yusuf al Xorazmiy tomonidan tuzilgan. Ushbu asar ikkinchi maqolasining 7-bobi "Musiqa haqida" deb nomlanadi va ushbu bobning 1-fasli to'laligicha musiqa cholg'ulariga bag'ishlangan.

Deyarli bir davrda yashagan uch olimning musiqaga oid nazariyasi va ta'limotini XIII asrda yashagan Safiuddin Urmaviy nafaqat to'ldirdi, balki yanada rivojlantirdi. Farobiy va boshqa olimlardan farqli ravishda u musiqa cholg'ulariga bag'ishlangan maxsus risola qoldirmagan bo'lsa-da o'z asarlarida birinchi marotaba ud cholg'usi vositasida aniq musiqiy tovush hosil o'rnini belgiladi va ularga arab alfaviti asosida nomlashni tavsiya qildi. Bu esa o'z navbatida tovushlar balandligini aniqlash va qog'ozda ifodalash imkonini berdi. Tovushlar balandligini aniqlash nisbiy (absolyut, sentlarga tayanmagan), ya'ni udning qaysi balanlikdagi tovushga sozlanishiga nisbatan bo'lsa-da, keyinchalik zamonaviy nota tizimining dunyoga kelishi uchun asos yaratdi.

"Risolatun ash Sharafiya" asarida muallif udning o'sha zamonda eng mukammal cholg'u ekanligini e'tirof etib, unda beshta juft tor mavjudligi, torlar kvarta oralig'ida sozlanishi, udning dastasida 7 ta parda (yoki tovush hosil qilish o'rnini O.T.) mavjudligi to'g'risida ma'lumot berdi va har bir pardaga o'sha davrning mashhur ijrochilari bergan nomlarni yozib qoldirdi.

Safiuddin Urmaviy o'zining "Kitob ul advor" (manbada Kitab ul-advar) asarida ud cholg'usining tasvirini ham keltirgan. Urmaviydan keyin ud cholg'usining 5 ta tori va 7 ta pardasi to'g'risidagi ma'lumotlar ash Sheroziy (1236-1310), Abdurahmon Jomiy (1414-1492) va al Husayniy (XV asrning ikkinchi yarmi) asarlarida yozilgan. Ud cholg'usining sozlanishi, tovushqatori bilan bir qatorda uning batafsil chizmasi Abdurahmon Jomiyning "Musiqa haqida kitob"ida uchraydi.

G'ijjak to'g'risidagi ma'lumotlarga kelsak, Abdulqodir Marog'iyning kitobida keltirilishicha, g'ijjak va kemancha aslida bitta cholg'u bo'lib, birinchisining kosaxonasi kattaroq, keyingisniki esa kichikroq hajmi bilan farqlanadi. Bundan tashqari, o'sha davrlarda ularga tortiladigan asosiy torlar 2 tadan bo'lib, g'ijjakda cholg'usida qo'shimcha 7 dona rezonator torlar ham qo'llanilganligi bayon etiladi.

Dutor cholg'usi to'g'risidagi ilk ma'lumotlar XV asrga oid al Husayniyning qo'lyozmasida uchraydi. Biroq bu cholg'u to'g'risida to'liq tasavvur hosil qilishning imkoniyati chegaralangan. Undagi ijro uslubi aniq yoritilmaganligi bois ko'plab tadqiqotchilar "dutor" atamasi tanburning 2 ta torli turi bo'lishi mumkin, deb xulosa chiqarishlariga imkoniyat yaratadi.

Farobiy birinchi bo'lib inson ovozi eng mukammal cholg'u sifatida e'tirof etgan bo'lsa, bu fikr Ibn Sino va ash Sheroziy tomonidan yana bir bora ta'kidlangan. Ushbu allomalarimizning asarlarida inson ovoziga eng yaqin cholg'ular birinchi navbatda damli (puflab chalinadigan) cholg'ular bo'lsa, undan keyingi o'rinda torli-kamonli cholg'ular ekanligi va undan keyin ud va tanbur turishi e'tirof etiladi.

XVII asrda buxorolik buyuk hofiz, sozanda Darvish Ali Changiy tomonidan yaratilgan risola o'sha davrga xos juda ko'p musiqa cholg'ulari haqidagi o'ta qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan. Darvish Ali U yaratgan risolaning beshinchi va oltinchi boblari musiqa cholg'ulariga Movarounnahr hukmdori Imomqulixon (1611-1642) saroyida musiqachi bo'lib xizmat qilgan. bag'ishlangan. Xususan, unda tanbur – juda qadimiy musiqa cholg'usi va boshqa cholg'ularning ustozlari ekanligi, chang – Zuhro yulduziga bag'ishlangan 26 ta torli va 7 maqomni ijro etish xususiyatiga ega cholg'uligi, nay – 8 ta teshikli qadimiy damli cholg'u va unda barcha 12 maqomlarni ijro etish mumkinligi, qonun – 6 xil sozlanishi mumkin bo'lgan tirnama cholg'u ekanligi, ud – barcha cholg'ularning podshosi bo'lib, uning 6 juft ipak torlari borligi haqida ma'lumotlar berilgan. Mazkur asarda

Buxoro va Samarqandda keng tarqalgan rubob (mizrobli O‘.T.), g‘ijjak, qo‘biz cholg‘ulari, shuningdek, mahalliy aholi tomonidan kam qo‘llaniladigan musiqor (Pan fleytasi turidagi), nayi-enban (junli terisi bor damli cholg‘u?), ruhavza (olti torli tirnama cholg‘u), kungura (5 ta ladli hind cholg‘usi), arg‘anun (meshli damli cholg‘u) haqida ham yozilgan. Darvish Ali tomonidan keltirilgan 16 ta cholg‘uning 7 tasi (tanbur, chang, qonun, ud, rubob, qo‘biz, g‘ijjak) o‘sha davrda juda ommalashganligini risolaning navbatdagi boblaridan bilib olish mumkin. Chunki unda mazkur cholg‘ularning ijrochilari ular uchun yaratilgan asarlar to‘g‘risida so‘z boradi. Bu boblarda yuqorida qayd etilmagan nay, dutor, balabon, surnay, nog‘ora cholg‘uchilari to‘g‘risida ma’lumotlar kiritilgani holda, ruhavza, kungira, musiqor cholg‘ularining ijrochilari to‘g‘risida umuman ma’lumot berilmagan. Bu esa mazkur cholg‘ularning o‘sha davrda iste’molda deyarli bo‘lmaganligini bildiradi.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar

Savollar:

1. Abu Nasr Farobiyning qaysi asari cholg‘ushunoslik bo‘yicha ilk manba hisoblanadi?
2. “Mafotih al ulum” asarining muallifi kim?
3. Qaysi kitobda torli cholg‘ular birinchi marta turlarga ajratilgan?
4. Farobiyning e’tirofiga ko‘ra eng mukammal cholg‘u nima?
5. Farobiy “dubay” deb atagan cholg‘u hozirda qanday nomlanadi?
6. Movarounnahr hukmdori Imomqulixon (1611-1642) saroyida musiqachi bo‘lib xizmat qilgan buyuk hofiz, sozandaning ismini bilasizmi?

Topshiriqlar:

1. Mazkur darslikda foydalanish uchun tavsiya etilgan adabiyotlar va internetdan foydalanib o‘rta asr olimlarining risolalarida musiqa cholg‘ularining aks ettirilishiga oid qo‘shimcha ma’lumotlar to‘plang.

2. 2006 yilda chop etilgan O‘.Toshmatovning “Cholg‘ushunoslik” o‘quv qo‘llanmasidagi Al Xorazmiy qalamiga mansub ma’lumotlar ichidan hozirgi kunda saqlangan musiqa cholg‘ularini toping va ularning o‘zgarishini tahlil qiling.
3. Abu Ali ibn Sinoning “Musiqa haqida risola”sidagi (N.Shodmonov tarjimasi) musiqa cholg‘ularini o‘rganing va hozirgi musiqa cholg‘ulari bilan taqqoslang
4. O‘rta asr olimlari risolalarida keltirilgan ma’lumotlarga tayanib o‘sha davr musiqa madaniyatiga oid cholg‘ularni turlarga bo‘lib yozib chiqing.

MUSIQA CHOLG‘ULARINI O‘RTA ASR MINIATYURALARIDAGI TASVIRLAR ORQALI O‘RGANISH

XV-XVII asrlarda musavvirlar tomonidan yuksak mahorat bilan ishlangan miniatyuralar ham o‘sha davr musiqa cholg‘ulari to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlarni beradi. Ba’zi miniatyuralar, xususan, Fidavsiyning “Shoxnoma”siga ishlangan miniatyuralarda qadimiyroq cholg‘ular tasvirlangan. Chunki, “Shoxnoma”ga ishlangan miniatyuralarning eng birinchisi XIV asrga, ya’ni asar yaratilgandan keyin 300 yildan ortiq keyingi davrga oiddir. “Shoxnoma”ning XV asrdagi nashriga ishlangan miniatyuralarda musiqa cholg‘ulari aniqroq tasvirlanganligi bilan ajralib turadi. Bu nashrdagi miniatyuralarda ud cholg‘usi juda ko‘p tasvirlanadi. Ud (barbat) cholg‘usining mohir ijrochisi Borbad yashagan davrdan to miniatyurada aks ettirilganigacha deyarli besh asr o‘tgan bo‘lsa-da, bu davrda cholg‘u ko‘rinishining deyarli o‘zgarmaganligi musavvirlarga unchalik qiyinchilik tug‘dirmagan.

Shu davrda nashr etilgan “Shoxnoma”ga ishlangan miniatyuralarda arfa, ud, tanbur va rubob cholg‘ulari o‘rin olgan. Asar qahramonlaridan biri – Ozodaning qo‘lida tasvirlangan arfa cholg‘usining 14 tori juda aniq tasvirlangan. Ko‘plab miniatyuralarda arfa cholg‘usiga doyra jo‘r bo‘lishi tasvirlanadi (manbada arfa cholg‘usi “chang” atamasi bilan berilgan. O‘.T.). Arfa cholg‘usida erkaklar, o‘smir

yigitlar, ko'pchilik hollarda esa ayollar ijrochi sifatida tasvirlanadi. Yana bir miniatyurada kekxa ayol (balki jodugardir) qo'lida 3 ta torli tanbursimon cholg'u tasvirlangan bo'lib, uning bog'lama pardalari 13 tani tashkil qiladi.

Miniatyuralarda rubob cholg'usi ham uchraydi. Lekin u arfa va ud cholg'ulariga nisbatan kamroq tasvirlanganligi amaliyotdagi nisbatan kamroq ishlatilganligini bildiradi.

Ushbu cholg'ular qatorida qonun cholg'usi ham miniatyuralardan joy olgan. Lekin qonun cholg'usiga nechta tor tortilgani, quloqlarining sonini ilg'ab olishning imkoniyati yo'q. Faqat qonun cholg'usi sozandalarning tizzasiga qo'yilib, tirnab chalinayotganini kuzatish mumkin.

Ushbu asarga ishlangan miniatyuralardan birida g'ijjak cholg'usi ham o'z aksini topgan. Tasvirdagi g'ijjak kamon vositasida chalingani, uning kosaxonasi yarim shar shaklida, dastasi esa yuqori tomon kengayib boruvchi shaklda ekanligini ilg'ash mumkin. Ammo uning nechta torli ekanligini ilg'ab bo'lmaydi.

Xuddi shunday ko'rinishdagi g'ijjak Amir Xusrav Dehlaviyning "Xusrav va Shirin" poemasiga Kamoliddin Bexzod (1455-1537) tomonidan ishlangan miniatyurada ham tasvirlangan.

Shu asarga ishlangan yana bir miniatyurada uch kishidan iborat cholg'uchilar ansambli tasvirlangan bo'lib, ularning ikkitasi – nay va doyra ijrochilari, uchinchi esa qarsak chalib turgan o'smir yigitdir. Miniatyurada o'z aksini topgan nay bo'ylama naydir. Afsuski, xuddi Afrosiyob topilmalaridagi kabi bu tasvirda ham nayning nechta teshigi bo'lganligini aniqlab bo'lmaydi.

Boshqa miniatyuralarda tasvirlangan cholg'u ansambllarining tarkibi turlicha. Masalan ularda chang, doyra, nay tarkibli, chan, ud, tanbur, rubob tarkibli ko'rinishda uchraydi.

Aksariyat miniatyuralarda ov va jang jarayonlarini tasvirlashda kuchli ovoz chiqaradigan cholg'ular ishtirok etadi. Bular asosan, karnay, surnay, tarelka, nog'ora va litavrasimon katta urma cholg'ulardir.

Miniatyuralardan shuni kuzatish mumkinki, cholg'u ansambllarining ikki xil – kamer (asosan yopiq joyda ijro uchun mo'ljallangan cholg'ulardan tashkil topgan) va ochiq havoda chalishga mo'ljallangan ansambllar shu davrda deyarli shakllanib bo'lgan. Miniatyuralarda tasvirlangan karnaylar ikki xil ko'rinishga ega. Bular – to'g'ri va tirsakli karnaylardir. “Shoxnoma”ning 1440 yilgi nashriga tayyorlangan miniatyurada jang qilayotgan har ikki tomonning alohida cholg'u ansambllari tasvirlangan. Bu yerdagi har ikki ansambl cholg'ulari tarkibi bir xil. Lekin bu miniatyurada muqaddam tasviriy san'at asarlarida tasvirlanmagan ikki tomoniga teri tortilgan baraban ham o'z aksini topgan.

Miniatyuraga boy nashrlardan yana biri Alisher Navoiyning “Xamsa”sidir. Mazkur asarlarga o'sha davr musavvirlari tomonidan ishlangan miniatyuralarda chang, g'ijjak, doyra, rubob, tanbur, dutorsimon cholg'u, ud, surnay, karnay, nog'ora, nay cholg'ulari aks ettirilgan.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar

Savollar:

1. Fidavsiyning “Shoxnoma”siga ishlangan miniatyuralarda qaysi cholg'ular tasvirlangan?
2. “Shoxnoma”ga ishlangan miniatyurada arfa cholg'usining nechta tori juda aniq tasvirlangan?
3. Ko'plab miniatyuralarda arfa cholg'usiga qaysi musiqa cholg'usi jo'r bo'lishi tasvirlangan?
4. Miniatyuralarda tasvirlangan karnaylar necha xil ko'rinishga ega bo'lgan?
5. Miniatyuraga boy nashrlarni sanab bering?
6. Miniatyuralarda qonun va gijjak cholg'ulari qanday tasvirlangan?

Topshiriqlar:

1. Internetdan foydalangan holda nafaqat Markaziy Osiyo balki Yaqin Sharq va Kavkaz osti davlatlarida e'lon qilingan miniatyuralardagi musiqa cholg'ulari bilan tanishing.
2. Kamoliddin Behzod miniatyuralarida necha turli musiqa cholg'ulari tasvirlanganini aniqlang va ularning katalogini yaratishga harakat qiling.
3. Alisher Navoiyning "Xamsa"ga ishlangan miniatyuralarda tasvirlangan musiqa cholg'ularini to'plang va hozirgi kundagi shu cholg'ularning holati bilan taqqoslang.
4. Musiqa cholg'ulari tasvirlangan miniatyuralar katalogini yaratishga harakat qilib ko'ring.

XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA MUSIQA CHOLG'ULARI KOLLEKSIYALARI

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida O'rta Osiyoga kelgan sayohatchilar bu yerdagi milliy musiqa cholg'ularining rang-barangligi va turlarining ko'pligini ko'rib hayron qolishgan. Ular Chor Rossiyasi tomonidan bosib olingan yerlardan tashqari, hukumat qo'shinlarining oyog'i yetib bormagan tog'li hududlarga ham borishga muvaffaq bo'lishgan va turli joylardan musiqa cholg'ularini arzon garovga sotib olib o'z kolleksiyalarini yaratishgan. Ushbu sayohatlar davomida O'rta Osiyodan olib ketilgan musiqa cholg'ularining juda katta qismi Sankt Peterburgdagi Etnografiya instituti qoshidagi Pyotr I nomidagi muzeyida jamlangan. Bu yerdagi cholg'ularning asosiy qismi XIX asr 80-yillarining yarmidan 1914 yillarigacha davrda yig'ilgan bo'lib, ularni to'plashda I.Zarubin, I.Rachinskiy, K.Roset, A.Samoylovichlar tomonidan sotib olingan cholg'ular asosiy o'rinni egallaydi. Muzeydagi cholg'ular Pomirning tog'li qishloqlari va Xivaga uyushtirilgan sayohatlar davrida sotib olingan. A.Samoylovich kolleksiyasiga oid bo'lganligi bois bizni qiziqtiradi, albatta. Bu kolleksiyadagi tanbur, qo'biz, g'ijjak, bulaman, surnay, tilli tuydyuk, nog'ora, va doyralar ichida dutorning yo'qligi Samoylovichni ham qoniqtirmagan. Shunisi qiziqarli-ki, Xivadan sotib olingan tilli tuydyuk cholg'usining rasmi bundan uch yil

muqaddam Suriyadan kelgan folklor ansamblida foydalanilgan va bizga sovg'a sifatida tashlab ketilgan arablarning "maqrana" cholg'usining xuddi o'zginasidir. Ushbu cholg'uni biz qo'shnay, surnay va bulaman cholg'ularining mohir ijrochisi Matrasul Matyoqubovga ko'rsatganimizda xuddi shunday cholg'uning avval Xivada yoki Turkmanistonda mavjud bo'lganligi haqida ma'lumotlarga ega emasligi bildirgan edi. Bundan kelib chiqadiki, shu ko'rinishdagi cholg'ular ham unutilib, ularning o'rniga hozirgi ko'rinishdagi qo'shnaylar o'tgan asrning boshlaridan foydalanila boshlagan ekan.

O'sha davrda ayollar o'rtasida changqo'biz juda keng tarqalganligi va uni xivaliklar "qo'biz" deb atashi yozib qoldirilgan. Xonning chiqishini "e'lon qiladigan" karnaylar va kechalari soqchilar tomonidan chalinadigan barabanlarni Samoylov xivaliklarning musiqa cholg'ulari qatoriga kiritmaydi. Uning kolleksiyasida cholg'ular hozirgi kundagi cholg'ulardan keskin farqlanmaydi. G'ijjak uch torli bo'lib, uning kosasi kokos daraxtining mevasidan yasalganligi, tanburning torlari uchta ekanligi istisno bo'lmasa, aksariyat cholg'ularning deyarli o'zgarmagan holda o'zbek musiqa madaniyatida saqlanib kelayotganligini anglatadi. Darvesh qiyofasida O'rta Osiyoga kelgan mojar (venger) Vamberi ham g'ijjak, dutor cholg'ulari to'g'risida alohida fikr bildirgan. Ayniqsa, u xon saroyidagi musiqa cholg'ulari va sozandalarning mahoratiga yuksak baho beradi.

Shu davrlarda to'plangan musiqa cholg'ulari kolleksiyalari ichida eng boyi 1870 yilda Toshkent shahriga kapelmeyster lavozimiga ishga kelgan Avgust Eyxgornning to'plamidir. U bu yerda o'tgan 13 yil umri davomida ikki marta cholg'u kolleksiyasini to'plagan. Uning birinchi kolleksiyasi 1872 yili Moskvadagi ko'rgazmada namoyish etilib, keyin Venada tashkil etilgan Jahon ko'rgazmasiga olib ketilgan va V.Belyayevning taxminiga ko'ra u yerdan qaytmagan. Shundan keyin ikkinchi marta to'plangan cholg'ular kolleksiyasi 1885 yilda Peterburgdagi F.Patek nomidagi muzeyda namoyish etilgan.

Eyxgornning kolleksiyasi ikki bo‘limdan iborat bo‘lib, birinchi bo‘lim – “Qirg‘izlar va boshqa mo‘g‘ul xalqlarining cholg‘ulari” (nima uchundir Eyxgorn qirg‘izlarni, shu jumladan qozoqlarni turkiylar emas, mo‘g‘ullar guruhiga taalluqli deb hisoblagan), ikkinchi bo‘lim – “Turkiston, Qashqar, Qo‘qon, Afg‘oniston, Buxoro va Xiva xalqlarining cholg‘ulari” deb nomlangan. Hozirda ushbu kolleksiya Moskva shahridagi M.Glinka nomidagi muzeyda saqlanadi. Birinchi bo‘limga taalluqli uchburchak kosaxonali do‘mbira, o‘yma qilib tayyorlangan oval shakldagi do‘mbira, qo‘biz, qo‘miz, choor, surnay, changqo‘biz, yog‘och qo‘biz kabi cholg‘ular to‘g‘risida uzoq to‘xtalmasak-da, ikkinchi bo‘limdagi cholg‘ular to‘g‘risida qisqacha ma’lumotlar beramiz.

Bu bo‘limdagi cholg‘ular uchta guruhga ajratiladi: torli, damli va urma zarbli. Torli cholg‘ular guruhiga kiritilgan dutorning hozirda qo‘llanilayotgan an’anaviy dutordan hech qanday farqlanmasligini kuzatish mumkin. Bu turga kiruvchi tanburning ikki xili namoyish etilgan. Birining kosasi oval shakliga yaqin bo‘lsa, ikkinchisi noksimon ko‘rinishda butun yog‘ochdan yo‘nilgan, ancha uzun dastaga ega va dastasida 16 ta bog‘lama pardasi bor. Tanburlarning har ikkisiga ham 3 tadan metall simlar tortilgan. Tanburlarning uchta torligidan tashqari unga o‘xshash tanbursimon cholg‘ularning: chortor, panjtor va shashtor turlari ham Tojikiston hududida saqlanib qolganligi haqidagi ma’lumotlardan Tojikistonda mavjud bo‘lgan tanbur va setorlarning turlari haqida gap ketayotganligini anglash mumkin. Eyxgorn kamon bilan chalinadigan tanbur haqida gapirib, uni “setor” deb noto‘g‘ri nomlashadi, chunki uning torlarining soni 12 ta, deydi. Eyxgorn kolleksiyasidagi birinchi g‘ijjak zamonaviy an’anaviy g‘ijjakdan faqat torining uchtaligi bilan farqlanadi. Ikkinchi g‘ijjakning kosaxonasi kokos yong‘og‘ining kosasidan bo‘lib, unga ikki dona ot qilidan tor tortilgani bayon etilgan.

Kolleksiyadagi ruboblar uchta bo‘lib, ularning birinchisi – boy savdogardan sotib olingan qadimiy rubob, ikkinchisi toshkentlik sozgar tayyorlagan yangi rubob va Qobuldan keltirilgan, oltita ichakdan eshilgan asosiy tori, 9 ta metall rezonator

tori bo'lgan Afg'on rubobidir. Fikrimizcha, qadimiy rubob sifatida e'tirof etilgan cholg'u pomir rubobi bo'lsa kerak (O'.T).

Eyxgorn kolleksiyasida Qashqardan keltirilgan qonun ham mavjud. 36-38 ta metall simi bor bu cholg'u o'sha davridayoq iste'moldan chiqib ketganligi kolleksiyadagi cholg'uning nochor ahvolga kelib qolganligi va mahalliy sozgarlar va sozandalarning bu cholg'u to'g'risida Eyxgornga tuzukroq ma'lumot bera olmaganligidan ham ma'lum. Kolleksiyadagi surnay cholg'usi to'g'risida berilgan ma'lumotlar bu cholg'uning hozirgacha o'zgarmaganligini isbotlaydi. Unda ijro etishning "dam qaytarib chalish" usuli Eyxgornni lol qoldiradi va u salkam 300 taktlik asar davomida surnaychi biror marta ham nafasni uzmasdan go'yo bir nafasda ijro etganligini e'tirof etadi.

Eyxgorn kolleksiyasida jamlangan qo'shnay, nay cholg'ulari ham hozirgacha hech qanday o'zgarishga uchramagan. Faqat unga kiritilgan nay metallardan yasalgan bo'lib, katalogda "sarboz nay" deb ko'rsatilgan. Har ikki cholg'uning ko'rinishi va teshiklarining soni bir xil.

Damli cholg'ularning eng yirigi bo'lmish – karnay kolleksiyada ikki xil ko'rinishda namoyish etiladi. Ularning birinchisi – to'g'ri quvurli, ikkinchisi – tirsakli. Tadqiqotchilarning fikricha, tirsakli karnaylar XIX asrning oxiridan boshlab umuman iste'moldan chiqib ketgan va o'tgan asrning boshlarigacha muddatda Buxoro amirligidagi maxsus marosimlardagina ishlatilgan.

Kolleksiyaning oxirgi qismida doyra, nog'ora, chindovul, safoil, sagat (tarelka) va nima uchundir urma cholg'ular qatoriga kiritilgan changqo'biz cholg'ulari namoyish etiladi. Doyra va nog'ora ko'rinish va shakl jihatidan deyarli o'zgarmagan bo'lsa, kosaxonasi misdan yasalgan va ustiga teri tortilgan chindovul (qozoqlarda daulpaz, qirg'izlarda daulbas deyilgan) hozirda iste'moldan chiqib ketganligining guvohimiz. Bu cholg'ular asosan otlarning egariga bog'lab yurilganligi va unda qo'l bilan va qamchi bilan chalish mumkinligi yozilgan. Kolleksiya tarkibida bo'lgan sagat (tarelka) ham chindovul kabi o'tgan asrning

boshlaridayoq iste'moldan chiqib ketdi. Va nihoyat kolleksiyadagi eng oxirgi cholg'u – changqo'biz qandaydir sababga ko'ra "chang" deb nomlangan va zarbli cholg'ular guruhiga kiritilgan. Aslida uni "tilli" cholg'ular guruhiga kiritish ma'qulligi T.Vizgo tomonidan e'tirof etiladi.

Kolleksiyada o'sha davrdagi aksariyat cholg'ular aks etgan bo'lsa-da, xalq ichida iste'molda bo'lgan cho'pon nay, burg'u (hayvon shoxidan yasalgan cholg'u), tablak, qoshiq va qayroq unutib qoldirilgan.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar

Savollar:

1. O'rta Osiyodan olib ketilgan, Sankt Peterburgdagi Etnografiya instituti qoshidagi Pyotr I nomidagi muzeyda jamlangan musiqa cholg'ulari asosan nechinchi yillarda yig'ilgan?
2. A.Samoylovichning kolleksiyasida qaysi cholg'u bo'lmagan?
3. 19 asr oxirida to'plangan musiqa cholg'ulari kolleksiyalari ichida eng boyi kim tomonidan to'plangan?
4. Moskva shahridagi M.Glinka nomidagi muzeyda saqlanadigan musiqa cholg'ulari kolleksiyasi kim tomonidan to'plangan?
5. Avgust Eyxgorn musiqa cholg'ularini necha marta yig'ib kolleksiya qilgan?
6. Eyxgorn tomonidan to'plangan birinchi kolleksiyaning taqdiri nima bo'lgan?

Topshiriqlar:

1. Internetdan foydalangan holda Sankt Peterburg va Moskva shaharlari muzeylaridagi o'zbek milliy cholg'ulari kolleksiyasining hozirgi ahvoli bilan tanishing.
2. Manbalar va internetdan foydalangan holda 19* asr oxirida to'plangan kolleksiyalar va hozirgi o'zbek musiqa cholg'ularini solishtiring va ularning takomillashish jarayoniga baho bering.
3. Avgust Eyxgornning kolleksiyasiga kirmagan musiqa cholg'ulari togrisida ma'limotlar to'plash.
4. O'zbekiston davlat konservatoriyasi qoshidagi musiqa cholg'ulari muzeyiga borib u yerdagi musiqa cholg'ulari bilan tanishing.

XX ASR MUSIQA CHOLG'ULARI

1933 yilda chop etilgan V.Belyayevning “Muzikalniye instrumenti Uzbekistana” (O‘zbekistonning musiqa cholg‘ulari) nomli kitobida XX asr boshida mavjud bo‘lgan musiqa cholg‘ulari to‘liq qamrab olingan va ularning har biriga jiddiy yondashilib, chuqur ilmiy ta’rif berilgan.

V. Belyayev cholg‘ularni ularda tovush hosil qilish xususiyatiga ko‘ra tasniflab uchta katta guruhga ajratgan. Birinchi guruhga – urma, shovqinli, tirnama-tilli, rezonansli cholg‘ularni, ikkinchi guruhga – damli cholg‘ularni, uchinchi guruhga – torli cholg‘ularni kiritgan. Birinchi guruh 4 turga ajratilib, unga kiritilgan urma cholg‘ular sifatida: qarsak (insonlarning ritm qilish mumkin a’zolari ishtiroki sifatida), qoshiq, zang, doyra, nog‘ora, chindovul, do‘l singari milliy cholg‘ular bilan birga o‘sha davrda iste’molga kirib kelgan yevropa cholg‘ularidan kastanet, litavra, mis tarelkalar, uchburchak, katta va kichik barabanlar ham kiritilgan. Shundan keyin “Damli cholg‘ular” guruhi o‘z navbatida 6 ta turga, “Torli cholg‘ular” esa 5 ta turga ajratilgan. Salkam 100 betlik matnda bayon etilgan cholg‘ular haqidagi ma’lumotlarning ko‘p qismi haligacha o‘z qimmatini yo‘qotmagan va cholg‘ushunoslik bo‘yicha hozirgacha yaratilgan qo‘llanmalarining eng mukammallaridan biridir.

Kitobning ilk mavzusi inson tomonidan hosil qilinadigan qarsakka bag‘ishlanadi. V.Belyayev o‘zidan muqaddam o‘tgan cholg‘ushunos olimlar Farobiy, Ibn Sino va boshqa Sharq olimlaridan keyin birinchi bo‘lib inson a’zolarining o‘zida hosil qilinadigan tovushni, ya’ni qarsakni musiqa cholg‘ulari qatoriga kiritadi. U o‘z kitobida qarsak jo‘rligida ijro etilgan qo‘shiq parchasi notasini ham keltiradi. Kitobda O‘zbekistonda foydalaniladigan qayroq va qoshiqni yevropa tasnifiga amal qilgan holda urma cholg‘ularning “kastanetlar” turiga kiritadi. Qayroq va qoshiqning tarixiy ahamiyati, milliy musiqada foydalanish o‘rinlariga alohida e’tibor qaratadi.

Urma cholg'ularning "Mis tarelkalar" turiga kiritilgan cholg'ular ichida "sagat" nomi bilan uncha katta bo'lmagan bir juft bronzadan yasalgan tarelka haqida ma'lumot berilgan. Shu yerda "sagat" atamasining etimologiyasi haqida to'xtalib, Kurt Zaksning "Musika cholg'ulari lug'ati"ga asoslangan holda bu so'z arabchada "kastanet" ma'nosini berishini yozgan.

Kitobning doyra, chirmanda, childirma, dapga bag'ishlangan mavzusida u hududimizda hozirgi davrgacha juda keng iste'molda bo'lgan doyra cholg'usi haqida juda keng ma'lumotlar bergan. O'zbekistonning turli hududlarida turli nomlanishga ega bo'lgan bu cholg'uning aslida bir xil cholg'u ekanligi, unda hosil qilinadigan ikki xil tovush ham turli joyda turlicha nomlanishi to'g'risidagi batafsil ma'lumotlardan keyin doyra ritmlarini notaga olish masalalariga ham to'xtaladi. Ayniqsa, uning mahalliy ijrochilar tomonidan milliy usullarni og'zaki bayon qilish uslublariga qaratgan e'tibori taxsinga loyiq. V.Belyayev keltirgan ma'lumotlarga qaraganda oddiy usullar bilan bir qatorda maqom sho'balarida foydalaniladigan juda murakkab usullarni ham og'zaki ravishda uzatish imkoni bo'lgan. Shu ma'noda u "Saqil" va "Ufori Saqil" usullarining an'anaviy tarzidagi va zamonaviy nota yozuvidagi variantlarini keltiradi.

Nog'oraga bag'ishlangan mavzuda u katta nog'oralar (maxsus tantanalarda foydalanilgan litavrasimon cholg'u), karnay, surnay, doyra bilan birgalikda ishlatiladigan kichik nog'oralar to'g'risida ma'lumotlar keltirgan.

Ma'lumki, V.Belyayev o'z ma'lumotlarini Avgust Eyxgorn tomonidan to'plangan kolleksiya va uning e'lon qilingan va e'lon qilinmagan yozma ma'lumotlariga tayangan holda bayon etgan. Shu sababli Eyxgornning ma'lumotlariga tayangan holda yana bir cholg'u – chindovul haqida to'xtalib, misdan yasalgan va ustiga teri tortilgan, uncha katta bo'lmagan bunday cholg'ular otning egariga bog'lab qo'yilgan yoki qo'lda tasmaidan ushlagan holda ijro etilgani bayon etiladi.

Do‘l yoki dovul nomi bilan ataladigan cholg‘ularning O‘zbekiston hududida unchalik keng tarqalmaganligi, shunga o‘xshash, litavrasimon cholg‘ularning Buxoro amiri tomonidan o‘tkaziladigan maxsus marosimlarda ishlatilganligi haqida xabar beradi. Dovul cholg‘usi haqiqatan ham Kavkaz xalqlari va Eronda juda keng tarqalgan. Bu cholg‘ularni hozir ham O‘zbekistonda ishlatishadi va uning mohir ijrochilari bor. Shu o‘rinda Farg‘ona vodiysida hozirgacha ishlatiladigan bir atama – “do‘l nog‘ora” haqida bir oz to‘xtalsak. Odatda ochiq havo ansambli, ya’ni karnay, surnay, doyra ishtirok etadigan ansambllarda Toshkentda albatta nog‘ora ishtirok etadi. Lekin hozirgacha Farg‘ona vodiysida bu ansambl tarkibida bir juft nog‘ora o‘rnida ikkita baraban ishlatilib, ularning past tovush beradigani – do‘l nog‘ora deb ataladi.

Kitobning 2- bo‘limi “Shovqinli cholg‘ular” deb nomlangan. Bu yerda u safoil cholg‘usini nima uchundir “sapai” tarzida ataydi va safoil ijrosida ijro etilgan qo‘shiq notasi ham keltirilgan (safoil to‘g‘risida batafsil ma’lumot, uning surati keyingi bo‘limlarda beriladi – O‘.T.). Ushbu bo‘limda yana bir cholg‘u – zang to‘g‘risida, ya’ni raqs paytida raqqosalar qo‘llari va oyoqlariga taqadigan “zang” haqida ham ma’lumotlar keltiradi.

Kitobning navbatdagi bo‘limlari changqo‘biz va tarelkalarga bag‘ishlangan. Alohida cholg‘ular guruhi – “Tirnama-tilli cholg‘ular”ga kiritilgan changqo‘bizning tuzilishi va ijro uslubi haqidagi ma’lumotlar qatorida u (Kurt Zaks ma’lumotlariga tayangan holda) bu turdagi cholg‘ular yevropada “vargan” deb atalgani, 1800 yillarda bu cholg‘u juda ommalashib ketib, undagi ijrochilik o‘ta yuqori darajaga yetganligi va XIX asr davomida u “lab garmonikasi” nomli cholg‘u tomonidan siqib chiqarilganligini keltiradi. “Rezonansli cholg‘ular” qatoriga kiritilgan tarelka va patnisning katta ashula ijrosida qo‘llanilganligi, ular xonandalarning ovozini kerakli tomonga yo‘naltirishda foydalanilganligi, shu bilan bir qatorda ba’zi ijrochilar tarelkalarni xuddi jonglyorlar kabi o‘ynatish mahoratini ham egallaganligi ta’riflangan.

Bizning nazarimizda tarelkalarni katta ashula paytida ishlatishning bir necha sababi bor. Avvalo u ijrochining o'ziga ishongan holda tomoshabinlar oldida turishiga yordam beradi. Chunki, har qanday hofiz ham tik turgan holda ashula aytayotganda qo'llarini qay holatda tutishni o'ylashga majbur. Shuning uchun tarelka bu holatda qandaydir "suyanchiq" ma'nosida ham ishlatishi mumkin. Bundan tashqari, tarelkalarning eng asosiy vazifasi – xonanda ovozini kerakli tomonga (birinchi navbatda o'zi eshitadigan darajada), ya'ni tomoshabinlar va hamnafasi tomonga yo'naltirishdir. Shu bilan bir qatorda ijro jarayonida, shuningdek, hamnafas (birgalikdagi) ijro davrida bir xil tempga rioya qilish uchun "dirijorlik tayoqchasi" vazifasini ham bajaradi.

Kitobning ikkinchi bobi damli cholg'ularga bag'ishlangan bo'lib, undagi 6 ta bo'limda damli cholg'ularning turlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Birinchi bo'limda milliy cholg'ulardan sopol nay va karnay haqida, ikkinchi bo'limda bo'ylama naylar – cho'pon nay (g'ajir nay), tutak va enlama nay haqida, uchinchi bo'limda hozirda biroz unutilgan bir juft bargning bir-biriga yopishtirgan holda ular orasidan havo o'tkazish orqali tovush hosil qilish usuli (matnda "sapi") haqida, to'rtinchi bo'limda qo'shnay, bulaman va sibizg'alar haqida, beshinchi bo'limda esa surnay va duduk to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu bobning so'nggi bobi garmonlarga bag'ishlangan. Ma'lumki, muqaddam Xorazmda ayollar tomonidan (xalfalar) juda keng qo'llanilgan garmonlar o'rnini keyingi paytda akkordeon cholg'usi to'liq egallab bo'ldi.

E'tiborlisi shundaki, kitobning barcha bo'limlarida keltirilgan deyarli barcha cholg'ularning imkoniyatlari, tovushqatori, ba'zi cholg'ularning tuzilishi va yasalishi, shuningdek ularda ijro etilgan kuylardan namunalar keltirilgan.

Torli cholg'ularga bag'ishlangan bobning kamonli cholg'ular haqidagi bo'limida qadimiy cholg'u – qo'biz, shuningdek, g'ijjak va o'sha davrda mahalliy sozandalar keng foydalangan skripka cholg'usi to'g'risidagi ma'lumotlarga duch kelamiz.

Navbatdagi bo‘lim tirnama cholg‘ular ta’rifiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda do‘mbira va dutor to‘g‘risidagi ma’lumotlar beriladi. Bu yerda dutor haqida o‘ta batafsil ma’lumotlar berilgani holda do‘mbira haqidagi ma’lumotlar juda qisqa va faqat boshqa manbalarga tayangan holda berilgan. Vaholangki, Respublikamizning janubiy viloyatlari – Qashqadaryo va Surxondaryoda hozirgacha oddiy xalqning eng sevimli cholg‘usi, baxshilarning doimiy hamrohi bo‘lib kelayotgan o‘zbek do‘mbirasi (bizning nazarimizda) o‘sha davrda ham shu va boshqa hududlarda juda keng tarqalgan bo‘lishi kerak.

Mizrobli (plektrli) cholg‘ularga bag‘ishlangan bo‘limda ikki turdagi cholg‘ular – dastasi ladlarga bo‘lingan va bo‘linmagan cholg‘ular haqida ma’lumotlar keltiriladi. Dulan rubobi (muallifning ma’lumotlariga ko‘ra bu cholg‘u ungan Qashqardan keltirilgan – O‘.T.) ladsiz cholg‘u sifatida keltirilib, uning imkoniyatlari ancha batafsil ochilgan. Biroq bu cholg‘u va ladli cholg‘u sifatida keltirilgan “hind rubobi” o‘sha davrda ham O‘zbekiston hududida keng tarqalmagan. Muallifning aytishicha, bu ikki rubobning asosiy farqi ulardagi lادلarning bor yoki uning yo‘qligida.

Ushbu bo‘limda yozilishicha, o‘sha davrda qashqar rubobi hozirgichalik keng tarqalmagan va faqat Farg‘ona vodiysida iste’molda bo‘lgan. Bu ruboblarning 5 dona tori bo‘lib, eng ingichka va eng yo‘g‘on torlari juft bo‘lgan (hozirda yo‘g‘on tori bitta, o‘rtadagi tori juft).

Tanbur to‘g‘risida berilgan juda keng va batafsil ma’lumot bu cholg‘uning o‘sha davrda juda keng tarqalganligi va O‘zbekistonning deyarli barcha hududlarida ishlatilganligidan dalolat beradi. Manbada uning 3 ta torli turi berilgan. Uchta torli tanburning kamon bilan ijro etiladigan turi esa “setor” nomi bilan berilgan. Hozirda kosaxonasi biroz katta va boshqa ko‘rinishga ega bo‘lgan, ham noxun bilan, ham kamon bilan chalinadigan cholg‘u “sato” deb atalmoqda. Manbada “chortor” nomi bilan berilgan tanbur hozirgi tanburning xuddi o‘zidir. “Panjtor” nomi berilgan cholg‘u bizning fikrimizcha uyg‘ur tanburi bo‘lsa kerak.

Chunki, bu tanburlar o'zining kosaxonasi kattaligi, dastasining uzunligini hozirgacha saqlab qolgan. Manbada "shashtor" nomi berilgan cholg'uning ikki turi to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi. Birinchisida mizrob bilan ijro etiladigan juft tori bo'lib, qolganlari rezonator sifatida qo'llanishi, ikkinchisida esa juft torlar o'rtada joylashgan bo'lib, xarrakning shu qismi biroz balandroq yasalgani ma'lum qilingan. Bunday cholg'ularning bizgacha yetib kelgan turlari yo'qligi, mutaxassislarning ham bunday cholg'ular to'g'risida bilmasligiga suyangan holda ushbu cholg'uni Tojikistonning Badaxshon hududida hozirgacha saqlanib qolgan "setor" cholg'usining turlaridan biri, deb o'ylash uchun asos bor. Bundan tashqari, tanburda (uyg'ur tanburidan boshqa) doimiy ravishda asosiy kuy chalinadigan tori toq bo'lgan va u noxun (ko'rsatkich barmoqqa kiyiladigan maxsus metall moslama) yoki o'stirilgan tirnoq bilan ijro etilgan. Noxun (shu jumladan tirnoq)da juft torni chalish ancha murakkab va yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqib, "shashtor"ning tanburlar qatoriga noto'g'ri kiritilganligini isbotlash mumkin.

Cholg'ularga bag'ishlangan so'nggi bobda kalin, chang va qonun cholg'ulari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Muallifning "kalin" va "qonun" to'g'risida berilgan ma'lumotlarga tayangan holda ularning bir xil cholg'u, ya'ni qonun ekanligini anglash mumkin. Chang to'g'risidagi ma'lumotlarga qaraganda uning tovushqatori diatonik bo'lgan va tovushqatordagi 14 ta bosqichning 13 tasida uchtalik va faqat bittasi toq torlari bo'lib, jami 40 tori bo'lgan.

Biz V.Belyayevning "O'zbekiston musiqa cholg'ulari" kitobida keltirilgan ma'lumotlarni to'liq keltirishni maqsad qilib olmagan holda cholg'ularning hozirgi kundagi holati bayon qilinadigan navbatdagi bo'limlarda ular to'g'risida batafsil ma'lumotlarni berishga harakat qilamiz.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar

Savollar:

1. V. Belyayev o'zining "O'zbekiston musiqa cholg'ulari" nomli kitobida cholg'ularni necha guruhga ajratgan?

2. V.Belyayev inson a'zolarining o'zida hosil qilinadigan qanday tovushni musiqa cholg'ulari qatoriga kiritadi?
3. Mazkur kitobda hozirgi chang to'g'risida qanday ma'lumotlar berilgan?
4. Kitobning 2- bo'limi qanday nomlangan?
5. Kitobda tanbur cholgusining yana qanday turlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan?
6. Kitobda berilgan musiqa cholg'ulari tasnifi Xornbostel tasnifiga mos keladimi?

Topshiriqlar:

1. V. Belyayevning "O'zbekiston musiqa cholg'ulari" nomli kitobini topib o'qing.
2. Kitobda tariflangan cholg'ular bilan hozirgi kunda istemolda bo'lgan cholg'ularni solishtirib ko'ring.
3. "O'zbekiston musiqa cholg'ulari" kitobiga kirgan, hozirda istemoldan chiqib ketgan cholg'ularni aniqlang va ularning iste'moldan chiqib ketish sababini aniqlang.
4. Internetdan foydalanib 20 asrda Markaziy Osiyoda foydalanilgan musiqa cholg'ulari to'g'risida ma'lumotlar to'plang va o'z bilimingizni boyiting.

O‘ZBEK MILLIY CHOLG‘ULARINI QAYTA ISHLASH VA TAKOMILLASHTIRISH JARAYONI VA UNING NATIJALARI

O‘zbek milliy cholg‘ulari asosan diatonik tovushqatorda bo‘lib unda kompozitorlar, jaxon xalqlarining musiqiy asarlarini ijro etish imkoniyati chegaralanganligi bois rekonstruksiya qilish masalasi ilgari surildi. Undan asosiy maqsad tovush (ohang) xususiyatlarini yaxshilash, cholg‘ularda yangi texnik imkoniyatlar yaratish, (tovush tusi) nozikliklariga erishgach, 12 bosqichli ravon sur‘atlarga bo‘lingan xromatik tuzilmalarni joriy etish, tovushqatorlarni kengaytirishdir.

O‘zbek xalq cholg‘ularini rekonstruksiya qilish va takomillashtirish, ularni yevropa tovush qatori tizimiga o‘tkazish ustida A.I.Petrosyans rahbarligi ostida bir guruh ustalar V.V.Andrreevning tajriba va ijodiy yutuqlariga tayanib ish olib borishdi. Usta Usmon Zufarov ko‘plab dutor va tanbur, g‘ijjaklarning turdosh oilalarini yaratgan bo‘lsa Matyusuf Xarratov changning yuqori registrini qo‘shimcha torlar va xaraklar hisobiga kengaytirdi. Yunus Rajabiy Usta Usmon Zufarov bilan hamkorlikda dutor-bas, g‘ijjak-bas, g‘ijjak-alt, namunalarni yaratdilar. Cholg‘ularni takomillashtirish natijada xalq cholg‘ularimiz diatonik tovushqatordan xromatik tavush qatorga utkazildi. Asta-sekinlik bilan an‘anaviy cholg‘ularning eski namunalari o‘rniga zamonaviy ijrochilikning yuksak talablariga javob bera oladigan yangi namunalar paydo bo‘la boshladi, va mavjud bo‘lgan musiqa cholg‘ularini yanada takomillashtirishga urinishlar bo‘ldi.

Buning natijasida:

chang cholg‘usi asosida chang-pikkolo, chang-prima, chang-tenor, bas chang;

qashqar rubobi asosida prima rubob, rubob-metssosoprano, rubob-alt, afg‘on rubobi;

dutor cholg‘usi asosida dutor-prima, dutor-sekunda, dutor-alt, dutor-tenor, dutor-bas, dutor-kontrabas;

g'ijjak cholg'usi asosida g'ijjak-alt, g'ijjak-bas, g'ijjak-kontrabaslar yaratildi.

Yangi musiqa cholg'ulari avvaliga A.I.Petrosyans tashabbusi bilan Toshkent Davlat musiqa bilim yurtida tashkil qilingan o'quv cholg'u orkestr sinfida sinaldi. Keyinchalik O'zbekiston Davlat filarmoniyasi orkestrida cholg'ularni rekonstruksiya qilish tajribaxona vazifasini o'tadi.

1943 yilga kelib halq cholg'ularining rivojlangan turlari anchaga ko'paydi. 50-yillarga kelib sinov tajribaxonasida Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikiston va Qoraqalpog'iston halq musiqa cholg'ulari ham rekonstruksiya qilindi va takomillashtirildi. Qirg'iziston uchun qobizlar: prima, sekunda, alt, (pardali va pardasiz) bas va kontrabas turlari, torli mizrobli qobizlar: prima, tenor, alt, kamonchali qobizlar; alt, kontrabaslar, Qoraqalpoq cholg'ularidan dutorlar turkumi, mizrobli dutorlar paydo bo'lishi va orkestr tuzilishidagi ulkan yutuqlar yuzaga keldi.

Usha davrda torli-mezrobli va torli-noxunli cholg'ularni ravon suratlarga bo'lishga va xromatik tovush qatorga utkazilishiga qarshi chiqib, rekonstruksiya qilingan cholg'ular o'ziga xosligi va milliy xususiyatlarin yo'qotishi to'g'risida fikrlar ham bildirilgan. Vaqt o'tib xromatik tovush qatorga utkazilgan o'zbek xalq cholg'ulari asosida yaratilgan turlarning ba'zilar istimoldan chiqib ketdi. Hozirgi kunda rekonstruksiya qilingan cholg'ulardan prima-rubobi, afg'on rubobi, dutor-prima, dutor alt, dutor-bas, dutor-kontrabas, g'ijjak altlar o'zbek xalq cholg'ulari ansambllari va orkestrlarida keng qo'llanilib kelinmoqda.

O'zbek xalq cholg'ulari orkestri besh guruhga bo'lingan bo'lib bular;

1. Puflama cholg'ular guruhi (kichik nay, nay, surnay, qo'shnay)
2. Urma torli cholg'ular guruhi (chang, qonun)
3. Mezrobli cholg'ular guruhi (prima rubobi, qashqar rubobi, afg'on rubobi, dutor, dutor bas, dutor kontrabas)
4. Urma zarbli cholg'ular guruhi (doyra, nog'ora, qayroq, safoil, litavra,

- kichik baraban, buben, uchburchak (treugolnik), va tarelka)
5. Kamonli cholg'ular guruhi (g'ijjak, g'ijjak alt, g'ijjak bas, g'ijjak kontrabas)

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar

Savollar:

1. O'zbek milliy cholg'ularini qayta ishlash (rekonstruksiya) dan ko'zlangan maqsad nima edi?
2. O'zbek milliy cholg'ularini qayta ishlash va takomillashtirish ishlariga kim rahbarlik qilgan?
3. Dutor, tanbur va gijjaklarning turdosh oilalarini yaratgan usta kim?
4. Qayta ishlangan qaysi cholg'ular hozirda foydalanilmayapti va buning sababi nimada?
5. Chang oilasining yaratilishini tahlil qiling va buning hozirgi kundagi natijalariga tanqidiy baho bera olasizmi?
6. O'zbek xalq cholg'ulari orkestri tarkibiga kiruvchi cholg'ular hozirda nechta guruhga bolingan?

Topshiriqlar:

1. A.Petrosyansning "Cholg'ushunoslik" qo'llanmasi bilan tanishib chiqing.
2. T.Zufarov tomonidan e'lon qilingan o'zbek milliy cholg'ularini qayta ishlash va takomillashtirish jarayoniga bag'ishlangan kitobni topib o'qing va undagi tanqidiy munosabat sabablarini aniqlang.
3. Qayta ishlash, takomillashtirish jarayonining yutuqlari va salbiy jihatlarini aniqlang.
4. Musiqa cholg'ularini takomillashtirish va qayta ishlash jarayoni davom etishi mumkinligi borasida o'z fikrlaringizni yozma ravishda taqdim eting.

O‘ZBEK XALQ CHOLG‘ULARI ORKESTRINING DAMLI (PUFLAMA) CHOLG‘ULAR GURUHI

Ushbu guruhga – nay pikkolo (kichik nay), nay, surnay, qo‘shnay cholg‘ulari kiradi.

Puflama cholg‘ular (yoki damli cholg‘ular) tovush hosil qilish xususiyatiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi:

1. Bevosita quvur (trubka)ga puflash orqali tovush hosil qilinadigan cholg‘ular (misol uchun nay, g‘ajir nay)
2. Maxsus moslamada tovush hosil qilinib, quvur orqali tovush kuchaytiriladigan cholg‘ular.

1-guruhga kiruvchi cholg‘ular asosan bo‘ylama (prodolniy) holda puflanadigan va yonlama (poperechniy) puflanadigan turlarga ajratiladi. Masalan, nay cholg‘usi yonlama holda, cho‘pon nay yoki g‘ajir naylar bo‘ylama holda puflanadi.

2- guruhga mansub cholg‘ularda qo‘llaniladigan moslamalarga asoslangan holda ularni ham ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Hushtakli cholg‘ular
2. Tilli cholg‘ular

Hushtakli cholg‘ularga misol sifatida karnay va sopol nay, shuningdek tutaklarni keltirish mumkin. Ushbu cholg‘ularda tovush hosil qilinadigan qism bir-biridan farq qilsa-da, ushbu moslamalar mazkur cholg‘ular bilan qo‘shilgan, biriktirilgan holda bo‘lib, ularning har ikki turida ham havoni tebratish ma’lum joyda uni siqish orqali hosil qilinishi bilan o‘xshashlik tomonlari bor.

Ushbu guruhga mansub tilli cholg‘ularning o‘zi ham yana ikki turga ajratilishi mumkin:

1. Bir tilli cholg‘ular
2. Qo‘sh tilli cholg‘ular


Bir tilli cholgʻularga misol qilib sibizgʻa, bulamon va qoʻshnayni keltirish mumkin. Bu cholgʻularda ochilgan til cholgʻuning quvur qismidan ajratilgan boʻlak boʻlib, til va quvur oʻrtasida hosil boʻlgan boʻliqda havoni siqish orqali tovush hosil qilinadi. Bunday holat bulamon cholgʻusida boshqacharoq koʻrinishda boʻladi. Yaʼni bulamonning tovush hosil qilinadigan qismi alohida boʻladi va u quvurga oʻrnatilib ijro etiladi.

Qoʻsh tilli cholgʻu sifatida surnayni keltirish mumkin. Surnayning tovush hosil qilinadigan qismi “naypachoq” deyiladi va naypachoqda hosil qilinadigan tovush uning ikki “labi” orasida havoni siqish evaziga hosil boʻladi.



NAY PIKKOLOning (kichik nay) tovushqatori diatonikdir. Tovush chiqarish usullari xuddi naydagidek bo‘ladi. Nay pikkolo cholg‘usi transpozitsiya qilinadigan cholg‘ular guruhiga mansub bo‘lib, ijroda yozilganiga nisbatan bir oktava yuqori eshitiladi.

Nay pikkoloning diapozoni birinchi oktavaning re tovushidan to‘rtinchi oktavaning sol tovushigacha.



Nay pikkolo orkestrda ko‘proq melodik cholg‘u sifatida asosan nay partiyasini 2 marta balandlatish maqsadida qo‘llaniladi. Ayrim paytda esa yakkasoz (solo) yoki eng baland (yuqori) tovushlarni ijro etish maqsadida ham foydalaniladi.


Nay pikkoloning partiyasi partituraning dastlabki qatorida skripka kalitida notalashtiriladi.

NAY – juda qadimiy damli (puflab chalinadigan) musiqa cholg‘usi bo‘lib, qattiq yog‘och tanasidan yoki bambukdan yasaladi. Nayda tovush hosil qilish quvurda ochilgan teshik orqali havoni quvurning ochiq tomoniga yo‘naltirish orqali hosil qilinadi. Unda bir dona



puflanadigan va 6 dona tovush balandligini o'zgartiradigan teshiklar, shuningdek ustki tomonida ikkita, pastki tomonida bitta "sozlovchi" teshiklari bo'ladi.

Nayning ovoz diapazoni birinchi oktava lya tovushidan to'rtinchi oktava re tovushigacha.



Nay chaluvchi sozanda nayning chalish uchun mo'ljallangan teshigiga labini shunday qo'yishi kerakki, lab uning to'rtidan bir qismini berkitishi lozim. Qo'l barmoqlarini yaxshi ishlata bilishi kerak. Sozni sadolashda nafas olish tez, chiqarish esa juda tekis hamda davomli bo'lishi talab etiladi. Nafasni chiqarganda o'pkada yig'ilgan havoning hammasini oxirigacha chiqarish tavsiya etilmaydi. Chunki tovushning sifati, yoqimlilik bevosita shularga bog'liq bo'ladi. Nayda puflash kuchini o'zgartirish orqali 2,5 oktavagacha tovushqator hosil kilish mumkin.

Nay tabiatan diatonik tovush qatoriga ega bo'lib, zarur bo'lganda tovushlarni ko'tarish va tushirish nay teshiklarini qisman yopish orqali amalga oshiriladi. Cholg'uchilar uchun bunday murakkabliklarni tug'dirmaslik maqsadida ba'zi xalqlarda har bir tonallik uchun alohida naylar tayyorlanadi. Nay cholg'usiga aynan o'xshaydigan yoki biroz boshqacharoq ko'rinishdagi musiqiy cholg'ular deyarli barcha sharq xalqlarida, shuningdek arablarda va ayrim Yevropa xalqlarida uchraydi.

Nayning boshqacha usulda tovush hosil qilinadigan, ya'ni quvurning yon tomonidan to'g'ridan-to'g'ri puflanadigan turi arab, turk, turkman, eron va ayrim kavkaz xalqlarida uchraydi. Xuddi shunga yaqin uslubda tovush hosil qilish bizda ishlatiladigan g'ajir nay va qamish nayda ham qo'llaniladi. Faqat bizning

cholg'uchilar nay quvurining yon tomonini tishga tirab puflashsa, boshqa xalqlarda quvur labga tiraladi.

Arablar o'z cholg'ularini nay deb ataydilar. Bu cholg'ular Misr fir'avnlari hukmronlik qilgan davrlarda paydo bo'lganligi uchun yon tomonida teshik ochilmagan naylarni ular fir'avn nayi deb atashadi. Hozirda ishlatiladigan naylar maxsus «buus» deb ataladigan qamishlardan tayyorlanadi. Bu qamishlarning bo'g'inlari juda qisqa bo'lib, har bir nayda 9 ta bo'g'in bo'lishi shart. Cholg'uning eng pastki bo'g'inida teshik ochilmaydi, 8- bo'g'inda 2 ta, 7- bo'g'inda 2 ta, 6- bo'g'inda yana 2 ta, jami 6 dona teshik ochiladi. Bu teshiklar ochilgan tomonining teskarisidan, 5- bo'g'inda yana bitta teshik ochiladi. Bu teshik faqat lozim bo'lgandagina ishlatilib, asosiy kuy ustki tomondagi teshiklarni ochib-yopish orqali hosil qilinadi. Arablar ishlatadigan naylar ularning 7 maqomi nomi bilan ataladi va har bir cholg'u ma'lum bir balandlikdagi tovushga sozlangan bo'ladi. Bular:

- Rost - do
- Doka - re
- Busalik - mi
- Goharko - fa
- Navo - sol
- Huseyniy - lya
- Ajam – si bemol

Hindlar ishlatadigan naylar ularda qo'llaniladigan tovush qatorining barcha tovushlari asosida tayyorlanib, ishlatiladigan naylarning soni 24 tagacha yetadi.

Simfonik orkestrlarda va Damli sozlar orkestrlarida qo'llaniladigan fleyta nomli musiqiy cholg'u nay cholg'usining takomillashtirilgan shaklidir.

Nay partiyasi partiturada nay pikkolodan keyin skripka kalitida notalashtiriladi.

SURNAY cholg'usi ham qadimiy tarixga ega. Bu cholg'u asosan tantanalar, bayramlar, sayillar, to'ylarda doyra, nog'ora, karnay cholg'ulari bilan birgalikda ishlatiladi. Surnayning tovushi juda kuchli bo'lganligidan asosan ochiq maydonlarda foydalaniladi. Surnay cholg'usida ijro etiladigan kuy yo'llari va

ishlatilish o'рни jihatidan boshqa musiqa cholg'ularidan farq qiladi. Surnayni qo'llash doyrasini shartli ravishda quyidagi yo'nalishlarga ajratish mumkin:

1. Surnay maqom yo'llari va maqomlarga yaqin bo'lgan yirik shakldagi kuylar. Masalan, Xorazmda shu yo'nalishdagi Nadramiddin, To'rg'ay, Sho ko'chdi, Xon chiqar va boshqa surnay yo'llari mavjud.

2. Raqs kuylari.

3. Dorboz yo'llari.

4. Masxaraboz yo'llari.

5. To'y marosim yo'llari.


Surnay - odatda, tut, yong'oq yoki o'rik yog'ochidan tayyorlanadi. Surnayning tarkibiy qismlari -tana, bachka, miyl, miyl cho'p, sadaf, naypachoq (Xorazmda dudik) deb yuritiladi. Asosiy tana 450-500 mm uzunlikdagi kengayib boruvchi quvur shaklida bo'ladi. Surnayning asosiy havo aylanadigan tanasida 8 ta havo chiqaruvchi teshigi mavjud. Bulardan yettitasi yuza tarafda, bittasi esa orqa



tomonda bo'ladi. Bachka – (tojikcha “bachka”) bola so'zidan olingan bo'lib, asosiy tananing ichidagi kichik tanachani anglatadi. Bachkaning asosiy vasifasi surnayni sozlash bo'lib, surnayning puflanadigan tomonidan surnay tanasiga kiritiladi va mahkamlanadi. Bachka ishlanadigan yog'och surnay tanasining yog'ochidan farq qilishi lozim. Tana tutdan yasalgan bo'lsa, bachka o'rik yog'ochidan yasaladi yoki aksincha. Bachkaning ichki qismi bir oz konussimon shaklda bo'ladi. Bu unga kiritiladigan miyl mustahkam joylashishi uchun zarur bo'ladi. Miyl-moyil (mos, moslashish) so'zidan olingan bo'lib, surnayning muayyan bo'laklarini moslash uchun xizmat qiladi.

Miyl ko'pincha kumush, jez va shunga o'xshash yumshoq, yupqa, tunukasimon metallardan yasaladi. Uning uzunligi odatda 82-85 mm bo'ladi. Surnayda tovush tebranishini hosil qiluvchi asosiy qism - naypachoq (trost)dir. Naypachoq bir yillik qamishning qovjiragan qismidan tayyorlanadi. Buning uchun qamishning yerdan bir qarich balandlikdagi qismi kesib olinadi, qishda qor ostida

yumshab, saratonda qovjirab pishgan qamish naypachoq yasash uchun yaraydi. Uning yo'g'onligi har bir ijrochining nafas quvvatiga qarab tanlanadi. Qamish ivitilib, ichidagi har xil pardalar yaxshilab tozalanadi. So'ngra miyl cho'piga kiydiriladi va ip bilan bog'lab qo'yiladi. Naypachoq kerakli shaklni olgandan so'ng miyl cho'pidan chiqarib olinadi va quritiladi.



Surnay partiyasi partiturada nay cholg'usidan keyin skripka kalitida notalashtiriladi.

QO'SHNAY – sibizg'a deb nomlanadigan sodda folklor cholg'usining takomillashgan va 2 donasini birgalikda qo'shib chalinadigan musiqiy cholg'udir. Qo'shnay tayyorlanadigan qamishlar bir oz yo'g'onroq va uzunroq bo'ladi. Har ikkala qamish bo'laklarida xuddi sibizg'adagi singari tillar ochiladi va har bir bo'lakning uzunligi va yo'g'onligi bir xil bo'lishi talab qilinadi. Kerakli tovushlarni hosil qilish uchun esa har ikkala bo'lakda xam bir xil masofada 7 donadan teshiklar ochiladi. Qo'shnay Xorazmda kengroq qo'llaniladi. Uning sadolanishida “g'izillash”ga

o'xshagan tebranish seziladi.


Uning tovush qatori ham diatonik xarakterga ega.

Tovushlarni ko'tarish yoki



tushirish nay cholg'usida teshiklarni qisman yoki to'liq yopish hisobiga amalga oshirilsa, qo'shnayda bu jarayon nafas kuchini orttirish yoki kamaytirish orqali amalga oshiriladi. Qo'shnaysimon cholg'ular hindlarda, moldavan va ruminlarda, niderlandlarda, arablarda va boshqa xalqlarda uchraydi. Arablar qo'llaydigan qo'shnay maqruna (arbchasiga qo'sh) deb ataladi. Maqruna qo'shnaydan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi. Avvalo, uning tovush hosil qiladigan qismi alohida ingichka qamish bo'lagidan tayyorlanadi. Cholg'uning tanasi ham ikki bo'lakdan

iborat bo'lib, teshiklar ochilgan yo'g'on qismga undan ingichkaroq 2,5 sm. uzunlikdagi qamishlar kiritilgan bo'ladi. Ana shu o'rta qismga eng ingichka bo'lak kiritiladi va maqruna chalish uchun tayyor holatga keladi. Maqrunaning eng ingichka qamishdan yasalgan bo'laklarida ochilgan til cholg'uchi yo'naltiradigan nafasning yo'nalishiga qarama-qarshi tomondan ochiladi. Ya'ni qo'shnay tillari singari emas, qarama-qarshi tomondan ochiladi. Maqrunaning diapazoni qo'shnaynikidan kichik bo'ladi. Chunki, unda hosil qilinadigan tovush nafas kuchi o'zgarganda ham asosiy tondan keskin ko'tarilmaydi va deyarli bir xil bo'lib qolaveradi. Qo'shnayda ushbu usul bilan bir yarim oktavagacha, so'nggi teshikni ochgandan keyin esa bundan bir necha barobar ortiqmiqdorda tovushni yuqoriga ko'tarish imkoniyati maqrunada mavjud emas. Arablarda «arg'uul» deb ataladigan yana bir qo'shnaysimon cholg'u mavjud. Bu cholg'u ham maqruna singari yasilib, uning bitta qismi ikkinchisidan 3,5 barobargacha uzaytiriladi va ushbu uzaytirilgan bo'lakda hosil qilinadigan tovush doimiy o'zgarmas bo'lib turadi. YA'ni kuy faqat bitta bo'lakda ijro etiladi, ikkinchi bo'lakdagi tovush o'zgarmasdan, butun ijro davomida kuyga jo'r bo'lib turaveradi.



Qo'shnayning ovoz diapazoni birinchi oktava re tovushidan ikkinchi oktava sol tovushigacha.

Orkestrda qo'shnayga kuychan partiyalarni ijro etish yuklanadi. Aksariyat hollarda yakkaxon cholg'u sifatida qatnashadi. Qo'shnayning partiyasi partiturada surnaydan keyin skripka kalitida notalashtiriladi.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar

Savollar:

1. Puflama cholg'ular tovush hosil qilish xususiyatiga ko'ra necha turga bo'linadi?
2. Bir tilli cholg'ularga qaysi cholg'ular kiradi?
3. Nay pikkolaning diapozoni qanday?
4. Arablar qanday naylarni fir'avn nayi deb ataydi?
5. Simfonik orkestrda qo'llaniladigan qaysi cholg'u surnay o'rnida qo'llaniladi?
6. Qo'shnayga o'xshash cholg'u arablarda qanday ataladi?

Topshiriqlar:

1. Dunyo puflama cholg'ulari to'g'risida ma'lumotlarni internet orqali toping va o'zbek cholg'ulari bilan taqqoslang.
2. Damli cholg'ular guruhiga kiruvchi o'zbek milliy cholg'ularining diapazoni va ishchi diapazonini yodlang.
3. Damli cholg'ular ijrosiga xos shtrixlarni o'rganing.
4. Boshqa cholg'u ijrosiga moslangan musiqa namunasini biror damli cholg'u ijrosiga moslashtiring.

URMA JARANGLI TORLI CHOLG‘ULAR GURUHI CHANG OILASI

O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestrining “Urma torli cholg‘ular guruhi”ga chang va qonun cholg‘ulari kiradi.

CHANG juda qadimiy cholg‘udir. Bu haqda uzoq o‘tmishda yashab, o‘lmas asarlarni yozib qoldirgan olimlar va shoirlar merosida yetarlicha ma’lumotlar mavjud.

Jumladan, Abu Nasr al-Farobiy (873 – 951) “Kitob al-musiqiy al-Kabr” (Musika haqida katta kitob) risolasida cholg‘u cholg‘ulariga, xususan chang, rubob, nay kabi sozlarga alohida o‘rin ajratadi. Farobiy chang cholg‘usining jo‘r bo‘lish xususiyati haqida eslatib o‘tar ekan, bu sozning har xil adabiy majlislar va tantanavor marosimlarda cholg‘u ansambli tuzilmalarida muvaffaqiyatli qo‘llanilganini mamnuniyat bilan qayd qiladi. Al Farobiy yaratgan asarlar uning zamondoshlari va undan keyingi davr olimlarining musika ilmi nazariyasi bo‘yicha ilgari surilgan fikrlari va risolalari uchun asos bo‘ldi. Ibn Sino (980-1037), Umar Xayyom (1040–1123), Ma’sur Sheroziy (1236–1310), Muhammad al-Amuliy (taxminan 1354-1355 yil vafot etgan), Alisher Navoiy (1441-1501), Al-Husayniy (XV asr), Mavlono Kavkabiy hamda XVIII asr mashhur sozandasi va musiqiy nazariyotchisi Darvesh Ali Changiy soz va sozandalarning ijrochilik san’atini o‘z risolalarida ta’rif va tavsif etadilar. Yuqorida nomi tilga olingan yirik musiqashunos olim, mashhur changchi, bastakor va hofiz Darvesh Ali Changiy qalamiga mansub «Risolai-musiqiy» kitobida chang sozi va sozandalari alohida qayd etiladi.

Olim yashagan davrda (XVII asr) changda 26 ta tor bo‘lib, yettita parda mavjudligi diqqatga sazovordir. Changda o‘n ikki maqomning hammasini mukammal ijro eta bilish Darvesh Ali yashagan o‘sha davrda ham sozandaning yuqori darajadagi mahoratini namoyish etuvchi omillardan biri hisoblangan. Olim o‘z risolasida cholg‘uchilik san’atida dong taratgan Mavlono Mirek Changiy

Buxoriy, Mavlono Zaynulobiddin – Rumiylar kabi ustozlarni hurmat bilan tilga oladi.

Asrimizning boshlarida o'lkamizning ba'zi shaharlarida cholg'u sozi ustalari barcha cholg'ular qatori chang sozining tuzilishi va ijrochilik imkoniyatlarini kengaytirish, sifatini yaxshilash yo'lida ma'lum darajada izlanganlar. Xorazmda Matyoqub va Matyusuf Xarratovlar, Farg'onada Usta Masaid Marg'iloniy, Usta Olim Komilov, Namanganda Usta Ro'zimatxon Isoboyev, Toshkentda Usta Usmon Zuparov va boshqalar ana shular jumlasidandir.

Eski chang tovushqatori diatonik bo'lib, diapazoni uncha keng bo'lmagan, ya'ni "lya-bemol" katta oktavadan "re-bemol" ikkinchi oktavagacha edi. Xalq cholg'uchilarining ana shu an'anaviy changi asosida to'liq xromatik tovushlarga ega bo'lgan yangi chang 1938-yilda yaratildi. Uning diapazoni "do" birinchi oktavadan "re diyez" uchinchi oktavagacha bo'lgan tovushlarni o'z ichiga oladi. Bu kiritilgan yangiliklar natijasida chang cholg'usida o'zbek kuylaridan tashqari

barcha xalqlarning musiqa asarlarini va kompozitorlar ijodini o'zlashtirishga imkoniyat yaratildi. Chang chaluvchi sozandaga qulaylik yaratish hamda ijro erkinligini ta'minlash maqsadida changga yog'ochdan uchta maxsus 82 santimetrlik oyoqlar o'rnatildi. Ijro vaqtida chang sadolarini vaqti – vaqti bilan so'ndirib turish uchun pedal mexanizmi bilan




boshqariladigan dempfer qurilmasining o'rnatilishi natijasida chaqqon texnik mahorat bilan ijro etiladigan asarlarning sof sadolanishiga puxta zamin yaratildi. Changda yaxshi tovush chiqish–cholg'uning sifatiga bog'liqdir, shuningdek, uni sozlashda cholg'u torlarining bir xilligiga va quloqlarining tengligiga e'tiborni qaratish lozim. Changda yaxshi musiqa ijro etishning muhim shartlaridan yana biri, bu cholg'u oldida o'tirish holatidir. Changning balandligi o'tirgan ijrochining qo'l tirsagidan oshmasligi kerak. Stulning balandligi va chang bilan oradagi masofa

ijrochining bo'yi va qo'llari uzunligiga mos bo'lishi kerak. Pedaldan foydalanish texnikasi tovush chiqarishni yaxshilash, tozalash, kuyni yaxshiroq ijro etish, arpedjio va ikkitalik notalarni ijro etish imkoniyatini beradi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, tovush jarangining tembri, cho'plarining torlarga urilgan zarblariga bog'liq. To'liq va quyuq tovush chiqarish uchun cho'plar bilan xarraklar ustiga o'rnatilgan chang torlari orasidagi masofa kamida 3-4 sm tepalikdan urilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Urma zarb uslubi changda tovush chiqarishning asosiy ijrochilik uslubidir. Cho'plar bilan torlarga urilganda chuqur, to'la tovush chiqishi kerak. Zarb qanchalik erkin bo'lsa, torning jarangi shunchalik yorqin bo'ladi. Chang cholg'usida yana rez-(tremolo), torni chupning yog'ochi bilan tirnash (pizzicato col legno), torni barmoq bilan chertish (pizzicato), torlar bo'ylab sirpanish (glissando col legno), davomli sadoni varmoq bilan to'xtatish (con sordini), torni tarmoq bilan titratish (vibrato) kabi usullardan ham foydalaniladi.

Chang – qadimiy musiqiy cholg'u hisoblansada, bizning hududimizda XX asrning boshlarida kirib kelgani haqida ma'lumotlar bor. Changsimon musiqiy cholg'ular xitoy, moldavan, rumin, malayziya va boshqa xalqlarda ham uchraydi. Bular Simbal (Vengriya, Polsha, Ukraina, Belarus xalqlarida), Santur (Eron, Kavkaz orti xalqlarida) Gusli (rus xalq cholg'usi), Kokle (Latish xalq cholg'usi), Kantele.yu kankles (Litva xal cholg'usi), Kannel (Estoniya xalq cholg'usi), Koto (Yaponiya xalq cholg'usi), Yochin, yatag' (Buryatiya xalq cholg'usi). Dastlab diatonik tovush qatoriga ega bo'lgan chang musiqiy mutaxassislar va cholg'u ustalari tomonidan takomillashtirilib, xromatik tovush qatoriga keltirilgan. Chang yakka holda va cholg'u jamoalari tarkibida ishlatiladi.

Chang cholg'usining ommalashuvida mashhur changchilar: Fozil Xarratov, Faxriddin Sodiqov, Baxtiyor Aliyev, Ahmadjon Odilov, Rustam Ne'matov, Tohir Sobirov, Temir Mahmudov, Fazilat Shukurova, Tilash Xo'jamberdiyev va boshqalarning xizmatlari benihoyadir.

Changning diapozoni kichik oktavaning “sol” tovushidan uchinchi oktavaning “sol diyez” tovushigacha.



Changning cholgʻusining takomillashtirilishi natijasida chang prima, chang pikolo, chang tenor va chang bas kabi turlari barpo etildi. Biroq bu yangi yaratilgan chang pikkolo, chang tenor, chang bas kabi cholgʻular amaliyotda oʻz oʻrnini topa olmadi va natijada xalq cholgʻulari orkestrida qoʻllanilmay qolib ketdi. Ularning diapozonlari quyidagicha:

CHANG-PIKKOLO - eng yuqori registrni qamrab oladi. Nota yozuviga nisbatan bir oktava baland eshitiladi. Diapazoni - 1-oktava Do - 3-oktava LY.

CHANG-TENOR - oʻrta registrdagi chang turi. Yozuvidan bir oktava past eshitiladi. 2 turi mavjud: 1. Katta oktava Sol - 2-oktava Mi; 2. Kichik oktava Do - 1-oktava Sol diapazonlarida.

BAS CHANG - past registrdagi, yoʻgʻon mis torlardan iborat chang turi. Diapazoni - katta oktava Do - kichik oktava Sol. Orkestrda koʻpincha solo ijro etilsada, joʻrnavor cholgʻu sifatida ham qoʻllaniladi. Chang cholgʻusining partiyasi partiturada “Puflama cholgʻular” guruhidan soʻng “Urma torli cholgʻular” guruhida birinchi, skripka (sol) kalitida yoziladi. Bu guruhda qonun cholgʻusi ham boʻlib uning partiyasi chang cholgʻusidan keyin skripka kalitida notalashtiriladi.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar

Savollar:

1. Qaysi risolalarda chang cholgʻusi haqida maʼlumotlar berilgan?

2. Hozirgi chang cholg'usi bizning hududga qachon kirib kelgan va uni qaysi millat vakili olib kelgan?
3. Chang cholg'usida qanday shtrixlar ko'proq ishlatiladi?
4. Changsimon musiqiy cholg'ularni yana qaysi davlatlarda uchratish mumkin?
5. Chang cholg'usining ommalashuvida xissa qo'shgan shaxslarni bilasizmi?
6. Chang cholg'usining takomillashtirilishi natijasida qanday turlari barpo etildi va qaysi turi saqlanib qoldi?


Topshiriqlar:

1. O'rta asrlarda chang deb nomlangan cholg'u bilan hozirda amaliyotda bo'lgan changlarni solishtiring.
2. Chang cholg'usi diapazoni, tovush qatori va unda foydalaniladigan shtrixlarni yodlang.
3. Chang ijrosi uchun biror asar bo'lagini moslashtirib ko'ring.
4. Dunyo xalqlarida foydalaniladigan changsimon cholg'ular to'g'risidagi ma'lumotlarni internetdan qidirib toping va ularni o'zbek changi bilan solishtiring.


MEZROBLI VA CHERTMA (TIRNAMA) CHOLG'ULAR

O'zbek xalq cholg'ulari orkestrida ushbu guruhga mansub bo'lgan rubob prima, qashqar rubobi, afg'on rubobi, dutor alt, dutor bas, dutor kontrabas cholg'ularidan foydalaniladi.

PRIMA RUBOBI – qashqar rubobining qayta ishlangan turidir. Prima rubobida to'rtta tor bo'lib, uning birinchi tori ikkinchi oktavaning “mi” tovushiga, ikkinchi tori birinchi oktavaning “lya” tovushiga, uchinchi tori birinchi oktavaning “re” tovushiga, to'rtinchi tori kichik oktavaning “sol” tovushiga sof kvinta oralig'ida sozlanadi.



Prima rubobining diapozoni kichik oktavaning “sol” tovushidan to'rtinchi oktavaning “mi” tovushigacha.



Prima rubobida ovoz chiqarish mezrob (mediator) yordamida amalga oshirilib, ijro imkoniyati qashqar rubobi bilan bir xil. Prima rubobida pitsikato usulini o'ng qo'l bilan ham amalga oshirish mumkin. Bunda notaning ustiga + belgisi qo'yiladi.

Prima rubobining partiyasi partiturada “Urma torli cholg‘ular” guruhidan so‘ng “Mezrobli cholg‘ular” guruhida birinchi, skripka kalitida notalashtiriladi.

QASHQAR RUBOBI juda qadimiy cholg‘u hisoblanadi. O‘sha davr ruboblari hozirgi biz qo‘llayotgan qashqar rubobi ko‘rinishidan keskin farq qilgan, lekin negizi bir-biri bilan bog‘liqdir. Qadimiy ruboblar besh torli bo‘lgan. To‘rtta simi ipakdan, bittasi esa kumushdan yasalgan.




Qashqar rubobi juda jarangdor va yoqimli sadoga ega bo‘lib, nisbatan tez o‘zlashtirilishi mumkin bo‘lgan cholg‘ular qatoriga kiradi.

Shu o‘rinda Fitratning “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” asarida bayon etilgan jumlanı keltiramiz: “Yozuvchisi ma’lum bo‘lmag‘an bir “musiqiy tarix”chasida rubobning Sulton Muhammad Xorazmshoh tomonidan Xorazmda paydo bo‘lgani yoziladir. Bu kitobni ko‘rganim kun men ham shunga ishongan edim. Biroq 20-yillarda Hindistondan keltirganim “Sorang” ismli bir cholg‘uning rubobga juda o‘xshashligi meni shoshirgan edi. So‘ngralari qo‘limg‘a tushgan Darvesh Aliyning “Risolayi musiqiy”sida bu cholg‘uning Balxda yasalgani, Muhammad Xorazmshoh zamonida Xorazmda rivoj topgani ko‘rsatiladir”.¹

Bu cholg‘uning kelib chiqish tarixi to‘g‘risida turli manbalarda turlicha ma’lumotlar keltirilgan. Jumladan Al-Farobiy (X asr) o‘z davrining musiqa cholg‘ularini tavsiflar ekan, rubobda bir-biridan farq qiladigan ijroga erishish mumkinligini uning afzalliklaridan biri deb hisoblaydi. Darvesh Ali (XVII asr) “Musiqa haqida risola” asarida musiqa cholg‘ularining tuzilishini bayon qilar ekan, “Rubob torli musiqa . O‘rta Osiyoda



Alouddin Muhammad Xorazmshoh (1200-1220 yillar) davrida tarqaldi. Shu davrda Xorazmshoh saroyida tengi yo‘q rubob chaluvchi usta Mahmud yashar edi. Rubobda beshta tor bo‘lib, ulardan to‘rttasi ipakdan va bittasi kumushdan edi”,- deb yozadi. “Qashqar rubobining asli kelib chiqishi Sharqiy Turkiston (hozirgi Xitoyning Uyg‘ur Avtonom Okrug) ning Qashqar degan joyi nomi bilan bog‘liq bo‘lsa-da, o‘zbek milliy cholg‘ulari ichida eng keng tarqalgan va ommalashgan cholg‘u hisoblanadi. Musiqani endigina o‘zlashtirayotganlarning 50 foizidan ortig‘i ana shu cholg‘udan foydalanishi ma’lum. Qashqar rubobi juda jarangdor va yoqimli sadoga ega bo‘lib, nisbatan tez o‘zlashtirilishi mumkin bo‘lgan cholg‘ular qatoriga kiradi” Qashqar rubobi hozirda yakkanavoz soz sifatida o‘zbek xalq ansambllarida yetakchi o‘rinni egallaydi. Diapazoni kichik oktava lya tovushidan uchinchi oktava lya tovushigacha. Hozirgi qashqar rubobida beshta tor mavjud. To‘rttasi metall aralashmasidan, bittasi ichak yoki ipakdan qilinadi. Birinchi juft torlar birinchi oktavaning “lya” tovushiga (unison), ikkinchi juft torlar birinchi oktavaning “mi” tovushiga (unison), uchinchi ichak tor esa kichik oktavaning “si” tovushiga sof kvarta oralig‘ida yoki an’anaviy ijrochilikda ba’zan asar xususiyatidan kelib chiqqan holda “lya” tovushiga ham sozlanadi.

yozilishi			eshitilishi		
I	II	III	I	II	III
					
lya1	mil	si kichik oktava	lya kichik oktava	mi kichik oktava	si katta oktava

Muhammadjon Mirzayev, Ergash Shukrullayev, Shavkat Mirzayev, Qobiljon Usmonov, Sulaymon Taxalov, Ari Boboxonov, Tohir Rajabiy kabi sozandalar ushbu cholg‘u dovrug‘ini yoyish va ommalashuvida katta xizmat ko‘rsatganlar qatoriga kiradi.

Qashqar rubobining diapozoni kichik oktavaning “si” tovushidan uchinchi oktavaning “si bemol” tovushigacha.



Qashqar rubobining takomillashtirilishi natijasida yuqorida tanishgan rubob primadan tashqari rubob-metssosoprano va rubob-alt turlari ham yuzaga keldi.

Qashqar rubobida ovoz chiqarish mezrob (mediator) yordamida amalga oshirilib mezrobni pastga tomon harakati P, yuqoriga harakati V belgisi bilan ifodalanadi. Qashqar rubobida tremolo, qisqa tremolo, stakkato, petsikato, legato, glissando, arpedjio va boshqa usullarda ijro etish imkoniyati mavjud.

Qashqar rubobining partiyasi partiturada prima rubobidan keyin, skripka notalashtiriladi.

AFG‘ON RUBOBI juda qadimiy musiqa cholg‘usidir. Afg‘on rubobining ikkinchi nomi buxoro rubobidir. Ushbu cholg‘u ko‘proq forsiyzabon xalqlarda keng yoyilgan. Tovushining bir oz yo‘g‘onligi va mayinligi bilan ajralib turadi. Afg‘on ruboblari bir oz boshqacharoq ko‘rinishdagi Hindiston, Pokiston, Eron, Tojikiston, shuningdek, ba’zi kavkaz xalqlari va arab davlatlarida ham uchraydi. N.N. Mironov tomonidan afg‘on rubobining Hindistonda uchrashi, Qashqarda uni rabob deb atalishi yozilgan. Professor Fitrat o‘zining “O‘zbek klassik musiqasi tarixi” asarida bu cholg‘uning Xorazm amiri Muhammad Xorazmshoh davrida Balx shahrida shaxsi nomalum kimsa tomonidan yasalgani haqida rivoyatni keltiradi. Afg‘on rubobi qadim zamonlardan o‘zbek xalqi orasida ayniqsa, Buxoro va Samarqandda keng tarqalgan. Uning korpusi ponasimon shakldakatta va chuqur bo‘lib, yon tomonlarida o‘yiq-lari bor.




Dastasi qashqar rubobiga nisbatan ancha (8-10 sm.) kalta bo'lib, uch tomoni bir oz orqaga qayrilgan. Kosa qismi bilan dastasi yaxlit yog'ochdan (ko'pincha tutdan) yasaladi. Dastasi pardalarga bo'lingan bo'lib, uning pastki qismi kengaya borib qopqoqqa ulanib ketadi va korpusning ustini o'yiqlarga qadar yopadi. Korpusning qolgan qismi (o'yiqlardan keyingi qismi) ga teri qoplanadi. Asbobning umumiy uzunligi 70-80 santimetrni tashkil qiladi. Afg'on rubobi ko'rinishi va ijro uslubi jihatidan boshqa cholg'ulardan ajralib turadi. Hajmi katta, baland avjli kuylarni ijro etishda rubob dastasining davomi sifatida, rezanator qopqog'ining ustki qismiga dastadagi asosiy 4 pardadan tashqari o'rnashtirilgan 6,7 xaspardalar asos bo'ladi. Afg'on rubobida besh asosiy va diatonik tarzda sozlangan 10, 11 aks sado beruvchi torlar mavjud bo'lib, asosiylaridan 1- 2- bilan, 3- 4- bilan, 5 - torlar kvarta oralig'ida sozlanadi.

Dutor va tanburdan farqi, afg'on rubobining barcha torlari ijroda keng qo'llaniladi. Afg'on rubobida chalish ma'lum darajada murakkab bo'lganligi sababli uni tanbur va boshqa ayrim cholg'ular singari deyarli mutaxassis sozandalar qo'lida ko'ramiz. Afg'on rubobi boshqa ko'pgina o'zbek xalq cholg'u cholg'ulari singari 30-yillarning oxiri, 40-yillarning boshlarida A.I. Petrosyans tomonidan rekonstruksiya qilindi, ya'ni takomillashtirildi. Uning takomillashgan turida yordamchi torlar yo'q. Korpusi ixchamlashtirilgan, dastasi uzun temperatsiyalangan to'la xromatik tovushqatorga ega. Pardalar esa ebonit qalamchalardan yasab o'rnatilgan. Asbobning takomillashtirilishi ijro texnika imkoniyatlarini yaxshilashga imkon berdi. Diapazoni kengaytirildi. To'rtta bog'langan parda va yopishtirilgan 6-7 ta parda o'rniga mustahkamlangan 19 ta parda o'rnatildi. Tovushqatorga temperatsiya va xromatizatsiya joriy etildi. Uning beshta tori bo'lib, to'rttasi ikkitadan qo'shaloq va beshinchisi yakka holda o'rnatildi.

Takomillashtirilgan afg'on rubobida hamma torlar ichakdan yoki kapron tolasidan tayyorlanadi va kvarta oralig'ida sozlanadi..

Afg‘on rubobining mashhur ijrochilari: Tavur Jumayev, Ergash Shukrullayev, Savinov, G‘ulomqodir Ergashev, Tohir Yo‘ldoshev va boshqalarni misol qilib ko‘rsatishimiz mumkin.

Afg‘on rubobi transpozitsiya qilinadigan cholg‘ular guruhiga mansub bo‘lib, ijroda yozilganiga nisbatan bir oktava past eshitiladi. Afg‘on rubobida ichakdan ishlangan beshta tor mavjud. Birinchi juft torlar birinchi oktavaning “lya” tovushiga (unison), ikkinchi juft torlar birinchi oktavaning “mi” tovushiga (unison), uchinchi tor esa kichik oktavaning “si” tovushiga sof kvarta oralig‘ida sozlanadi.



Afg‘on rubobining diapozoni kichik oktavaning “si” tovushidan uchinchi oktavaning “mi” tovushigacha.



Afg‘on rubobida ovoz chiqarish mezrob (mediator) yordamida amalga oshirilib, qashqar rubobida xos barcha ijro imkoniyatlarini qo‘llash mumkin. Afg‘on rubobining partiyasi partiturada qashqar rubobidan keyin, skripka kalitida notalashtiriladi.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar

Savollar:

1. Mezrobli va chertma (tirnama) cholg'ular guruhiga qaysi cholg'ular kiradi?
2. Fitratning qaysi asarida o'zbek xalq cholg'ulari haqida ma'lumot berilgan?
3. Mazkur guruhdagi qaysi cholg'ular transpozitsiya qilinadi?
4. Ushbu guruhga kiruvchi qaysi cholg'ularning oilasi yaratilgan?
5. Dutor kotrabasning torlari qanday sozlanadi?
6. Dutorda qo'llaniladigan o'ziga xos qanday shtrixlarni bilasiz?

Topshiriqlar:

1. Tirnama (chertma) va mezrobli cholg'ularni alohida o'rganib chiqing va ularda ishlatiladigan shtrixlarni o'zlashtiring.
2. Mazkur guruhga kiruvchi barcha cholg'ularning diapazoni, sozlanishi va ularda foydalaniladigan shtrixlarni o'zlashtiring.
3. Dutor cholg'usi uchun yozilgan musiqa asarini qashqar rubobiga moslashtirib ko'ring.
4. Biror musiqa asari bo'lagini mezrobli cholg'ulardan tashkil topgan ansambl ijrosiga moslashtirib ko'ring.

DUTOR OILASI

DUTOR O‘zbekistonda keng tarqalgan cholg‘ulardan biri. U nafaqat o‘zbeklarning tojik, turkman va uyg‘urlarning ham sevimli cholg‘ularidan biridir. Dutorda ikkita ichak yoki ipakdan qilingan ip bo‘lib, bir yarim oktava diapazonga egadir. Dutor asosan noksimon shaklda yasaladi. Tasviriy san’at yodgorliklari va yozma tarixiy manbalar o‘zbek xalq cholg‘ularini, jumladan dutorni qadimdan ijro etilib kelinishiga guvohlik beradi. Abu-Nasr Muhammad Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abdurahmon Jomiy va boshqa olimlar o‘z asarlarida dator haqida ancha to‘liq ma’lumotlarni berib o‘tganlar. Dutor ikki qismdan (dasta va kosa) iborat bo‘lib, bu qismlarni birlashtiruvchi qismi “bo‘g‘iz” deb ataladi. Dutor kosasi o‘yma yoki qobirg‘achalarning birlashtirilishidan yasalishi mumkin. O‘yma dator Samarqand, Xorazm va Turkmanistonda qo‘llanilib, bir bo‘lak tut yog‘ochidan o‘yib ishlanadi. Qobirg‘ali dator ham tut yog‘ochidan ishlanib, 8-10 bo‘lak yupqa taxtacha egib birlashtiriladi. Kosa ustiga yopishtiriladigan qopqoq ham tut yog‘ochidan tayyorlanadi. Odatda, dator yasaladigan tut yog‘ochi soyada quritiladi. Dutor dastasi olma yog‘ochidan qilinadi va unga 13–14 ta ichak parda bog‘lanadi. Cholg‘uning umumiy uzunligi 1200–1300 millimetrni tashkil qiladi. Ayrim joylarda 750–800 millimetrli datorlar ham uchraydi. Ipakdan qilingan ikki tor kvarta (o‘rta parda sozi), kvinta (bosh parda sozi), unison (qo‘sh parda sozi) va oktava oraliqlariga sozlanadi. Bu sozlardan ko‘proq qo‘llaniladigani “Munojot” (kvinta) va “Tanovor” (kvarta) sozlaridir. Bu sozlar aniq bir balandlikda bo‘lmay, ijrochi va ashulachi xohishiga binoan turlicha balandlikda sozlanishi mumkin.



Dutor – tojik tilida ikki tor ma’nosini beradigan, eng sevimli va ommalashgan o‘zbek musiqiy cholg‘ularidan biridir. Dutor kuylari asosan birinchi torda ijro etilsada, ikkinchi tor o‘sha kuyga qo‘shilib, doimiy sado berib turishi

ushbu cholgʻuni boshqa cholgʻulardan ajratib turadi. Shuning uchun ham dutor kuylarini notalashtirilganda har ikkala tordagi notalar koʻrsatilishi shart. Bu oʻziga xos murakkabliklar tugʻdiradi. Dutorning sadosi juda mayin boʻlib, tovush tembri baland boʻlmasda quloqqa juda yoqimli va yaxshi eshitiladi. Baʼzi cholgʻular doyra joʻrligisiz ijro etilishi qiyin boʻlgani holda, datorning oʻzida usulni chalib borish imkoniyati, uni yakka holda ham yaxshi qabul qilishga yordam beradi. “Rohat”, “Toʻrgʻay”, “Dutor bayoti” kabi dutorda yakka ijro etish uchun moʻljallangan qator kuylar mavjud.

Dutor sadosi aniq va yaxshi eshitilishi uchun tanbur yoki gʻijjak bilan birgalikda, shuningdek kichik cholgʻu jamoalarda foydalangan maʼqul.


Dutor transpozitsiya qilinadigan cholgʻular guruhiga mansub boʻlib, ijroda yozilganiga nisbatan bir oktava past eshitiladi. Birinchi tori birinchi oktavaning “re” tovushiga, ikkinchi tori kichik oktavaning “lya” tovushiga sof kvarta oraligʻida sozlanadi.




Dutor cholgʻusi ham takomillashtirilib dutorlar oilasi yaʼni dutor-prima, dutor-alt, dutor-tenor, dutor-bas va dutor-kontrabaslar vujudga keldi.

DUTOR-PRIMA – dutorlar orasida eng yuqori registrni egallaydigan cholgʻu hisoblanib datorning kichraytirilgan turi. Ikki kapron ipak toridan iborat ushbu cholgʻu kvarta oraligʻida sozlanadi. Pardalar dastasini oʻyib xromatik holda doimiy oʻrnatilgan. Torlar kvarta boʻyicha birinchi oktavadagi **mi** va **lya** ga sozlanadi. Notalar skripka kalitida, eshitilishiga nisbatan oktava yuqorida yoziladi. Xajmi kichik oktavadagi **mi-lya** dan birinchi oktavadagi **sol** va ikkinchi oktavadagi **do** ga qadar.


Dutor primani sozlanishi birinchi tor (pastki tor) **mi** va ikkinchi tor (yuqorigi tor) **lya** tovushlaridir. Dutor primaning umumiy ovoz hajmi birinchi oktavadagi **mi** tovushidan uchinchi oktava **lya** tovushiga qadar. Dutor prima orkestrda **solo** chalish va jo'navozlik vazifasini bajaradi.




DUTOR-SEKUNDA - Yangi ishlangan datorlar oilasiga kiruvchi ushbu dator-sekunda cholg'usi, ovoz jihatidan o'rtacha registrda. Uning ham torlari Ikki kapron ipak toridan iborat ushbu cholg'u kvarta oralig'ida sozlanadi. Tashqi ko'rinishi dator primadan bir oz kattaroq qilib ishlangan, ya'ni datorlarning kosasi bir xil bo'lib, dastasinnng uzunligi har xil bo'ladi. Dutor-bas va dator-kontrabas cholg'u cholg'ularini kosasi katta bo'ladi. Dutor sekunda cholg'usining birinchi tori kichik oktava **lya** tovushiga, ikkinchi tori kichik oktava **re** tovushiga sozlanadi. Umumiy ovoz hajmi kichik oktavadagi **lya** tovushidan ikkinchi oktavadagi **re** tovushigacha.



DUTOR ALT–transpozitsiya qilinadigan cholg'ular guruhiga mansub bo'lib, ijroda yozilganiga nisbatan bir oktava past eshitiladi. Birinchi tori kichik oktavaning “lya” tovushiga, ikkinchi tori kichik oktavaning “mi” tovushiga sof kvarta oralig'ida sozlanadi.






Dutor altning diapozoni kichik oktavaning “mi” tovushidan ikkinchi oktavaning “lya” tovushigacha.



Dutor-alt ovoz kuchi va texnik imkoniyatlaridan kelib chiqib o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestrlarida keng qo‘llaniladi.

DUTOR-TENOR – yuqorida ta’riflangan dutorga har jihatdan yaqin bo‘lib, uning farqi – tovushqatorining temperatsiyalanganligidir.

Dutor ijroda yozilganiga nisbatan bir oktava past eshitiladi. Birinchi tori kichik oktavaning “re” tovushiga, ikkinchi tori katta oktavaning “lya” tovushiga sof kvarta oralig‘ida sozlanadi.



Dutor cholg‘usining ijro etish usullari xilma-xildir. Bular bilak zarb, yakka zarb, terma zarb, teskari zarb, aylanma zarb, pitsikato. Bulardan tashqari yana chertmak, o‘ng qo‘lni ishlatmasdan chap qo‘l bilan torni chimdib ovoz chiqarish va h.k.


Dutorga xos ijro imkoniyatlari dutor-prima, dutor-sekunda, dutor-altlarga ham tegishli.

Dutor partiyasi partiturada Afg'on rubobidan keyin, skripka kalitida notalashtiriladi.

DUTOR BAS – dutorning kattalashtirilib ishlangan turi bo'lib mezrob yordamida chalinadi. Dutor basning to'rtta tori bo'lib, birinchi tori kichik oktavaning "lya" tovushiga, ikkinchi tori kichik oktavaning "re" tovushiga, uchinchi tori katta oktavaning "sol" tovushiga, to'rtinchi tori katta oktavaning "do" tovushiga sof kvinta oralig'ida sozlanadi. *Lya* tori ichak yoki kaprondan qilingan bo'lib, qolganlari metaldandir.



Dutor basning diapozoni katta oktavaning "do" tovushidan ikkinchi oktavaning "lya" tovushigacha.



Dutor-basda xilma-xil intervar, uchtovushlik va to'rttovushlik akkordlarini qiyinchiliksiz ijro etish mumkin. Uning ijro usullari – tremolo, stakkato,

shuningdek, bosh barmoq bilan chalinadigan pitssikato. Orkestr va ansambl tarkibida dutor-bas, asosan, bas vazifasini bajaradi.

Dutor-bas partiyasi partiturada dutordan keyin, bas (fa) kalitida notalashtiriladi.


DUTOR KONTRABAS – dutorning juda katta qilinib ishlangan turidandir. U transpozitsiya qilinuvchi cholgʻular guruhiga mansub boʻlib, ijroda yozilganiga nisbatan bir oktava past eshitiladi. Dutor kontrabasning toʻrtta tori boʻlib, birinchi tori kichik oktavaning “sol” tovushiga, ikkinchi tori kichik oktavaning “re” tovushiga, uchinchi tori katta oktavaning “lya” tovushiga, toʻrtinchi tori katta oktavaning “mi” tovushiga sof kvarta oraligʻida sozlanadi.

Dastasi dutor bas dan uzunroq boʻladi, quloqlari temir metaldan ishlangan boʻlib, qattiq, tortib turish vazifasini bajaradi. Dutor kontrabasning torlari juda qalin boʻlib, orkestrda oʻzining yoʻgʻon bas tovushi bilan, pastki registr tembrini mustahkamlaydi. Dutor kontrabasning kosasiga maxsus tayyorlangan tayoqcha oʻrnatilib, oʻtirgan holda ijro etiladi. Dutor-kontrabas qalin teridan yasalgan katta mezrob yordamida chalinadi. Mezrob bilan tremolo ijro usulini amalga oshirish mumkin. Shuningdek oʻng qoʻlning bosh barmogʻi yordamida pitssikato usulini qoʻllash mumkin. Dutor-kontrabas texnik harakatchan emasligi bois orkestr va ansambllarda bas poydevori sifatida qoʻllaniladi.



yozilishi				eshitilishi			
I	II	III	IV	I	II	III	IV
sol kichik oktava	re kichik oktava	lya katta oktava	mi katta oktava	sol katta oktava	re katta oktava	lya kontroktava	mi kontroktava

Dutor kontrabasning diapozoni katta oktavaning “mi” tovushidan ikkinchi oktavaning “do” tovushigacha.



Dutor-kontrabas partiyasi partiturada dutor-basdan keyin, bas (fa) kalitida notalashtiriladi.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar

Savollar:

1. Dutor oilasiga kiruvchi cholgʻularni aytib bera olasizmi?
2. Dutor cholgʻusi Oʻzbekistondan boshqa yana qayerlarda keng tarqalgan va ular qanday nomlanadi?
3. Dutor partiyasi boshqa cholgʻulardan nimasi bilan farqlanadi?
4. Dutor alt va tenor partiyalari yozilishiga nisbatan qanday eshitiladi?
5. Dutor prima, sekunda, alt va tenorlar asosan qanday intervalda sozlanadi?
6. Dutor-bas va dutor kontrabasning sozlanishi hamda diapozoni qanday?

Topshiriqlar:

1. Qashqar rubobi uchun yozilgan musiqa asarni dutor cholgʻusiga moslashtirish.
2. Biron bir musiqa asarini dutor oilasidan tuzilgan ansamblga moslashtiring.
3. Dutor oilasi tarkibiga kiruvchi cholgʻularning sozlanishi, diapazoni, ishchi diapazonini yodlang, ularda ishlatiladigan shtrixlarni oʻrganing.

4. Internet orqali Markaziy Osiyo xalqlarida qo'llaniladigan dutorsimon cholg'ular to'g'risida ma'lumotlarni to'plang va ularni o'zbek dutori bilan taqqoslab ko'ring.

URMA SHOVQINLI CHOLG'ULAR GURUHI

O'zbek xalq cholg'ulari orkestrining "Urma zarbli cholg'ular" guruhiga doyra, nog'ora, safoil, qayroq va boshqa urma zarbli cholg'ular kiradi.

DOYRA – o'zbek musiqiy ijrochiligida usul (ritm) beruvchi eng asosiy cholg'u hisoblanadi. Arxeologlarning qidiruv ishlari jarayonida topilgan qazilma boyliklardan bizga ma'lumki, doyra (buben) bizning asrimizgacha bo'lgan II asrda ham mavjud bo'lgan. O'rta Osiyoda u bundan 2000 yil oldin paydo bo'lgan. Doyra hozirgi kunda ham o'zbek xalq cholg'ulari orasida alohida o'ringa tutadi. Doyra ishtirokisiz nafaqat ansambllar yoki orkestr ijrosini, hatto ko'pgina yakka cholg'ular ijrosini ham tashkil etib bo'lmaydi. Doyra O'zbekistonda eng keng tarqalgan musiqiy cholg'ulardan biridir. Uning xalq ichida keng ommalashuvida Usta Olim Komilov, G'ofir Azimov, Qahramon Dadayev, aka-uka Dilmurod, Xolmurod, Elmurod Islomovlar, Odil Kamolxo'jayev, Abbas Qosimov kabi qator doyrachilarning xizmatlari bor. Shunisi quvonarliki, hozirda faqat doyrachilardan tashkil topgan ansambllar ko'paymoqda. Misol tariqasida Elmurod Islomov, Husan Nosirovlar rahbarligidagi doyrachilar ansambllarini keltirish mumkin.



Doyra halqasimon shaklda bo'lib, uzum (zang) tanasidan, klyon, yong'oq, tut, o'rik va boshqa qattiq daraxtlardan egma holda yasaladi. Diametri 37-45 santimetr

bo'lib, asosan toy terisi yoki buzoq terisi bilan qoplanadi. Gardishning ichki qismida jarangni saqlab qoluvchi kichkina halkachalar 2, 2,5 santimetr oraliqda joylashtiriladi.

Doyraning boshqa o'zbek holg'ularidan farqi (nog'oradan tashqari) olovda qizdirilib sozlanadi, ya'ni jarangdorligi oshiriladi. Doyrada hosil qilinadigan tovushlar tembr jihatidan va balandlik jihatidan farqlansada, ular ma'lum bir musiqiy balanlikka ega bo'lmaydi va doyrada kuy ijro etib bo'lmaydi. Doyrada hosil qilinadigan bo'g'iq tovush – bum, jarangdor tovush – bak, o'ta jarangdor tovush esa – noxun deb yuritiladi.

Doyra imkoniyati juda keng cholg'ulardan hisoblanadi. Akademik Yunus Rajabiy maqomlarimizni notaga olgan vaqtda doyra usullarini yozish uchun bitta nota chizig'idan foydalangan. Hozirda esa doyra usullarini to'liq notaga tushirish va kelajak avlodlarga to'liq qoldirish maqsadida to'rtta nota chizig'idan foydalaniladi. Bu esa har bir qo'l va barmoqlar uchun alohida usullarni, cho'zimlarni belgilash imkonini beradi. Pastki 2 qatorda o'ng qo'l, yuqoridagi 2 qatorda chap qo'l ijrosi uchun notalar yoziladi.

NOG'ORA – ikkita sopol tuvakka teri tortilgan ko'rinishda bo'ladi. Biri jarangdor, ikkinchisi bo'g'iq tovush chiqaradigan tuvaklarning teri tortilgan qismiga maxsus cho'plar bilan urish natijasida musiqiy usul hosil qilinadi. Nog'ora sadosining juda kuchliligi asosan ochiq havoda ijro etiladigan “Karnay-surnay” ansambllarida foydalanishni taqozo etadi. Nog'ora o'zi aniq ma'lum bir sozga ega emasligi bois, tovushi ham aniq bir balandlikka ega emas. Nog'oralardan birini (kichigi) bak, ya'ni baland tovush, ikkinchisi bum, ya'ni past tovush beradi. Ikkalasi bir-biridan kvarta soziga farq qilishi kerak.



Keyingi vaqtda milliy cholgʻu ansambllari va maqom ansambllarida ham nogʻoradan foydalanish kuzatilmoqda. Oʻzbek xalq cholgʻu orkestrida ham nogʻoradan unumli foydalanish mumkin.

Nogʻaralarning uchta turi bor:

1. Rez nogʻora – hajmi kichik boʻlib, baland ovozga ega.
2. Koʻs nogʻora – hajmi oʻrtacha boʻlib, kichik nogʻoraga nisbatan pastroq ovozga ega.
3. Doʻl nogʻora – hajmi katta boʻlib, momoqaldirqsifat ovozga ega. U bitta qalin choʻp bilan chalinadi. Hozirda musiqa qoʻllanilayotgan qoʻsh nogʻora rez va koʻs nogʻoralardan tashkil topgan.

Nogʻoraning notalari bir chiziqda yoziladi. Chiziq tagidagi notalar bum, ustidagi notalar esa bak tovushini bildiradi.

SAFOIL ham urma zarbli cholgʻular guruhiga kiradi. U ikkita 35-40 santimetrli kaltakka qotirilgan aylana metall simga kiydirilgan shildiroqlardan iborat boʻladi. Harakat davomida aylana metall simlar va ularga kiydirilgan shildiroqlar erkin harakat qila olishi va bir-biriga



urilishi natijasida oʻziga xos tovush hosil qilishi lozim. Safoildagi ijro uni silkitish orqali va uni tananing maʼlum qismiga (aksariyat hollarda yelkaga) urish uslubida bajariladi. Bu cholgʻu ham qayroq singari cholgʻuchi tomonidan ham, raqqos tomonidan ham ishlatilishi mumkin. Hozirda juda kam ishlatilayotgan bu cholgʻudan muqaddam ham asosan uygʻurcha usuldagi asarlarda foydalanilgan.

Safoildan ansambl va orkestrda mazmun jihatdan kerak boʻlgan lavhalarda ishlatiladi.

QAYROQ – eng qadimiy cholgʻulardan biri hisoblanadi. Chunki bu cholgʻuning tabiatning oʻzida mavjudligi, qolaversa, urma zarbli cholgʻularning insonlar hayotidagi eng birinchi “sunʼiy cholgʻu”lari ekanligi buni isbotlaydi. Insoniyatning ibtidoiy davrda tabiatdagi neʼmatlarni pishirmasdan, qayday boʻlsa shunday isteʼmol qilganligi va oʻz navbatida qurol sifatida ham qoʻl ostidagi jismlardan foydalanganligini bilamiz. Xuddi shu jarayonning tabiiy davomi sifatida musiqiy ritm hosil qilishda foydalanilgan ilk moslamalarning biri sifatida dunyoga kelgan qayroq toshlar haligacha milliy cholgʻuchilikda foydalanib kelinayotgani ajablanarlidir. Qayroq odatda ikki juft silliq toshdan iborat boʻladi va har ikki qoʻlda ikkitadan ushlab ijro etiladi.



Qoʻllarning toʻrt barmogʻi (koʻrsatkich, oʻrta, nomsiz va jimjiloq) bitta toshni tutsa, ikkinchi toshni bosh barmoq boshqaradi va toshlarning bir-biriga urilishi natijasida hosil qilinadigan ritmning tezligi va kuchi mazkur barmoqlarning naqadar samarali ishlashiga bogʻliq boʻladi. Qayroq toshlarni har ikki qoʻlda bittadan tutib, ularning boshqalarining oʻrnida taxminan qayroqtoshlar kattaligidagi yassi metallardan foydalanish ham kuzatiladi. Bu holatda metallni barmoqlar bilan ushlab turish va boshqarish biroz osonlik tugʻdiradi. Qayroq hozirda koʻproq xorazmcha kuylarda koʻproq qoʻllaniladi. Xorazmda raqs davomida erkak va ayol raqqoslar tomonidan ham qoʻllaniladigan holatlar uchraydi.

QOSHIQ – inson tomonidan ixtiro qilingan mehnat qurollari ichida albatta tayoqdan keyin turadi. Chunki, ibtidoiy odamlar yerdagi ildizlarni qazib olish uchun avvalo tayoqni kashf etishi lozim edi. Tabiatdagi neʼmatlarni pishirishni oʻrgangan odam endi qoʻli kuymasdan ovqatni ogʻziga olib borishi uchun qoshiq ixtiro etilgan. Tayoq ham, qoshiq ham bir-biriga urilishi natijasida hosil qilinadigan tovushdan ritmlarni tuzishda foydalanilgani aniq. Qoshiqning shu sifatda foydalanilishi natijasida keyinchalik ispan kastaneti singari maxsus cholgʻular ixtiro etilganligi, qolaversa rus tilidagi “kovshik”, “kovsh” (suv

ichiladigan katta qoshiq, shuningdek, ekskavatorning tuproq oladigan moslamasi) atamasi qoshiq soʻzining hosilasi ekanligi 1930 yilda V.Belyayev tomonidan yaratilgan “Oʻzbekiston musiqa cholgʻulari” kitobida keltirilgan. Musiqiy ijroda koʻrsatilgan maxsus “qoshiq”lardan va quyida tasvirlangan – ovqat yeyishda ishlatiladigan yogʻoch qoshiqlardan foydalaniladi. Qoshiq ijrosida ham qayroqdagi singari har ikki qoʻlga bir juftdan qoshiq ushlanadi va ularning bir-biriga urilishi natijasida kerakli ritm hosil qilinadi.



Urma zarbli cholgʻular kuchli va kuchsiz hissalarini berib turuvchi asosiy cholgʻu boʻlganligi bois, orkestrda alohida oʻrin tutadi.

Urma zarbli cholgʻular tarkibida yana uchburchak, buben, tarelka, kastaneta, ksilofon cholgʻulari ham ishlatiladi. Bu oʻz oʻrnida boshqa millat kuylarini oʻziga xos ijro etishda qoʻl keladi. Ular orkestr ijrosidagi asarlarda uchraydigan akkordlar choʻzimini, tovush kuchayishi va (kreshcendo) tovush pasayishi (diminuendo), - dinamik oʻzgarishlarni, boshqa oʻlchovga oʻtish, 1 qismdan 2 qismga oʻtish paytlarda dirijyorning birinchi yordamchisi hisoblanadi.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar

Savollar:

1. Akademik Yunus Rajabiy maqomlarimizni notaga olgan vaqtda doira usullarini qanday usulda yozib olgan?
2. Hozirgi kunda doyra usullarini toʻliq notaga tushirish uchun qanday tizimdan foydalanilmoqda va qaysi chiziqda qaysi notalar yoziladi?
3. Milliy ijrochilikda foydalaniladigan urma shovqinli cholgʻularning nomlarini bilasizmi?
4. Doyradan boshqa urma shovqinli cholgʻularning notalari qanday yoziladi?
5. Zarbli cholgʻular tovush balanligiga koʻra necha turga boʻlinadi?

6. Membrafon va idiofon degani nima?

Topshiriqlar:

1. Internetdan foydalanib dunyo zarbli cholg'ulari va ularning tasnifi to'g'risida ma'lumotlar to'plang.
2. Doira usullarini bir nota chizig'i hamda to'rt nota chizig'ida yozib ko'ring va ularning farqini tushuntirib bering.
3. Biron bir musiqa asariga doira va nog'ora usullarini yozib ko'ring.
4. Xorazm kuylaridan biriga qayroq notasini yozing.

**O'ZBEK XALQ CHOLG'U ORKESTRIDA QO'LLANILADIGAN
QO'SHIMCHA (SIMFONIK ORKESTR TARKIBIDA
QO'LLANILADIGAN) URMA SHOVQINLI CHOLG'ULAR**

Orkestrning musiqiy ifoda imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadida boshqa xalqlar urma shovqinli cholg'ularidan ham foydalaniladi.

Litavra (yun. Poly – ko'p va taurea- baraban) – ma'lum balandlikka ega bo'lgan urma musiqiy cholg'usi. Litavra mis qozon shaklida bo'lib, ustiga teri qoplanadi. Teri ventlar yordamida tortilib yoki bo'shatilib, ma'lum tovushga sozlanadi. Litavra dastlab Osiyo xalqlari orasida paydo bo'lib, Yevropaga 15-asrlarda kelgan. Litavraning katta, o'rta va kichik turlari bor.



Katta litavraning diapazoni katta oktavaning "fa" tovushidan kichik oktavaning "lya" tovushigacha.

O'rta litavraning diapazoni katta oktavaning "lya" tovushidan kichik oktavaning "mi" tovushiga.



Kichik litavraning diapazoni katta oktavaning “si” bemol tovushidan kichik oktavaning “sol” tovushigacha.

Notalar yozilishiga nisbatan oktava past eshitiladi. Litavra asar oraligʻida boshqa pardaga sozlanishi lozim boʻlsa, partiturada uning partiyasi yoziladigan nota chizigʻiga muta in deb yoziladi. Litavra uchi yumshoq qilinib ishlangan maxsus tayoqchalar bilan urib chalinadi. Hozirda mexanikalashtirilgan litavralar qoʻllanilib maxsus richaglar yordamida sozlanadi. Richaklarlar qoʻl va oyoq bilan bosiladigan pedallardan iborat.

Uchburchak (it. triangolo) – uchburchak shaklida egilgan urma poʻlat cholgʻu; erkin holatda osib, temir kaltakcha bilan urib chalinadi. Tovushi yumshoq, mayin, lekin aniq bir balandlikka ega emas; notalari bir chiziqda, doyra va litavralar oʻrtasida yoziladi.



Kastanet (isp. castanetas, lot. Castanea – kashtan daraxti) – kichik hajmdagi urma cholgʻu boʻlib, ikki yo uch dona yogʻoch toxtachalarning birikmasidan iborat. Kastanetalarning orkestrga qoʻshib chalinadigan va barmoqlarga bogʻlab chalinadigan turlari boʻladi. Orkestrga qoʻshib chalinadigan turining kichik dastachasi bor. Yogʻoch taxtachalarni silkitish orqali tovush chiqaziladi. Kastanetalar koʻproq Ispaniya, Janubiy Italiya va Amerikaning ayrim joylarida tarqalgan. Kastanetalarni chaluvchi oʻz raqsiga oʻzi joʻr boʻladi. Orkestrda kastanetalardan ispan va neapolitan xarakteridagi raqs musiqalarini ijro etishga qoʻllaniladi.



Tarelka (it. piatti) – doyra shaklida misdan yasalgan urma cholgʻu. Tarelka bir juft boʻlib, ularni bir-biriga urib chalinadi. Tovushi baland va keskin, aniq bir balandlikka ega emas. Kichik yo katta nogʻora yoki litavralarning tayoqchalari bilan urilganda tovushi birmuncha oʻzgaradi. Baʼzi bir tarelkaga ikki tayoqcha bilan urib tremolo yoʻsinida chalish ham mumkin. Bunday holda tarelka osib qoʻyiladi yoki katta baraban ustiga oʻrnatiladi. Simfonik orkestrda tarelka notalari bir chiziqda katta va kichik barabanlar oʻrtasida yoziladi.



Baraban (turkiy) – urma cholgʻu. Baraban asosan ikki turli boʻlib, koʻproq simfonik va duxovoy orkestrlarda qoʻllaniladi. **Kichik baraban** (odatda baraban deb ataladi) – buning ovozi noaniq balandlikda. Doyra shaklidagi gardishi metal yogʻochdan boʻlib, har ikki tomoniga teri qoplanadi. Chalganda titroq tovush chiqazish uchun teri ustidan bir necha oʻrama tor tortiladi. Barabanni uchi dumaloq qilinib ishlangan ikkita ingichka tayoqcha bilan urib chalinadi. Notalar bir chiziqda yoziladi. **Katta baraban** - yoʻgʻon va noaniq balandlikda. Tuzilishi va shakli kichik barabandek. Uchiga namat oʻralgan tayoqcha bilan urib chalinadi. Katta baraban shuningdek jaz va estrada orkestrlarida qoʻllaniladi. Partiturada kichik barabanni italyancha tamburo (tramburo) tamburo millitare (tamburo militare) deb, katta barabanni italyancha gran cassa (gran kassa) deb yoziladi.



Ksilofon (yun. silofono) – turli uzunlikdagi yogʻoch taxtachalardan yarim ton oraligʻida terilgan, tovush miqdori maʼlum balandlikdagi urma cholgʻu. Taxtachalar 3-4 qator tirtibi bilan xromatik tuzilishida oʻrnatiladi. Ksilofon ikki

yogʻoch bolgʻacha bilan bilan urib chalinadi. Ksilofonning oʻziga xos tovushi orkestrdagi hamma cholgʻu cholgʻulardan ajralib turadi. Ovoz hajmi birinchi oktavadagi si dan beshinchi oktavadagi dog'a qadar boradi. Ksilofon notalari eshitilishiga nisbatan oktava pastda eshitiladi. Soʻngi yarim asr mobaynida ksilofon simfonik orkestrda qoʻllanila boshlandi. Ksilofon notalari simfonik orkestr partiturasida qoʻngʻiroqcha va chelesta partiyalari oʻrtasida yoziladi.



Kolokolchiklar (nem. Glockenspier, it. sampanelli, fr. sarillon) – yupqa metaldan ishlangan urma cholgʻu cholgʻu. 25-32ta yupqa metal plastinkalarni xromatik holatda sozlanib, yogʻoch taxtachaga ikki qator joylashtiriladi. Pastgi qatorda turgan plastinkalar fortepianodagi oq klavish, yuqorigi qatorda turganlari esa qora klavish xizmatini bajaradi. Ovoz hajmi ikkinchi oktava dodan toʻrtinchi oktava dog'a qadar. Yaʼni, ikki oktavaga tengdir. Notalar eshitilishiga nisbatan oktava pastda yoziladi. Qoʻngʻiroqqa oʻxshash tovush berib, metal, baʼzan yogʻoch bolgʻachalar bilan chalinadi. Simfonik va opera orkestrlarida fortepiano klavishlari turida yashikka ishlangani qoʻllaniladi. Harbiy orkestrlarda esa kolokolchiklar metaldan qilingan trubalarga oʻrnatiladi. Kolokolchiklar tartibli holda sozlangan qoʻngʻiroqchalardan ham tuziladi.



Simfonik orkestr partiturasida kolokolchik notalari tam-tam va ksilofonlar oʻrtasida yoziladi.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar

Savollar:

1. O'zbek xalq cholg'u orkestrida qo'llaniladigan qo'shimcha (simfonik orkestr tarkibida qo'llaniladigan) urma shovqinli cholg'ularni sanab bera olasizmi?
2. O'zbek xalq cholg'u orkestrida qo'llaniladigan aniq balandlikka ega urma musiqiy cholg'ularni sanab bering?
3. Kastanet qaysi xalq cholg'usi hisoblanadi?
4. Litavralar asosan qaysi (asar tonalligining) tovushlarga sozlanadi?
5. Ksilofon nimadan yasaladi?
6. O'zbek xalq cholg'u orkestrida qo'llaniladigan qo'shimcha cholg'ularning qaysilari membrafon va qaysilari idiofonlar?

Topshiriqlar:

1. Internet orqali o'zbek xalq cholg'u orkestrida qo'llaniladigan qo'shimcha (simfonik orkestr tarkibida qo'llaniladigan) urma cholg'ular haqida kengroq ma'lumot to'plang.
2. Ushbu guruhga kiruvchi cholg'ular partiyalarining yozilishini o'rganing.
3. Urma cholg'ulardan tarkib topishi mumkin bo'lgan ansambllar tarkibini aniqlang.
4. Zarbli cholg'ular ansambli uchun biror asarni cholg'ulashtirib ko'ring.

KAMONLI CHOLG‘ULAR OILASI

O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestrining “Kamonli cholg‘ular” guruhiga g‘ijjak, g‘ijjak alt, g‘ijjak bas, g‘ijjak kontrabaslar kiradi.

G‘IJJAK cholg‘usi qadimdan ma’lum bo‘lsada, turli nomlar bilan atalib kelgan. Masalan, ba’zi tarixiy asarlarda u “rebab” deb ataladi. Hozirda ham arablar uni rebab deyishadi. G‘ijjakning hozirgi ko‘rinishdagi tasviri XIV asrda noma’lum muallif tomonidan yaratilgan “Kanz al-Tuhaf” asarida berilgan. Unda tasvirlangan g‘ijjak (Farmerning ta’rificha- O‘.T.) yarim shaklida bronzadan tayyorlangan va teri bilan qoplangan kosaxonaga, metallardan tayyorlangan tizzaga qo‘yish moslamasiga, pista, yong‘on yoki mustahkam qora daraxtdan yasalgan dastaga ega bo‘lgan. G‘ijjakning 2 ta tori bo‘lib, ular kvinta oralig‘ida sozlangan. G‘ijjakda asosiy torlarga qo‘shimcha 7 donagacha rezonator torlari ham bo‘lgan. Keyinchalik g‘ijjakning ijro imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida uchinchi tor qo‘shilgan. Bu haqda mashhur olim Fitrat o‘zining “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” nomli kitobida shunday yozadi: “Bu ham yoy bilan chalinadir. Chanog‘i Hindiston javzidir. Tut yog‘ochidan, ma’dandan ham yasalsa bo‘ladi. Sopi 40 – 42 santimetr qadar uzunlikda bir yog‘ochdir. Chanoqdan tuban 20-23 santimetr qadar uzunlikda bir temir quyrug‘i bor. Chanog‘i qalin teri bilan qoplanadir. Xarrak butun cholg‘ularga teskari, chanoqning yuqori tomoniga qo‘yiladir, tori uchtaidir”. Uch torli g‘ijjak diapazoni bir yarim oktavaga yaqin bo‘lgan. (taxminan birinchi oktava “mi” bemoldan boshlab). Boburning ma’lumotlariga qaraganda, g‘ijjakning uchinchi tori XV asrda shuhrat qozongan ijrochi va bastakor Qul Muhammad Udiy tomonidan joriy etilgan. Uch torli g‘ijjaklar ham kvarta oralig‘ida sozlangan. Bu g‘ijjaklar XX asr boshlarigacha qo‘llanilib kelingan. Keyinchalik g‘ijjakning diapazonini kengaytirish maqsadida to‘rtinchi, ya’ni sol tori qo‘shildi. Sozlar kvinta oralig‘iga o‘tkazilgan. Bu cholg‘u o‘zbeklardan tashqari Markaziy Osiyo va Kavkaz xalqlari o‘rtasida ham keng tarqalgan. G‘ijjak asosan tut, yong‘oq va o‘rik daraxtlaridan yasaladi. Asosan baliq

terisi bilan qoplanadi. Hozirda yoysimon kamon oʻrniga ijro imkoniyatlari kengroq boʻlgan skripka cholgʻusi smichogi ishlatilmoqda.

Gʻijjaksimon cholgʻularning yana bir turi “kemancha” boʻlib, uning kosaxonasi gʻijjaknikidan ancha kichik boʻlgan.



Bunday cholgʻular hozirgacha ozarbayjon, arman va turkmanlarda uchraydi. Gʻijjak va gʻijjakra oʻxshash cholgʻular tojik, ozarbayjon, turkman, arman, uygʻur, arab, moʻgʻul, koreys va boshqa xalqlarda uchraydi.


Sharqiy oʻlkalarda, xususan, Xitoy va Koreyada foydalaniladigan gʻijjaksimon cholgʻularning kosaxonasi konserva bankasiga oʻxshash, biroq bir oz uzunchoqroq shaklda boʻladi.




Hozirda gʻijjakning 4 dona toq torlari boʻlib, kamon bilan ijro etiladi. Uning dastasida pardalari boʻlmaganligi sababli kerakli tovushlarni hosil qilish sozandadan yaxshi eshitish qobiliyati va yuksak mahorat talab qiladi. Toʻxtasin Jalilov, Gʻanijon Toshmatov, Gʻulomjon Hojiqulov, Abduhoshim Ismoilov, Botir Rasulov, Shuhrat Yoʻldoshev, Oʻlmas Rasulov, Qahramon Nazirov, Qahramon Komilov kabi qator sozandalar gʻijjak cholgʻusining mohir ijrochilari hisoblanadi. Gʻijjak yakka soz holida, ansambllar tarkibida va orkestrlar tarkibida keng qoʻllaniladi.



Gʻijjakning birinchi tori ikkinchi oktavaning “mi” tovushiga, ikkinchi tori birinchi oktavaning “lya” tovushiga, uchinchi tori birinchi oktava ning “re” tovushiga, toʻrtinchi tori kichik oktava ning “sol” tovushiga sof kvinta oraligʻida sozlanadi.



G‘ijjakning diapozoni kichik oktava ning “sol” tovushidan to‘rtinchi oktava ning “lya” tovushigacha.



Hozirda xalq ijrochilari ochiq simlarni kamroq ishlatish va milliy bezak, qochirim, nolalarning qo‘llanilishini osonlashtirish maqsadida g‘ijjak chalishda kvarta sozidan ko‘proq foydalanadilar.


Mashhur g‘ijjakchi sozandalardan To‘xtasin Jalilov, Komiljon Jabborov, Nabijon Hasanov, G‘anijon Toshmatov, Doni Zokirov, G‘ulomjon Hojiqulov, O‘lmas Rasulov, Murod Toshmuhamedov, Abduhoshim Ismoilov, Qahramon Komilov, Tursunboy Jo‘rayev, Ahmadjon Dadayev, O‘tkir Qodirov, Salohiddin Azizboyev va boshqalar el orasida mashhur.

G‘ijjakda chap qo‘lning to‘rtta barmog‘ini ishlatgan holda, o‘ng qo‘l bilan kamonni tor bo‘ylab yurgiziladi. Bu usul – argo deb ataladi. G‘ijjakni kamonsiz armoq bilan chertib chalish pitsikato deyiladi. chap qo‘l bilan chalinadigan murakkab pitsikato ham mavjud bo‘lib bunda notaning ustiga + belgisi qo‘yiladi. Bunlardan tashqari detashe, legato, stakkato, spikatto, martele, spikkato, turkb xil trel, tremolo hamda flajolerlarlan foydalaniladi.


G‘ijjak partiyasi partiturada “Urma zarbli cholg‘ular” guruhidan so‘ng “Kamonli cholg‘ular” guruhida birinchi, skripka kalitida notalashtiriladi.

G‘IJJAK ALT – g‘ijjak cholg‘usining bir oz kattaroq qilib ishlangan turidir. U to‘rtta tordan iborat cholg‘u bo‘lib, birinchi tori birinchi oktavaning “lya”

tovushiga, ikkinchi tori birinchi oktava ning “re” tovushiga, uchinchi tori kichik oktava ning “sol” tovushiga, to‘rtinchi tori kichik oktavaning “do” tovushiga sof kvinta oralig‘ida sozlanadi.




G‘ijjak altning diapozoni ning kichik oktava “do” tovushidan uchinchi oktavaning “lya” tovushigacha.




G‘ijjak-alt partiyasi partiturada g‘ijjakdan keyin, alt (do) kalitida notalashtiriladi.

G‘IJJAK BAS - g‘ijjak cholg‘usining kattalashtirilib ishlangan turidir. G‘ijjak basning to‘rtta tori bo‘lib, birinchi tori kichik oktavaning “lya” tovushiga, ikkinchi tori kichik oktava ning “re” tovushiga, uchinchi tori katta oktavaning “sol” tovushiga, to‘rtinchi tori katta oktavaning “do” tovushiga sof kvinta oralig‘ida sozlanadi.




G‘ijjak basning diapozoni katta oktava ning “do” tovushidan uchinchi oktavaning “re” tovushigacha.




Hozirgi kunda xalq cholgʻulari orkestrida gʻijjak bas oʻrniga qoʻbiz-bas (yoki violonchel) ishlatilmoqda.

Gʻijjak-bas partiyasi partiturada gʻijjak altdan keyin, bas (fa) kalitida notalashtiriladi.

GʻIJJAK KONTRABAS – kamonli cholgʻular guruhiga mansub boʻlib, ijroda yozilganiga nisbatan bir oktava past eshitiladi. Gʻijjak kontrabasning toʻrtta tori boʻlib, birinchi tori kichik oktavaning “sol” tovushiga, ikkinchi tori kichik oktavaning “re” tovushiga, uchinchi tori katta oktavaning “lya” tovushiga, toʻrtinchi tori esa katta oktavaning “mi” tovushiga sof kvarta oraligʻida sozlanadi.



Gʻijjak kontrabas (qobiz kontrabas) asosiy gʻijjakning eng katta qilib ishlangan turi, kontrabas vazifasini bajaradi. Gʻijjak kontrabasning (qobiz kontrabas) umumiy ovoz hajmi kontr oktavadagi **mi** tovushidan birinchi oktavadagi **lya** tovushiga qadar. Notalar bas kalitida, eshitilishiga nisbatan oktava yuqorida yoziladi. Gʻijjak kontrabas (qobiz kontrabas) xuddi kontrabasdek, tik turib chalinadi. Orkestrda asosiy fundament vazifasinn bajaradi.



G'ijjak-kontrabas partiyasi partiturada g'ijjak-basdan keyin, bas (fa) kalitida notalashtiriladi.

Hozirgi kunda xalq cholg'ulari orkestrida g'ijjak kontrabas o'rniga simfonik orkestr kontrabaslari ishlatilmoqda.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar

Savollar:

1. Qadimda g'ijjakni qanday nomlashgan va bunday nomlanish qaysi xalqlarda saqlanib qolgan?
2. G'ijjak cholg'usining sozlanishi va diapozoni aytib bera olasizmi?
3. G'ijjak-bas va g'ijjak-kontrabasning orkestrdagi o'rnini nimadan iborat?
4. Ushbu guruhga kiruvchi qaysi cholg'ular transpozitsiya qilinadi?
5. G'ijjak altning sozlanishi va diapazonini bilasizmi?
6. Ushbu guruh cholg'ulariga xos shtrixlarni sanab bera olasizmi?

Topshiriqlar:

1. Kichik musiqa asarini g'ijjak oilasidan tuzilgan ansamblga moslab cholg'ulashtiring.
2. G'ijjak prima cholg'usi uchun yozilgan musiqa asarini g'ijjak altga moslashtiring.
3. Mazkur guruh tarkibiga kiruvchi cholg'ularning sozlanishi, diapazoni va ijro shtrixlarini o'rganing.
4. Internetdan foydalanib dunyo xalqlarining kamonli cholg'ulari va ulardagi ijro shtrixlari to'g'risida ma'lumotlar to'plang.

XALQ CHOLG‘U ORKESTRLARIDA KAM QO‘LLANILADIGAN MILLIY CHOLG‘ULAR

QONUN – juda qadimiy cholg‘ularga mansub. Farobiyning fikricha qonun eramizning birinchi asrlarida Samarqand aholisi o‘rtasida juda mashhur bo‘lgan. Farobiy o‘zining “Cholg‘ular haqida” nomli kitobining “Arfa”ga taalluqli bobida arfaga yaqin cholg‘u to‘g‘risida ma’lumot beradi.

Safi ad-Din esa qonunning ikki xil turi mavjud bo‘lganligi to‘g‘risida ma’lumot beradi. Har bir tovush tebranish natijasida alohida tor orqali hosil qilinadi. Qonun yunoncha so‘zdan olingan. Uning tovushqator asosi bir torli tarkibda tuzilgan “Monoxord” ga berilgan nomdan kelib chiqqan. Demak qadimiy “Monoxord” cholg‘u arab xalqi ijodiy amaliyotida “qonun” nomi bilan ommalashgan. Bu jarayonning ilk davri X-XI asrlarga to‘g‘ri keladi. Arab musiqashunos olimlarining ayon etishlaricha, taxminan XIV asrlarda yaratilgan qonun cholg‘usi Ussuriya poytaxtidan topilgan. O‘sha davrlarda bu cholg‘uning chizma nusxasi fil suyagidan qilingan qutilarga chizilgan. Unga binoan qadimdagi qonun turi turli shakllarga bo‘lingandir. Shu davrda qonun cholg‘usining uzunchoq shakli, yoysimon nusxalari, to‘rtburchak shakllari amaliyotda qo‘llanilgan. Bu cholg‘ular shaklan har xil bo‘lsada, uslubiy jihatlari, ovoz va ijrochilik imkoniyatlari bir-biriga juda o‘xshashdir. Qonun turli xalqlarda turlicha atalsa-da, unig asosi bir-biriga juda yaqin. Masalan: arab, turk va ozarbayjon xalqlarida “qonun”, uyg‘urlarda “qalun”, armanlarda “kanon”, slavyanlarda “gusli”, karallarda “kantelli”, estonlarda “kanelli”, latishlarda “kokles”, yaponlarda “kato”, koreyslarda “kiyagin” nomlari bilan ataladi. Bu cholg‘ular qonun va qonunsimonlar toifasiga kiradi. Ular qadimiy Nusxa, Qonun, Santur, Magna kabi cholg‘ulardan tarqalganligi manbalarda keltirilgan. Buyuk olim Farmerning Britaniya muzeyida saqlanayotgan qonunlar haqidagi risolasida bu cholg‘u olxo‘ri daraxti yog‘ochidan, uzum tanasidan yasalgani va uzunligi pastki, ya’ni yo‘g‘on tovush beradigan tomoni 81 santimetr, qarama-qarshi tomoni 40,5 santimetr

ekanligi yozilgan. O'n uchta uchtdan iborat tori bo'lgan. Qonun ikki qo'l barmoqlari yordamida chalingan. Bu cholg'u asosan Yaqin va O'rta Sharq xalqlari sozi hisoblanib, Turkiya, Armaniston, Ozarbayjon, Eron va boshqa Sharq mamlakatlarida rivojlangan. O'rta Osiyo xalqlari orasida, xususan, Buxoroda 1917 - yilgacha keng tarqalgan. Hozirgi qonunlar trapetsiyasimon yassi yog'och quti shaklida yasalmogda. Qopqog'i ham yog'ochdan yasilib, o'ng tomonining ozgina qismi, ya'ni xarrak joylashgan joyi teri bilan qoplanadi. 24 – 25 ta uchtalik ichak torlari uch oktavadan kengroq (do-re kichik oktavadan fa diyez uchinchi oktavagacha) diapazonga ega. Quloqlari yaqinida torlar ostida har bir tovushni osongina yarim ton, bir ton, ba'zilarini esa bir yarim tongacha o'zgartirish imkoniyatini beruvchi temir moslamasi bo'ladi.

Qonun cholg'usi qadimda biz yashab turgan hududimizda keng tarqalgan. Lekin XX asr boshlaridan to 80- yillargacha mazkur cholg'u bir oz unutila boshlandi. Izlanuvchan sozandalarning, xususan, Abdurahmon Holtojiyevning say'i-harakati tufayli bu cholg'u yana musiqiy hayotimizga kirib keldi. Hozirgi kunda qonun turli ansambllarda va orkestrlarda keng qo'llanishiga erishildi.




Qonun harragining teri ustida joylashuvi, unga tortilgan torlarning metallardan emas, sun'iy plastikdan tayyorlanishi cholg'uning sadolanishini mayinlashtiradi. Qonun ijrosi o'ng va chap qo'lning ko'rsatkich barmoqlariga taqilgan maxsus noxun (tirnoq) bilan tirnab chalish orqali amalga oshiriladi.

Qonun diatonik tovush qatoriga ega. Cholg'uning o'ng tomonida joylashgan kichik xarrakchalar ana shu torlarni taranglashtirib yoki bo'shashtirib kerakli yarim tonliklarni hosil qilishga yordam beradi. Tovush kuchini orttirish maqsadida qonun

torlarining ikkitasi yoki uchta bir xil qilib sozlanadi. Mohir ijrochilar qonunni chalishda 3 va hatto 4 ta barmoqdan foydalanadilar.

Qonunning diapazoni kichik oktavaning “re” tovushidan uchinchi oktavaning “fa” tovushigacha.



TANBUR ham noxunli mezboli cholgʻular turkumiga kiradi. U koʻrsatkich barmoqqa kiyiladigan metall aralashmasidan yasalgan maxsus moslama, yaʼni noxun bilan chalinadi. Chalinganda faqat birinchi tordan foydalanilib, qolganlari qoʻshimcha sado olish uchun xizmat qiladi.

Tanbur asosan tut, oʻrik, yongʻoqqa oʻxshagan qattiq daraxtlar gʻoʻlasidan noksimon shaklda qilib oʻyib yasaladi. Kosaning ustki qismi tut daraxtidan yassi qilib yasalgan qopqoq bilan qoplanadi. Dastasi birmuncha uzun, ingichka va pardalarga boʻlingan. Tanburning pardalari boshqa cholgʻular pardalariga nisbatan qalinroq va balandroq qilib bogʻlanadi. Bu bogʻlanish tanbur torlarini ezib kerakli tovush hosil qilish uchun moʻljallangan. Tanbur ham ud soziga oʻxshab juda qadimiyydir. Mashhur musiqashunos olim Farobiyning fikricha, qadimda tanburlar asosan ikki torli boʻlgan va ayrim holatlarda uch torli tanburlar ishlatilgan. Qadim davrlarda Xuroson tanburlari va Bogʻdod tanburlari mashhur boʻlgan. Bu tanburlar koʻrinishi jihatidan bir-biridan farq qilgan.

Shu oʻrinda mashhur olim Fitratning “Oʻzbek klassik musiqasi va uning tarixi” nomli kitobidagi tanbur haqidagi fikrlarni aynan keltirishni lozim deb topdik. “Burungi musiqiy kitoblarimiz tanbur soʻzini “TUNBURA” shaklida yozadirlar-da, aslida yunoncha soʻz ekanini soʻzlaydilar. Bu cholgʻuning chindanda yunondan kelib – kelmaganini biz tomondan tekshirish mumkin boʻlmadi.

Biroq bu cholgʻuning sharqda juda eski bir narsa ekani maʼlumdir. Hijriy oʻninchi asrda oʻtgan Hofiz Darvesh Aliy tomonidan tanburning burun ikki torli boʻlgani, soʻngra Husayn Boyqaro zamonida Mahmud Shayboniy otli bir musiqiyshunosning unga bir tor ortdirgʻani toʻgʻrisida berilgan xabar esa yuqoridagi fikrlarimizning kuchini ortdirgon boʻladir”.

Tanburning yaratilishi va uning taraqqiyot jarayonini dastlab Movarounnahr hamda Xurosonning musiqa bilimdonlari oʻz asarlarida ilmiy nuqtayi nazardan tadqiq etganlar. Masalan, musiqashunoslar Abu Nasr Farobiy, Kotibiy Xorazmiy, Ibn Sino, Ibn Zayla Isfaxoniy va boshqalar oʻz asarlarining ayrim boblari hamda fasllarida tanburga oid muhim izohlarni berganlar. Tanbur atamasining maʼnosi turli yozma manbalarda turlicha izohlangan. Jumladan, Darvesh Ali Changiy Buxoriy (XII asr Tuhfat-us-surur) ning taʼkidlashicha, tanbur yunoncha soʻz boʻlib, “tan” – yurak, “bur” - tirnash maʼnosini anglatar ekan.

Hozirgi tanburlar toʻrt torli boʻlib, torlari mis va latun aralashmasidan tayyorlanadi. Dastaga 16 –19 tagacha yoʻgʻon qilib ichak pardalar bogʻlanadi. Bu pardalarni ijro etiladigan asarning ladiga qarab pastga yoki yuqoriga surish mumkin. Tanbur pardalari bir necha qavat ichaklardan tayyorlanib, qalinligi sababli dastadan ancha koʻtarilib turadi. Xuddi mana shuning oʻzi tanburning oʻziga xos xususiyatlaridan biridir. Sozanda pardaning balandligi hisobiga torni ezish yoʻli bilan turli tovushlar hosil qila oladi. Bogʻlama pardalardan tashqari tanburning qopqoq qismiga yana toʻrtta yordamchi yogʻoch parda, yaʼni xasparda oʻrnatiladi. Bu esa tanburda ijro etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tanburning ommalashuvida
Maʼrufjon Toshpoʻlatov, Fazliddin



Shahobov, Shonazar Sohibov, Boboqul Fayzullayev, Matyusuf Xarratov, Rizqi Rajabiy, Turg'un Alimatov, Sultonxon Hakimov, Yoqub Davidov, Shobarot Tanburiy, Otavali Nuriddinov, Abdulla Umarov, Toir Qo'ziyev, O'ktam Rasulov va boshqa sozandalarning xizmatlari benihoyadir.

An'anaviy tanbur tovush qatori diatonikdir. Uning to'rtta tori bo'lib, birinchi, ikkinchi va to'rtinchi torlari katta oktavaning "sol" tovushiga, uchinchi tori esa katta oktavaning "re", "do" yoki "fa" tovushiga sozlanadi. U transpozitsiya qilinuvchi cholg'ular guruhiga mansub bo'lib, ijroda yozilishiga nisbatan bir oktava past eshitiladi.

yozilishi

I	II	III	IV
			
sol kichik oktava	sol kichik oktava	re kichik oktava	sol kichik oktava

eshitilishi

I	II	III	IV
			
sol katta oktava	sol katta oktava	re katta oktava	sol katta oktava

Tanbur ijrochiligida noxun orqali hosil qilinadigan oddiy va murakkab bo'lgan zarblar bir necha xildan iborat. Bular: yakka zarb, qo'sh zarb, zarbi parron (uchma zarb), pirrang, bilak zarb, rez, kalta rez, teskari zarb, ufar zarb.

SATO tanburning bir ko'rinishidir. Avvalda oddiy tanburdan sato sifatida foydalanilgan bo'lsa, hozirda tanburning biroz kattalashtirilgan va ko'rinishi biroz o'zgartirilgan turidan foydalanilmoqda. Sato ijrosida noxun o'rniga g'ijjak va skripka cholg'ularini ijro etishda ishlatiladigan kamondan foydalaniladi. Satoning

tovushi juda mayin va ulugʻvordir. Unda asosan mungli va ogʻir kuylar ijro etiladi. Sato dutor, tanbur cholgʻulari bilan birgalikda va alohida holda yaxshi eshitiladi. Maxsus ovoz kuchaytirish moslamalarisiz katta ansambl va orkestrlarda ishlatilishi kutilgan natijani bermaydi. Milliy cholgʻularimiz qatoridan joy olgan sato kamon bilan ijro qilinadigan



cholgʻulardan hisoblanadi. Ammo sato noxun bilan ijro etilsa, tanburga aylanadi.

Satoning toʻrtta tori bor, torlar kuylar amrida sozlanadi. Satoning tovushi inson tovushiga yaqin. Satodan chiqqan navo xuddi soʻzsiz qoʻshiqday yangraydi.

Sato cholgʻusi ijrochilari koʻpchilikni tashkil etmaydi. Odatda, tanbur ijrochilari gʻijjakni ham chala oladigan hollarda sato ijrochiligida ham oʻzlarini sinab koʻradilar. 1940-1950 - yillarda Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrining sozandasi A.Barayev shu cholgʻu ijrosi boʻyicha mashhur boʻlgan boʻlsa, satoni ommalashtirgan, elga manzur qilgan mashhur sozanda Turgʻun Alimatovdir. Sato koʻhna cholgʻular qatoriga kirib, uning qayta tiklanishi musiqa olamida katta yangilik boʻldi. Sato cholgʻu ni oʻtirgan holda, chap tizza ustiga qoʻyib, kamon bilan ijro etiladi.

Satoning diapazoni ham tanbur bilan bir xil boʻladi.

UD ijtimoiy hayot oʻz taraqqiyoti mobaynida aholining tabaqalarga boʻlinish jarayonini boshidan oʻtagani kabi musiqa sanʼatida ham ana shunday jarayon davom etmoqda. Uzoq tarixiy taraqqiyot mobaynida musiqiy janrlar, cholgʻularning bir qancha turlari kashf etildi. Ana shunday cholgʻu turlaridan biri uddir. Oʻtmish olimlari ud cholgʻular ichida mukammallik darajasiga

yetkazilganligini ko'rsatib o'tganlar. Ud sozi Osiyo xalqlarining milliy cholg'ulari qatoridan munosib joy olgan, garchand uni forslar «Borbad», xitoyliklar «Pipa», arab xalqlari «al Ud» va ko'pchilik Ovropa xalqlari «Lyutnya» kabi atamalarda atagan bo'lsalar ham ularning asosi bir, ya'ni ud (udsimon) dir.

Ud arabcha so'z bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi turlichadir. U birinchidan yog'ochi qora tusli daraxtning nomidir. Ud dastlab shu daraxtdan yasalgan bo'lishi kerak. Ikkinchidan, ud iborasi bayram, to'y-tomosha, xursandchilikni ifodalaydigan "iyd" iborasining ma'lum formasidir. Bu o'rinda xushchaqchaqlik kayfiyati bag'ishlovchi soz ma'nosida ham kelishi mumkin.²

Bu xususiyatlari xalq orasida mohir sozandalar yetishib chiqishida, musiqa ijodiyotida ustozona musiqa janrini vujudga kelishida muhim o'rin egallaydi. Bu o'rinda IV asr oxiri V asr boshlarida yashab ijod etgan zabardast «afsonaviy» sozanda, o'z ijodida lahn, parda, xusravoniylar kabi qadimiy musiqiy janrlarda namunalar yaratgan Borbad faoliyatini misol qilish mumkin.

Musiqaning barcha ilmlar qatorida alohida fan sifatida shakllanishida o'tmishda yashab ijod etgan Al Farobiy, Safiuddin Urmaviy, Al Husayniy, Ash Sheroziy, Kavkabiylar kabi allomalarning xizmatlari benihoyadir. Ularning ilmiy-nazariy tadqiqodlarida ud asosiy cholg'u sifatida xizmat qilgani alohida ta'kidlanadi. Eroniy tillarda so'zlashuvchi xalqlar orasida Borbad qadimdan ma'lum va mashhur bo'lsa, u iroqlik arab xalqlariga esa VIII asrda ma'lum bo'ldi va arab musiqasini borbadda, udda birinchi bor Ibn Surayi ijro etdi. Ibn Sino davrigacha (X asrning ikkinchi yarmi XI asr boshi) "Borbad" termini ud so'zining sinonimi




sifatida ishlatildi. Buning tasdig'i sifatida Al-Xorazmiyning (X asr) quyidagi jumlasini keltirish mumkin. "Borbad-bu ud. Borbad so'zi o'rdakning ko'kragi ma'nosini beradi, ya'ni bar – ko'krak, bat – o'rdak". Mahmud Qoshg'ariyning (XI asr) "Devonu lug'atit-turk» asarida ham Borbad so'zi o'rdak ko'kragi degan ma'noni anglatishi qayd etiladi. Al-Farobiyning "Arab musiqasi, uning qonuniyati va tarixi" asarida "Ud sozi intervallarni nazariy jihatdan hisoblashda xizmat qilgan" degan jumla bor. Demak, ud sozining mukammal soz sifatida shakllanganligini Sharq olimlari ham isbotlaganlar.

O'rta asr fanining allomasi ash-Sheroziy hamda Jomiyning musiqa nazariyasiga bag'ishlangan asarlarida ko'rsatilishicha, ud al-Farobiy zamonasi (X asr)gacha to'rt torli musiqa cholg'ularidan bo'lgan va torlar maxsus nomlar bilan atalgan. Eng past tovush beradigan tor – "**bamm**" (eng past), ikkinchi tor "**maslas**" (arabcha uch barobar baland), "**masna**" (arabcha ikki barobar baland), to'rtinchi tor esa "**zir**" (baland tovush beradigan) nomlari bilan ifodalangan. Al-Farobiy o'z zamonasi talablariga, ya'ni musiqa amaliyotidagi ehtiyojlarga asoslanib, ud torlariga "**hodd**" (eng baland tovushli) deb atalgan torni qo'shgan va udning tovush diapazonini diatonik tovushqator nuqtayi nazaridan qariyb 4-5 pog'onaga kengaytirgan.

Musiqaga oid nazariy risolalardan ma'lum bo'lishicha, besh torli ud qariyb XIII asrgacha ishlatilib kelingan. Udning oltinchi, ya'ni "**muxtalif**" simi XIV-XV asrlarda paydo bo'ldi va sozning yanada mukammallashuviga olib keldi.

Arab, Misr sozandalari ud cholg'usi torlarini asosan do, sol, re, lya, mi (fa) tovushlariga sozlaydilar, bizda esa maqom, xalq kuylarining diapazoni kengligini hamda dutor, tanbur cholg'ularining re tovushiga sozlanishini hisobga olib cholg'u sozi bir oz o'zgartirilgan. Ba'zi bir kuylarda udning 6-tori re yoki si tovushiga sozlanadi. Ud cholg'usi nota yozuviga nisbatan bir oktava past eshitiladi, ya'ni transpozitsiya qilinadi. Yozilishi 2-oktava re tovushidan katta oktavaning mi tovushigacha, eshitilishi esa 1-oktavaning re tovushidan kontr oktavaning mi tovushigacha.



BULAMAN (balabon) surnaydan ko‘ra birmuncha kichikroq, qattiq yog‘och tanasidan, aksariyat hollarda tut va o‘rik yog‘ochidan ishlangan cholg‘u bo‘lib, tovush hosil qilinadigan qismi surnaynikidan farq qiladi. Bulamanda “nay pachiq” o‘rnida sibizg‘asimon til ochilgan qamish bo‘lagidan foydalaniladi. Bulaman tanasi surnayniki singari kengayib borgani bilan uning ichki tomonidagi teshik o‘zgarmay qoldiriladi. Tashqi kengayish faqat tashqi ko‘rinishning yaxshi bo‘lishi uchun qilinsa kerak. Bulaman tilchasi uning tanasiga kiritilishida tanaga kirishi lozim bo‘lgan bo‘lagi ip bilan o‘raladi. Bu til va tana orasidan havo o‘tmaslini ta‘minlaydi. Bulamanda ham kerakli tovushlarni hosil qilish uchun teshiklar ochilib, ularning 7 tasi ustki tomonda va 1 tasi pastki tomonda bo‘ladi.



Bulamanning tovush tembri (kuchi) surnaynikidan ancha pastroq bo‘ladi. Shuning uchun bu cholg‘udan cholg‘u ansambllari va qo‘shiq ijrochilariga jo‘r bo‘lishda foydalanish mumkin. Bu cholg‘u hozirda Qoraqalpog‘iston va Xorazmdan boshqa hududlarda deyarli uchramaydi.

KARNAY – o‘zbek damli musiqiy cholg‘ularining eng katta va eng kuchli tovush tembriga ega bo‘lgan turidir. O‘z nomi bilan karlar ham eshitishi mumkin bo‘lgan nay desa ham bo‘ladi. Uning hajmi juda kattaligi sababli og‘ir bo‘lmasligi uchun, yupqa mis tunukadan tayyorlanadi va alohida 3 ta bo‘lakni bir–biriga kiydirish orqali yig‘iladigan ko‘rinishda tayyorlanadi. Bu cholg‘udan surnay, doyra, nog‘ora bilan birgalikda ochiq joylarda ijro etish mumkin bo‘lgan ansambllardan foydalaniladi. Qadimda karnaylardan harbiy yurishlarda ham keng foydalanilgan. Karnay xalq cholg‘u ansambllarida ishlatilmaydi, xalq cholg‘ulari

orkestrida ham muayyan asarning kerakli joylarida epizodik bo‘laklar ijrosi uchun foydalaniladi.



Qadimda karnaylarning to‘g‘ri va tirsakli turlari mavjud bo‘lgan. Hozirda karnaylar faqat to‘g‘ri qilib yasalmog‘da. Unda tovush hosil qilish uchun mundshtuk – karnayning puflanadigan maxsus qalaylanadigan moslama zarur bo‘ladi yoki yevropa mis damli cholg‘ulari – truba, bariton kabi cholg‘ularning mundshtuklaridan foydalaniladi.

CHANGQO‘BIZ juda qadimiy musiqiy cholg‘u deb hisoblansada, u to‘g‘risidagi ma‘lumotlar tarixiy manbaalarga juda kech kiritilgan. Bizning nazarimizda, musiqiy cholg‘ular haqida yozilgan risolalarda changqo‘biz to‘g‘risidagi ma‘lumotlar uchramasligining asosiy sababi mazkur musiqiy cholg‘uda alohida holda «kuy» (bizning tasavvurimizdagi yakunlangan musiqiy lavha) ijro etish imkoniyatining yo‘qligidan unga jiddiy e‘tibor berilmagan bo‘lsa kerak. Changqo‘bizning juda qadimiy musiqiy cholg‘u ekanligini isbotlash qiyin emas. Changqo‘bizning metallardan va tuya suyagidan tayyorlangan turlarining mavjudligi ushbu cholg‘u metall iste‘moli boshlangan davrdan oldin ham mavjud bo‘lganligiga ishora qilsa, changqo‘bizga aynan o‘xshash cholg‘ularning sharqiy turkiy xalqlar, shimol xalqlari, Markaziy Osiyo xalqlari, shu bilan birga tatar, boshqird xalqlari va hatto olmonlarda ham uchrashi uning juda qadimiy cholg‘u ekanligidan dalolat beradi. Xitoyning janubida yashaydigan orollarda ham qamishdan yasalgan changqo‘bizlarni uchratish mumkin. Changqo‘biz cholg‘usi qadimdan O‘zbekiston hududining hamma viloyat va shaharlarida keng tarqalgan. Hozirda changqo‘biz cholg‘usi ko‘proq Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida uchraydi.

Changqo‘biz hozirda metallardan tayyorlanadi. Umumiy uzunligi 10-15 sm., eni taxminan 2 sm. atrofida. Undagi asosiy tovush egiluvchan po‘latdan tayyorlangan

«til» qismida hosil qilinadi. Metall plastinka ishlangan til uni tutib turuvchi metall korpusga qotiriladi. Tilning korpusga qotirilmagan tomoni erkin holda tebranib turishi lozim. Tilning tovush hosil qilinadigan – tebranib turuvchi bo‘lagining uzunligi taxminan 7sm. atrofida. Uning uchi 1 sm. atrofida qayrilgan bo‘lishi lozim. Qayrilgan qismning tig‘i barmoq bilan chalish qulay bo‘lishi uchun dumaloq shaklida o‘rab qo‘yiladi. Tilning eni taxminan 1,5–2,5 mm. bo‘lib, barmoq bilan chalinadigan tomonga qarab torayib boradi. Tilning qalinligi 0,2 – 0,3 mm. Atrofida bo‘ladi. Tilni ushlab turuvchi qo‘zg‘almas qism go‘yo ikkiga buklangan qalin metall simni eslatadi. Korpus til qotiriladigan joyida 2 sm. atrofida kengaytirilgan bo‘lib oralig‘i 0,5 sm. dan ortiq bo‘lmaydi. Ana shu oraliqda joylashgan til bilan ushlab turuvchi qo‘zg‘almas qism tomonlari orasidagi masofa (tilning har ikki tomonidan) 1mm. dan ortmaydi. Tilning qo‘zg‘almas tomoni, ya’ni korpusga qotirilgan joyidan narigi tomoni ijrochi ushlab turishi uchun xizmat qiladi. Ma’lumki, tabiatdagi har qanday tovush biror jismning tebranishidan hosil bo‘ladi. Tebranish qanchalik tez bo‘lsa, tovush shunchalik yuqori va baland bo‘ladi va aksincha. Changqo‘bizning tilini tebratganda deyarli hech narsa eshitilmaydi, uning tovushi kuchaytirilishi va boshqalarga eshitilishi uchun og‘iz bo‘shlig‘i rezanator vazifasini bajaradi. Changqo‘bizni ijro etishda uning qo‘zg‘almas qismining uch tomoni yuqori va pastki tishlar o‘tasiga shunday joylashtiriladiki, changqo‘bizning tili ana shu holatda erkin tebranishi uchun hech qanday to‘siq bo‘lmasligi lozim.

Hozircha changqo‘bizdan folklor cholg‘u ansambllarida, estrada ijrochiligida «lavha»(epizod) ijro etishda foydalanib kelinmoqda. Changqo‘biz cholg‘usining imkoniyatlari hali to‘liq o‘rganilmagan va bu yo‘nalishda izlanishlar davom etishi lozim. Masalan, alohida tayyorlangan changqo‘bizlar beradigan asosiy tovushining balandligi qaysi tovushga mos kelishini ustalar o‘ylab ham



ko‘rmaydi va bir xil tovush hosil qiluvchi changqo‘bizlar yaratishga harakat ham qilinmaydi. Bu esa juda murakkab vazifa emas. Changqo‘biz «tili»ning uzunligi, eni va qalinligi bir xil bo‘lgan changqo‘bizlar bir xil asosiy tovush hosil qilishi

mumkin. Tilning eni, bo'yi yoki uzunligi qisqartirish yoki uzaytirish orqali esa musiqada foydalaniladigan tovushlarga bema'lol moslashtirish (sozlash) imkoniyati bor. Changqo'bizning barcha o'lchamlari ishlab chiqilgan va ma'lum tovushlarga sozlangan xillari hozirda Germaniyada mavjud. U yerdan olib kelingan changqo'bizlarning re, sol, si, do tovushlariga sozlangan turlarini uchratdik.

SIBIZG'A. Inson tomonidan yaratilgan eng sodda va inson ovozigacha yaqin sado beradigan sibizg'a ming yillar davomida oddiy xalq tomonidan yasaliib va chalib kelingan. Bu musiqiy cholg'u dastlabki ko'rinishiga va tuzilishiga nisbatan juda kam o'zgarishga uchragan. Har bir musiqa cholg'usining sadosi insonlarda muayyan hissiyotni uyg'otish xususiyatiga ega. Misol uchun, ud cholg'usi salobat, ulug'vorlik, bosiqlik kabi hissiyotlarni hosil qilsa, surnay- tantanovarlik, bayramona kayfiyatni, sato –munglilik, g'amginlik hislarini uyg'otadi. Sibizg'a cholg'usining sadosi esa eshituvchida albatta tabiat, borliq, kenglikni esga soladi. Uni eshitgan tinglovchi ko'z o'ngida tog'u-toshlar, cho'lu-sahrolar, qiru-dalalar gavdalanganday bo'ladi. Ana shunday sehrli sadolar hosil qilish xususiyatiga ega bo'lgan sibizg'a juda qadimiy musiqiy cholg'ular sirasiga kiradi. Folklor musiqiy cholg'ularining saqlanib qolishi va juda kam o'zgarishga uchrashining asosiy sababi ham ularning sodda tuzilishga ega ekanliklari va oddiy odamlar tomonidan yasalishi mumkinligida bo'lsa kerak. Sibizg'a cholg'usi g'arov qamish deb ataluvchi qalin devorli qamishdan yasaladi. Unda hosil qilinadigan tovush balandligini o'zgartirish uchun 3 yoki 4 ta teshik ochiladi. Ana shunday sibizg'ada kvarta, kvinta ba'zan seksta diapazoni oralig'idagi kuylarni chalish imkoniyati bor. Ma'lumki, folklor qo'shiqlari ham katta diapazon talab etmaydi va mazkur qo'shiqlar kuylarini sibizg'ada ijro etish imkoniyati bor. Sibizga cholg'usida tovush nafas orqali (puflash orqali) hosil qilinadi. Og'iz bo'shlig'idan kuch bilan yo'naltirilgan havo sibizg'aning tanasida ochilgan «tilcha» bilan korpus oralig'i orqali o'tadi va tebranib turish xususiyatiga ega bo'lgan «tilcha»ni tebratadi va tovush hosil qiladi. Sifatli tovush hosil qilinishi «tilcha» bilan korpus oralig'idagi tebranish masofasi va namlik darajasiga bog'liq. Shuning uchun sibizg'ani chalishga tayyorlashda uning orqa tomonidan puflanadi va buning

natijasida «tilcha» bir oz ko'tarilib ijro uchun tayyor bo'ladi. Havo kuchining o'zgarishi sibizg'ada hosil qilinadigan tovush kuchining va balandligining o'zgarishiga olib keladi. Kuchsiz havo «tilcha»ni tebrata olmasa, o'ta kuchli havo «tilcha»ning erkin harakatiga ta'sir qilib uni korpusga yopishtirib qo'yishi mumkin. Sifatli hosil qilingan tovush ham havo kuchi orqali yarim tongacha va ba'zan undan ham ortiqroq o'zgartirilishi mumkin. Bu amaliyot ijrochining mahoratiga bog'liq bo'lib, diatonik tovush qatoriga ega bo'lgan mazkur cholg'uda kerakli tovushlarni nafas kuchi orqali hosil qilish imkonini yaratadi.



Professional musiqa mutaxassislar tomonidan o'ta sodda, deyarli o'yinchoq holida qabul qilingan sibizg'a xalq ichida mohir ijrochilariga ega bo'lgan. Surxondaryoning Boysun tumanida istiqomat qilib, ushbu sodda musiqiy cholg'uda ajoyib, o'ziga xos musiqiy ohanglar yaratgan Nodir bobo va uning o'g'li Abdurashid bobo Nodirovlarning bu cholg'uni ommalashtirishdagi xizmatlari kattadir. Bu kishilarning ijrochilik mahorati musiqa mutaxassislarining e'tiborini tortishi natijasida ushbu musiqiy cholg'uga e'tibor o'zgardi va ular ijrosidagi musiqiy lavhalar Respublikamizning eng katta –Mustaqillik va Navro'z umumxalq bayramlarini nishonlash tadbirlarini ham bezab kelmoqda.

Hozirda sibizg'a cholg'usidan estrada qo'shiqchiligida, hatto orkestr ijrochiligida foydalanilmoqda. Cholg'uning xususiyatidan kelib chiqib, undan cho'zib ijro etiladigan lavhalarda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

SHULLOVUK (sopol nay). Asosiy to'rt unsuridan biri bo'lgan tuproqqa ikkinchi unsur – suv aralashtirilganda hosil bo'lgan loydan shakli yasaladigan, keyin yesa yana bir unsur – olovda pishirilgan sopol nay o'ziga 4- unsur havoni tortganida (qabul qilganida) go'yo ushbu qadimiy cholg'u bizga asrlar sasini berganday bo'ladi. O'z sadosi bilan bizlarni ushbu zaminda yashab o'tgan ota-bobolarimiz bilan ruxan bog'laydi. Boshqacha qilib aytganda, biz yashab turgan zaminimizda o'sadigan dov-daraxtlaru, buta-o'simliklar bilan hamohang bo'lib zaminimiz tuprog'i ham kuylash xususiyatiga ega.

Shipillak, shullovuk, hushtak, sopol nay nomlari bilan ataladigan sodda musiqiy cholgʻu bizning nazarimizda damli cholgʻularning eng qadimiysi



boʻlsa kerak. Mantiqan olib qaraganda, inson yogʻochga yaxshi ishlov berishi uchun tosh yoki metall cholgʻu kerak boʻlgan. Bu qurollar ixtiro etilmagan davrda ham sopol nay singari cholgʻularni yasash mumkin boʻlgan. Sopol nayga oʻxshash cholgʻularning tasvirlari Surxondaryodagi Dalvarzintepa qazilmalarida uchraydi. Oddiy loydan yasaliib, oʻtda toblanishi natijasida sopol holiga keltirilgan sodda cholgʻular qatorida oʻsha davrlarda sopol nay ham boʻlgan boʻlsa kerak. Mazkur choluning turlicha koʻrinishdagi turlari Respublikamizning turli joylarida uchraydi. Bolalar (qishloq joylarda) oʻyinchogʻi sifatida bittagina tovush hosil qilish imkoniyatiga ega boʻlgan turlaridan tortib bir yarim oktavagacha diapazonda kuy chalish imkoniyatiga ega boʻlgan sopol naylar qadimda juda keng tarqalgan. Hozirda juda kam uchraydigan mazkur cholgʻu baʼzi chet viloyatlarda saqlanib qolgan.

Sopol nayda tovush hosil qilish hech qanday qiyinchiliksiz amalga oshiriladi, yaʼni puflanadigan tomonidan havo yoʻnaltirilsa, bas. Sopol nayda hosil qilinadigan tovush yogʻoch yoki bambukdan yasalgan naydan keskin farq qilmasada, oʻziga xos sadosi bilan ajralib turadi. Professional ijrochilikda qoʻllaniladigan nay cholgʻusida chalish mashaqqatli mehnat, uquv va tajriba talab qiladi. Sopol nayda esa nafas kuchidan toʻliq foydalanish (nay ijrosida maʼlum qismdagi havo toʻlqini puflanadigan teshikni chetlab oʻtadi) hisobiga oz muddatda natija koʻrsatish imkoniyati bor.

Surxondaryoda tayyorlangan sopol nayning oʻlchamlari quyidagicha. Tashqi diametri 2,3 sm., ichki diametri 1,3 sm., devor qalinligi 0,5 sm. boʻlib, cholgʻuning uzunligi 17 sm. ni tashkil etadi. Uning puflanadigan tomoni devorlari siqib, zichlab bekutilgan va oʻsha joyining eni 3,2 sm. dir. Havo puflanishi uchun zichlab yopishtirilgan joyi oʻrtasidan eni 5 mm., qalinligi 1 mm. lik teshik ochilgan. Sopol nayning ustki qismida 4 ta va pastki qismida barmoq bilan ochib yopiladigan 1 ta teshik mavjud. Teshiklar diametri 5 mm. dan boʻlib, ular orasidagi masofa 1,5

dan 1,8 sm. gacha oraliqni tashkil qiladi. Puflanadigan tomondan hisoblanganda, ustki qismdagi 1- teshik 7,5 sm. dan keyin, pastki teshik esa 5,3 sm. dan keyin ochilgan. Agar sopol nay o'lchamlari o'zgartirilib ustki teshiklar soni 6 taga yetkazilsa, unda 2 oktava va undan ortiq oraliqdagi kuylarni chalish imkoniyati tug'iladi. Bundan tashqari, sopol nay diametrini orttirish yoki kamaytirish orqali nisbatan past yoki yuqori registrli cholg'u turlarini ham hosil qilish mumkin.

QO'BIZ – kamonli cholg'ularning eng qadimiysi yoki qadimiylaridan biri hisoblanadi. Qo'bizsimon cholg'ular xitoyliklarda ("xu kin"), mo'g'ullarda ("xur") uchraydi. Qo'bizning kashf etilishi ba'zi manbalarda afsonaviy Qo'rqu nomi bilan bog'lanadi. Kim tomonidan kashf etilishidan qat'iy nazar g'arb tadqiqotchilari skripka va unga o'xshash kamonli cholg'ularning ibtidosini sharqdan izlash kerakligini va bu cholg'u qo'biz bo'lishi haqiqatga yaqinligini e'tirof etishgan.

Qo'biz hozirda qozoq va qirg'izlarda juda keng foydalaniladi. Qoraqalpoq jirovlari ham faqat shu cholg'u jo'rligida o'z dostonlarini ham, termalarini ham aytishadi.



Qo'bizning ikkita tori ham, kamonga tortiladigan tori ham otning yolidan tayyorlanadi. Uning kosaxonasining faqat bir qismiga teri qoplanadi va shu joyga uning xarragi o'rnatiladi. Kosaxonaning qolgan qismi ochiq qoladi. Ijroda uning har ikki tori birgalikda ishtirok etadi. Cholg'u ijrosida obertonlar ishtiroki juda faol bo'ladi va uning ijrosida birdaniga bir nechta tovush hosil bo'layotgandek taassurot tug'iladi. Qo'biz qirg'izlarda "qil qiyaq" deyiladi. Qo'rmong'oz nomidagi halq cholg'u cholg'ulari orkestri tarkibini kengaytirib, mukammallashtirish maqsadida, qobizning prima, alt, bas va kontrabas turlari ishlab chiqilgan. Qayta ishlangan qobiz turlari uch va to'rt torli bo'ldi. Qobiz yakka tartibda chalinganidek, ansamblda va orkestrda ham ijro

etiladi. Qozoq milliy cholg'ular orkestrining yetakchi kamonli cholg'usi bo'lgan qo'biz ijrochiligi qozoqlarda juda yuqori saviyaga yetgan. O'zbek milliy cholg'ularida ham qo'bizning takomillashtirilgan, biroq violonchelga yaqin ko'rinishga keltirilgan "qo'biz bas" va kontrabas o'rnida ishlatiladigan "qo'biz kotrobas"lar ishlatiladi.

G'AJIR NAY. Bu cholg'u ba'zi kitoblarda cho'pon nay deb ham ataladi. Aslida, cho'ponlar ishlatadigan naylar suyakdan yoki qamishdan yasilib, ularning har ikkisi ham cho'pon nay deb ataladi. G'ajir nayning nomi parranda nomi bilan bog'liqdir. Chunki bu nay - g'ajir deb nomlanadigan qushning qanot suyagidan yasaladi.

G'ajir – yirtqich qushlar qatoriga kiradi va aksariyat hollarda o'laksa bilan ovqatlanadi. Uning go'shti harom hisoblanadi va iste'mol qilinmaydi. Ko'rinishi katta bu qushning qanotlari yozilganda 3 metrgacha yetadi. Qanotlarni ushlab turuvchi markaziy suyagining diametri 2-2,5 santimetrga, uzunligi esa 30-35 santimetrgacha bo'ladi.

Go'shti harom hisoblangan qushning suyagini etidan ajratib olingandan keyin botqoq joyga 40 kun davomida ko'mib qo'yiladi. Buni oddiy xalq tilida «chilla qilish» deb ataladi. 40 kun davomida balchiq ichida turgan suyakka yopishgan go'sht bo'laklari chirib, suyakdan ajralishi osonroq kechadi. Suyakning ikki tomoni ochilib, ichki tomoni ham tozalanadi. G'ajirning qanot suyagi tabiatan uchburchaksimon va bir oz bukilganroq tuzilishga ega. Yuza qism sifatida nisbatan silliqroq va kengroq bo'lgan tomon tanlanadi va shu tomonidan 3 yoki 4 ta, orqa tomonidan 1 dona teshik ochiladi. Orqa tarafda ochiladigan teshik puflanadigan tomonga yaqinroq, yuza tarafdagi teshiklar esa uzoqroq masofada bo'ladi.



G'ajir nayni yuqori tishlarning orasiga tirab, nayning yuqori qismini lab bilan o'rab olgan holda ichiga puflab tovush hosil qilinadi. G'ajir nayda tovush hosil qilish juda murakkab bo'lib, ancha mashaqqatli mehnat talab qiladi. Unda soda va kichik diapazonga ega kuylarni ijro etish mumkin.

Biz yuqorida cho‘pon naylar qatoriga kiritgan qamish nay ham g‘ajir suyagi yo‘g‘onligidagi qamishdan yasaladi va xuddi g‘ajir nay singari teshiklar ochiladi. Unda tovush hosil qilish uslubi ham g‘ajir naynikidan farq qilmaydi.

DO‘MBIRA cholg‘usi professional cholg‘u ijrochiligida qo‘llanilmasada, xalqimizga tanish musiqa dir. Baxshilarning eng yaqin hamrohi, tinglovchi bilan muloqotda eng yaqin yordamchisi bo‘lgan do‘mbira juda qadimiy cholg‘ulardan hisoblanadi. Uning zaminimizdagi eng qadimiy torli cholg‘ulardan biri ekanligini tarixiy ma’lumotlar va qazilma boyliklardagi tasvirlar isbotlaydi. Hozirda bizda qo‘llanilayotgan do‘mbiralar juda kam o‘zgarishga uchragan. Dastlabki davrlarda ichakdan, keyinchalik ipakdan eshilgan torlar hozirda plastik iplar bilan almashtirilgan, xolos. Do‘mbira cholg‘usi hozirda juda keng tarqalgan dutor cholg‘usi yaratilishiga sabab bo‘lgan, degan taxminlar bor. Bundan tashqari, qozoq xalqida ham do‘mbira cholg‘usi eng asosiy musiqiy cholg‘ulardan biri hisoblanadi. Qozoq do‘mbirasi zamon ta’sirida o‘zgartirilib, qovurg‘ali kosaxona va bog‘lama pardalarga ega bo‘lgan cholg‘udir. Bizdagi ko‘rinishidagi cholg‘ular ham ularda saqlanib qolgan. Faqat, uni qozoqlar «chertar» deb ataydilar.

Rus xalq cholg‘usi domra ham nomlanishi bilan bizning do‘mbiramizga qarindoshligini isbotlaydi. Tarixdan shu narsa ma’lumki, XV asrdan XIX asr o‘rtalarigacha davrdagi rus hukmdorlari maxsus farmonlar bilan «skomoroxlar» nomini olgan sayoq sozandalar bilan kurashib kelganlar. Cherkov ayonlari «shayton cholg‘ulari» deb atagan va ularning ta’birida insonlarni dindan chalg‘itgan skomoroxlarning musiqiy cholg‘ulari va o‘zlari doimiy ta’qibda bo‘lgan. Bir necha marta ularga nisbatan ochiq urush e’lon qilinib, maxsus tadbirlar uyushtirilgan. Rus musiqiy tadqiqotchilarining o‘zlari e’tirof yetishicha hozirda eng ommabop bo‘lgan balalayka cholg‘usi ham ta’qibchilarni chalg‘itish maqsadida ko‘rinishi o‘zgartirilgan domra cholg‘usining turidir. XIX asr oxirida rus xalq



cholg'ulariga qayta umr bag'ishlagan V.V.Andreyev avval balalayka cholg'usini takomillashtiradi. Unga yordam bergan ustalardan biri tasodifan chordoqda (tom ustida) ta'qiblardan yashirilgan eski do'mbira cholg'usini topib oladi va uni takomillashtirib hozirgi ko'rinishga olib keladi. Ma'lum bo'lishicha qadimiy rus do'mbirasida ham pardalar bo'lmagan va undagi ijro mezrob bilan emas o'ng qo'l barmoqlarida bajarilgan.

Agar do'mbira dutor cholg'usining asosini tashkil etgan bo'lsa, dutor ta'sirida hozirgi kavkaz xalqlari va turklarda mashhur bo'lgan «soz» cholg'usi dunyoga kelgan, deb taxmin qilish mumkin. Chunki, dutorning metall torlar tortilgan qoraqalpoq dutori va turkman dutorlari keyinchalik g'arbgacha tomon siljib metall torlarda mezrob vositasida tovush hosil qilish uslubidagi «soz»larning dunyoga kelishiga sabab bo'lgan, deyishga asos bor. Qolaversa, kavkaz xalqlarida (Dog'istonda) foydalaniladigan «soz» o'z ko'rinishi bilan dutor cholg'usining kattalashtirilgan nusxasiga o'xshab ketadi.

Do'mbira cholg'usining muhim xususiyatlaridan biri shundaki, qo'shiq ijrochisi usulni doimo sezib turishi uchun aksariyat hollarda talab etiladigan urma cholg'u (doyra) ishtirokidan xalos qila oladi. Boshqacha qilib aytganda, do'mbirada quyning o'zini chalish qatorida usulni ham qo'shib ijro etib ketaverish imkoniyati bor.

Do'mbira asosan o'rik (zardoli), pista, archa, tut, tol, olmurt (nok) daraxtlarining yog'ochidan tayyorlanadi. Do'mbiraning aniq o'lchamlari yo'q. U aksariyat hollarda mahalliy ustalar tomonidan tayyorlanganligi, bundan tashqari buyurtma beruvchining bo'yi-basti, istagi inobatga olingani munosabati bilanturli kattalikda tayyorlanib kelinadi. Xalq baxshilari Shomurod Tog'ayev, Shoberdi Boltayev va surxondaryolik do'mbira ustasi Shafoat boboning fikricha eng sadosi zo'r do'mbiralar olmurt (nok) daraxtining yog'ochidan bo'lar ekan. Hozirda do'mbiraga tortiladigan plastik torlar o'rnida avval echki ichagidan eshilgan tor ishlatilgan. Yoshi ulug' do'mbira ijrochilari va baxshilar bergan ma'lumotlarga ko'ra qadimda eng yaxshi tor sifatida «chumchuq pay» torlar ishlatilgan va ular

haqiqatan ham chumchuqning oyogʻidagi pay qismidan eshilgan. Hozirda bunday torlarni eshib tayyorlash texnologiyasi unutilgan.

Doʻmbira cholgʻusi boshqa folklor cholgʻulariga nisbatan koʻproq oʻrganilgan va hatto unda ijro etilgan kuylar notalashtirilgan. Musiqashunos olim F.Karomatovning 1962 yilda nashr etilgan «Dombira musiqasi» kitobi toʻliq mazkur cholgʻuga bagʻishlangan.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar

Savollar:

1. Xalq cholgʻu orkestrlarida qaysi milliy cholgʻular juda kam qoʻllaniladi?
2. Uygʻurlarda “qalun”, armanlarda “kanon”, slavyanlarda “gusli”, yaponlarda “kato” deb ataladigan asbobning oʻzbek tilida nomlanishi qanday?
3. Chalinganda faqat birinchi tordan foydalanilib, qolganlari qoʻshimcha sado olish uchun xizmat qiladigan cholgʻu qaysi?
4. Qobuz qirgʻizlarda qanday nomlanadi?
5. “bamm”, “maslas”, “masna”, “zir”, “hodd”, “muxtalif” kabi torlar qaysi cholgʻuda muqaddam nomlangan?
6. Hozirda ansambl va orkestrlarda ishlatiladigan folklor cholgʻulari qaysilar?

Topshiriqlar:

1. Xalq cholgʻu orkestrlarida kam qoʻllaniladigan milliy cholgʻular toʻgʻrisida qoʻshimcha maʼlumotlar toʻplang.
2. Ustalar tomonidan tayyorlangan biror sodda (chanqoʻbiz, sopol nay, sibizgʻa yoki boshqa) cholgʻuni olib uning diapazoni va sozlanishini aniqlang.
3. Xalq kuylaridan birortasini xalq cholgʻu orkestrlarida kam qoʻllaniladigan biror milliy cholgʻu ijrosiga moslashtiring.
4. Internet orqali dunyo etnik cholgʻularini oʻrganing va ularni oʻzbek cholgʻulari bilan taqqoslab koʻring.

UNUTILGAN MUSIQA CHOLG‘ULARINI TIKLASH VA YANGI CHOLG‘ULARNI IXTIRO QILISH TAJRIBALARI

Musiqqa cholg‘ulari ustalari, ya’ni sozgarlar doimo turli tajribalarga qo‘l urib cholg‘ularni mukammallashtirish, ijro imkoniyatini yanada kengaytirish, sadosini yaxshilash, ko‘rinishini takomillashtirish, turli bezaklar bilan bezashga harakat qilib kelganlar. Shu bilan bir qatorda ba’zi sozgarlar ma’lum muddat iste’molda bo‘lib keyinchalik unutilgan cholg‘ularni qayta tiklash va ularga yangidan hayot bag‘ishlash yo‘lidan ham borib, ma’lum muvaffaqiyatlarga erishgan ham.

Ana shunday musiqqa cholg‘ulariga qayta hayot bag‘ishlab, musiqiy hayotimizga kirib kelishi va o‘z o‘rnini topishida mehnat qilib kelayotgan andijonlik usta Abdumalik Madraimovning olib borgan tajribalari va erishgan natijalari haqidagi ma’lumot beramiz.

Uzoq izlanishlar, nodir meros sifatida bizgacha yetib kelgan qo‘lyozmalar hamda ular asosida chop etilgan kitoblarni tahlil etish, ushbu manbalardagi miniatyuralarda tasvirlangan mumtoz o‘zbek cholg‘ularining shakl-shamoyillarini o‘rganish natijasida Temuriylar davriga mansub mumtoz o‘zbek cholg‘u sozlarining dastlabki 6 ta namunasi tiklandi. Bu mumtoz cholg‘ularga «G‘ijjaki Boburiy», «Qo‘shyor», «Xushnavo», «Dilrabo», «Dilnavo» va «Meros» deb nom qo‘yildi.

«**QO‘SHTOR**» miniatyuralarda tasvirlangan sozlarga o‘xshatib 1985 yili ilk marta o‘yma dutor yasalgan edi. Ushbu sozni yanada takomillashtirish natijasida yangi mumtoz o‘zbek cholg‘usi «Qo‘shyor» dunyoga keldi. O‘sha vaqtda yaratilgan «Qo‘shyor»ning ko‘rinishi tarixiy manbalardagi tasvirlardan olingan bo‘lib, bu cholg‘uning dutordan farqi uning shakli, shuningdek, yaxlit yog‘ochdan ishlanganligi, tovush tembri, ohangining yoqimli ekanligidadir.


Cholg‘uning tovush oralig‘ida ham dutordan farq mavjud bo‘lib, bu soz ko‘proq an’anaviy milliy maqom kuylarini ijro etishga mo‘ljallangan.

Cholgʻuning tarkibiy boʻlaklari - ikki dona quloq, suyakdan tayyorlangan shayton xarrak, dasta, kosaxona, kosaxona qopqogʻi, dastaga sadafdan ishlangan bezaklar, xarrak, ipakdan eshilgan 2 ta tordan iborat.

Cholgʻuning umumiy uzunligi 1470 *mm*. Uning tovush oraligʻi (menzurasi) 950 *mm*. Odatda cholgʻuning tovush oraligʻi (diapazoni) yuqoridagi shayton xarrak hamda katta xarraklar oraligʻi bilan oʻlchanadi va pardalarning aniq joylashuvini taʼminlashda hisob-kitobni taqozo etadi. Bu joylashuv holati takomillashgan cholgʻu bilan anʼanaviy cholgʻularda oʻzaro farqlanadi. Qoʻshtorning diapazoni kichik oktava *sol* notasidan ikkinchi oktava *lyagacha*. Mazkur cholgʻuning ikkita tori boʻlib, ularning yoʻgʻoni katta oktava *sol* yoki *lya* tovushiga, ingichkasi esa kichik oktava *re* tovushiga sozlanadi. Ijro etiladigan kuyning mazmuniga qarab boshqacharoq sozlash ham mumkin boʻladi. Qoʻshtorda foydalaniladigan torlar dutor torlaridan bir necha qatim yoʻgʻonroq boʻladi. Cholgʻuda hosil qilinadigan tovush nota chizigʻida yozilganidan 1 oktava past eshitiladi.



Qoʻshtor cholgʻusining sozlanishi quyidagicha:



GʻIJJAKI BOBURIY cholgʻusiga kamonli va chertib chalinadigan cholgʻularning miniatyura asarlaridagi tasviri asos qilib olingan. Mazkur cholgʻu IX-XVI asrlarda qoʻllangan sozlar turkumiga kiradi. U haqidagi ayrim maʼlumotlar Temuriylar sulolasiga mansub boʻlmish Boburiylar davridan bizgacha yetib kelgan baʼzi hujjatlarda oʻz aksini topgan. Bu shaklini yaratishda tarixiy rubob va gʻijjak cholgʻularining miniatyuradagi tasvirlari asos boʻlib xizmat qilgan. Hozirgacha mazkur cholgʻuning barcha talablarga toʻla javob beruvchi uch xil nusxasi (varianti) yaratildi hamda barcha sinovlardan muvaffaqiyatli oʻtdi. Uning birinchi

o'yma nusxasi 1985-86 yillari, 1991 yili yanada takomillashgan ikkinchi nusxasi yaratildi va Andijonda bo'lib o'tgan san'atkorlar va san'at shinavandalarining katta yig'ilishida «G'ijjaki Boburiy» deb nom berildi.

Uning sinovida tovushning jarangdorligi, tozaligi, yoqimli, yumshoq, mungli va hamohangligiga katta e'tibor berildi. 1994 yilda esa cholg'uning bo'g'iz qismiga ba'zi o'zgartirishlar kiritildi.

Yuqoridagi tasvirda sinovdan o'tkazilgan «G'ijjaki Boburiy»ning takomillashgan 3-nusxasi aks ettirilgan (sozni tayyorlagan ustalar Abdumalik, Abdurahmon va Sardorbek Madraimovlar).

Kosaxona, qobirg'a va qobirg'a qoplamasi, burchak qoplama, orqa qoplama, bo'g'iz, xarrak, shayton xarrak, sim tortqich, osma to'sin, ustun, tugmacha, quloqlar, dasta, dasta qoplamasi, torlar uning tarkibiy bo'laklaridir.



«G'ijjaki Boburiy»ning umumiy uzunligi 680 mm. Uning tovush oralig'i (menzura-kichik xarrak va katta xarraklar oralig'ining o'lchami) 330 mm.. Diapazoni kichik oktava *sol* notasidan uchinchi oktava *lya*, *si* notalarigacha.

1. Birinchi tori ikkinchi oktava *mi*,
2. Ikkinchi tori birinchi oktava *lya*,
3. Uchinchi tor birinchi oktava *re*,
4. To'rtinchi tori kichik oktava *sol* tovushiga sozlanadi.

1 – tori

2 – tori

3 – tori

4 – tori



Cholg'u kvarta oralig'ida sozlanganda uning diapazoni kichik oktava *lya* notasidan uchinchi oktava *si* notasigacha bo'ladi.

Kvarta oralig'ida sozlanganda:

1. Birinchi tori ikkinchi oktava *do*,

2. Ikkinchi tori birinchi oktava *lya*,
3. Uchinchi tor birinchi oktava *re*,
4. To'rtinchi tori kichik oktava *lya* tovushiga sozlanadi.



Mumtoz cholg'ularning takomillashgan, barcha kuylarni ijro etishga qulay bo'lgan ikki nusxasi 1995 yilning dekabri - 1996 yilning yanvarida takomillashtirilib, yakunlandi. Bu yangi cholg'ularni biz «Dilrabo» va «Dilnavo» deb nomladik. Sozlarning shakl-shamoyillari an'anaviy va takomillashgan turlari suratda berilgan.



«Dilrabo» cholg'usining takomillashgan nusxasi

«**DILRABO**» cholg'usi 6 dona quloq, shayton xarrak, xarrak, pardalar (latundan yoki leskadan bog'langan), shox, dasta, dasta qoplamasi, kosaxona, qopqoq, osma to'sin, orqa qoplama, pastki xarrak, tashqi orqa qoplama, tugmacha, qovurg'a qoplamasidan iborat bo'ladi.

1 torga qo'shaloq 21 *mm* metall sim taqiladi, 2 qo'shaloq toriga 25 *mm* metall sim taqiladi, 3 qo'shaloq torning birisiga 21 *mm* metall torning ustidan mis sim o'ralib, ikkinchisiga 21 torning o'zi taqiladi.

«Dilrabo»ning uzunligi 1080 *mm*. Cholg'uning tovush oralig'i (menzurasi) esa 730 *mm*. Uning diapazoni kichik oktava *lya* yoki *sidan* uchinchi oktava *lya* tovushigacha.

Cholg'u torlarining sozlanishi quyidagicha:

- 3- tori kichik oktava *lya* yoki *si* notasiga;
- 2- tori *mi* birinchi oktavaga;

1- tori *lya* birinchi oktavaga sozlanadi va barcha torlarning sozi bir oktava past eshitiladi (pardalarga leska bog‘langan).

«Dilrabo» cholg‘usining tovush oralig‘i (menzurasi) 810 *mm* bo‘lgan nusxasi uning takomillashgan turi bo‘lib, mumtoz va zamonaviy musiqa asarlarini chalish uchun qulay yaratilgan. Tovush oralig‘i kichik oktava *lya* yoki *si* tovushidan uchinchi oktava *fa* notasigacha. Torlarining sozlanishi yuqoridagi cholg‘u bilan bir xil.

Tovush oralig‘i quyidagicha:



«**DILNAVO**» cholg‘usi «Dilrabo»dan tovushlarining mungliligi, yo‘g‘on, yumshoqligi hamda tovush oraliqlarining kengayishi, ansamllarda o‘zgacha pastki tebranishlar sadosi bilan farqlanadi. Bu cholg‘u faqat ansambllardagina foydalanilmasdan, ko‘p ovozli orkestrlarda hamda yakkaxon sifatida mumtoz maqom asarlari, bastakorlar tomonidan yaratilgan zamonaviy kuylar shuningdek, jahon xalqlari musiqalarini ham ijro etish imkoniyatiga ega.

«Dilnavo» cholg‘usining umumiy uzunligi 1130 *mm*. Uning tovush oralig‘i (menzurasi) 810 *mm*. Tovush diapazoni kichik oktava *re* notasidan ikkinchi oktava *sol diyez* yoki *fa diyez* notasigacha. Cholg‘uning 3- tori kichik oktava *re*, 2- tori kichik oktava *sol*, 1- tori birinchi oktava *do* tovushlariga sozlanadi. Yozilishiga nisbatan bir oktava past eshitiladi.



«Dilnavo»ning tovush oralig‘i (diapazon) quyidagicha:



Torlarining sozlanishi



«Dilnavo» pardalarida tovushlarning joylashuvi

1 – tor 2 – tor 3 – tor



«**HUSHNAVO**» – tarixiy changning bugungi kundagi yangi yaratilgan nusxasi boʻlib, tabarruk oʻtmishimizning bizga qoldirgan juda katta boyliklaridan biri sifatida namoyon boʻladi. Cholgʻuning asl nusxasining andazasi Temuriylar sulolasi yashagan va hukmronlik qilgan vaqtlarga borib taqaladi. Tarixiy manbalarda yozilishicha, mazkur cholgʻu xonaki bazmlarda koʻproq ayollar tomonidan chalingan. Miniatyura asarlaridagi tasvirlarda ham bu holat oʻz ifodasini topgan. Changning tarixiy manbalarda tasvirlari borligi sozni tiklash borasida qoʻl keldi. Dastlab cholgʻuning asl nusxasiga oʻxshagan bir necha turlari tayyorlandi, ammo ularni hozirgi kunning talablariga javob bera oladigan sadolantirish imkoni boʻlmadi. 1994 yilning oktabr oylarida sozning yangi kosaxonasi tayyorlandi. Kosaxonani sozga yopishtirish ancha mushkul koʻchdi. Shuning uchun yana boshqa kosaxona chizmalari yaratildi, oxir-oqibatda uning hozirgi koʻrinishdagi holati bunyod boʻldi. Cholgʻuning torlari oldiniga sunʼiy toladan tortildi, ammo bu torlar talabga javob bermagani bois keyinchalik temir simlardan foydalanildi. Unga ayrim torlarni yarim ton yoki bir tongacha tushirib yoki koʻtarilib, sozlash moslamalari tayyorlandi va sinovdan oʻtkazildi. Qonun cholgʻusida ishlatiladigan bunday moslama cholgʻuchiga kuy chalinayotgan davrda bemalol kuyning



tonalligini o'zgartirish imkoniyatlarini beradi. Cholg'uning 1995 yilda yaratilgan yangi turini milliy ansambllarda, yakka ijrochilikda, shuningdek ko'p ovozli orkestrlarda ham bimalol qo'llash imkoniyatlari tug'ildi. «Hushnavo»ning bu nusxasi barcha iqlimiy sharoitlarda ham sozining o'zgarmasligi bilan alohida ahamiyatga egadir.

«Hushnavo» cholg'usining tovush oralig'i (diapazoni) kichik oktava *do* tovushidan uchinchi oktava *re* tovushigachadir.




«**MEROS**» cholg'usining shaklu shamoyili Alisher Navoiy asarlariga chizilgan miniatyuralardagi tasvirlardan olingan. Xususan, «Bazmda» deb nomlangan miniatyurada sozanda qo'lida tasvirlangan cholg'u sozgarlar uchun asos bo'lgan. 1993 yili uning chizmasi yaratilib, 1995 yilda uning birinchi va ikkinchi nusxalari tayyorlanib, sinovdan o'tkazildi. «Meros»ning dastasida pardalar yo'q, mizrob (plektor) bilan tirnab chalinadi. Tovushining mungliligi bilan tarixiy sozlar sadosini beradi. Unda hosil qilinadigan tovushlarining o'ziga xosligi, salobati va boshqa cholg'ularda takrorlanmasligi bois uni aslan tarixiy, shaklan yangi musiqa cholg'usi deyishga asos bo'la oladi. Unda ham maqom kuylarini, ham zamonaviy bastakorlar asarlarini bimalol ijro etish imkoniyati mavjud. Xalqaro Bobur jamg'armasi homiyligida o'tkazilgan iqtidorli yoshlar ko'rik-tanlovida Abdurahmon Madraimov «Meros» cholg'usi bilan ishtirok etib sovrindor bo'ldi.




Cholg'uning umumiy uzunligi 1060 mm, uning tovush oralig'i (menzuras) 650 mm, diapazoni katta oktava *re* tovushidan birinchi oktava *re* tovushigacha. Uning birinchi tori kichik oktava *fa*, ikkinchi tori kichik oktava *do*, uchinchi tori

katta oktava *sol*, to‘rtinchi tori katta oktava *re* tovushlariga sozlanadi. U sozlanishidan bir oktava past eshitiladi.

Cholg‘uning tovush diapazoni quyidagicha:



Sozanishi:



Cholg‘uning torlarida tovushlarning joylashuvi:

1 – tor

2 – tor

3 – tor

4 – tor



«Meros» cholg‘usining hamma to‘rtta tori juft bo‘lib taqiladi va birinchi tori 0,90 *mm*, ikkinchi tori 0,90 *mm*-0,95 *mm*, uchinchi tori 1,90 *mm*, to‘rtinchi tori 1,90 *mm*.li torga mis va ipak tola aralashgan holatda o‘ralgan 2,05 *mm* li torlardan iborat.

MANZUR - yangi musiqiy cholg‘u hisoblanadi. U tanbur bilan tor cholg‘ulari oralig‘idagi tovush sadosiga ega bo‘lib, 1989 yilda toshkentlik sozgar Muhammadnazir Yunusov tomonidan tajriba tariqasida yaratilgan. Sozandalar o‘rtasida juda keng tarqalmagan bo‘lsada, O‘lmas Rasulov, Abduhamid Mirhamidov tomonidan ijro etib O‘zbekiston Radiosining oltin fondiga yozdirilgan yozuvlardan tanbur bilan ozarbayjon torining o‘rtasida yaratilganligini anglash mumkin. Manzurni chalishda ishlatiladigan mizrob ham o‘ziga xos uslubda plastik tordan tayyorlanadi. Uning tovush tembri juda past bo‘lib, sozandalar ansamblida foydalanish imkoniyati chegaralangan. Shuning uchun ham bu cholg‘udan

aksariyat hollarda musiqiy yozuvlar paytida, ovoz kuchaytirish moslamalari bor joyda foydalaniladi. Cholgʻuning tovush qatori xromatik tarzda, bogʻlama pardalar bilan belgilangan. Manzurning birinchi juft torlari kichik oktava sol tovushiga, ikkinchi torlari kichik oktava re, uchinchi torlari esa katta oktava lya tovushiga sozlanadi. Boshqacha qilib aytganda, manzur cholgʻusi qashqar rubobidan bir ton past sozlanadi. Unda ijro etish texnikasi qashqar rubobi va ozarbayjon toriga yaqin boʻlib, manzur torlarining juda tarang tortilmaganligi unda, pardalarni ezish hisobiga, chuqurroq nolalarni hosil qilish imkonini beradi.

Sanʼatshunoslik doktori, professor Abdumannon Nazarov bergan maʼlumotlarga koʻra qadimda biz yashab turgan zaminda qoʻllanilgan va keyinchalik isteʼmoldan chiqqan ancha-muncha musiqa cholgʻulari mavjud ekan. Ularning maʼlum qismi quyidagilardir:

Yatugʻon - qonunsimon, koʻp torli cholgʻu. U goʻyo yotqizib qoʻyilgan qonunni eslatadi.

Pipa - hozirda sharq xalqlari, xususan Xitoyda keng tarqalgan cholgʻu. Bu cholgʻu aslida rud, ud, barbad nomlari bilan ataladigan ud cholgʻusining ladli turidir.

Shohrud - qonun va changga oʻxshash koʻp torli cholgʻu.

Musiqor -koʻp naychalar yonma-yon joylashtirilgan Pan fleytasi.

Burgʻu - hayvonlarning uzun shoxidan yasalgan damli cholgʻu. Burgʻusimon cholgʻular ruslarda ham uchraydi. Ular turli kattalikdagi shoxlardan foydalanib turli tovush balandligi va tembriga ega cholgʻu oilasini ham yaratganlar.

Qiroq - kamonli torli cholgʻu.

Nauba- dovul va nogʻoraga oʻxshash urma zarbli cholgʻu.

Jalojil - shiqildoq. Yevropa xalqlarida ishlatiladigan buben cholgʻusiga oʻxshash. Unda dumaloq xolga keltirilgan qasqonga teri tortilib, qasqonning ichkari tomoniga hiqildoqlar osiladi.

Chindovul - xitoy dovuli. Chindovulni tuvak qismi metallardan ham yasalgan.

Daf - hozirgi doyraning turlaridan biri.

Ruhafzo - torli, mezrob bilan chalinadigan cholgʻu.

Tunbak - Eron va Hindistonda ishlatiladigan urma zarbli cholgʻu. Bu cholgʻular bilan bir qatorda Qurʼoni Karimda nomlari tilga olingan - Nafir (damli cholgʻu), Noqur (zarbli cholgʻu), Safir (damli cholgʻu)lar ham qadimda otabobolarimiz tomonidan ishlatilgan degan fikrlar mavjud.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar

Savollar:

1. Unitilgan musiqa choʻlgʻularini tiklayotgan va yangi cholgʻularni ixtiro qilayotgan ustalardan kimlarni bilasiz?
2. Dutor bilan qoʻshtor cholgʻusining farqi nimalarda koʻrinadi?
3. Qayta tiklangan cholgʻuga nima uchun “Gʻijjaki Boburiy” deb nom berilgan?
4. “Meros” cholgʻusi qanday ijro etiladi?
5. Qadimda qoʻllanilgan va keyinchalik isteʼmoldan chiqqan musiqa cholgʻularni sanab bera olasizmi?
6. «Hushnavo» cholgʻusi qanday cholgʻu?

Topshiriqlar:

1. Qadimda qoʻllanilgan va keyinchalik isteʼmoldan chiqqan musiqa cholgʻular hozirda qaysi ustalar tomonidan tayyorlanayotganligini aniqlang.

2. Boburiylar davrida boʻlib, miniatyuralardagi tasvirlar orqali tiklangan cholgʻularni hozirgi milliy cholgʻular bilan solishtirib koʻring.
3. Usta Abdumalik Madraimovning olib borgan tajribalari va erishgan natijalari haqida yangi maʼlumotlar toʻplang.
4. Mazkur cholgʻularda ijro etilgan audio yozuvlarni eshitib koʻring.

CHOLG‘U JAMOALARI

Ansambl (fransuzcha ensemble – birgalikda, uyg‘unlik) ma’nosini bildiradi. Vokal yoki cholg‘u musiqasi asarini bir necha ijrochi tomonidan ijro etilishi ansambl deyilib ular ijrochilar soniga qarab turlicha ataladi. Agar ikki ijrochi uchun bo‘lsa duet, uch ijrochi - trio, to‘rt ijrochi – kvartet, besh ijrochi – kvintet... bazida orkestrning kichraytirilgan jamoasiga ham ansamb iborasi qo‘llaniladi. Bundan tashqari bir cholg‘udan tuzilgan (qashqar rubobi, doyra, chang va x.z.) yoki bir cholg‘u oilasidan (dutor oilasi yoki g‘ijjak oilasidan) tashkil topgan, aralash va an’anaviy cholg‘ularidan tarkib topgan ansambllar ham mavjud. Bir ijrochi o‘zi biror cholg‘uda chalib ashula aytishi, ovoz bilan biror cholg‘uning jo‘rligi, jo‘rnavezlik ham ansambl deyiladi. Cholg‘u ansambllarida ijro etiladigan musiqa asarining xususiyatiga ko‘ra unison ansambl yoki ko‘p ovozli ansambl bo‘ladi. Unison ansambllarda bir xil balandlikdagi tovush bir vaqtda ijro etilsa ko‘p ovozli ansamblda har-xil balandlikdagi tovushlar bir vaqtda ijro etiladi. O‘zbek milliy cholg‘ulari rang-barangligi bois turli tarkibdagi ansambllar tuzish imkoniyati mavjud. Shu bois ansambl uchun repertuar tanlaganda ansambldagi mavjud cholg‘ular va cholg‘u ijrochilarining ijro mahoratini hisobga olgan holda moslashtirish va cholg‘ulashtirishda alohida e’tibor berish maqsadga muvofiq. Tanlangan asar ansambl sozandalarining musiqiy-nazariy bilimlarini, ijrochilik mahoratlarini oshirish, ko‘rsatish bilan birga tinglovchiga ham ma’naviy ozuqa berib ma’qul bo‘lishi shart.

An’anaviy cholg‘u ansambllari tarkibiga doyra, nay, qo‘shnay, g‘ijjak, sato, dator, tanbur, chang, qonun, ud, qashqar rubobi, afg‘on rubobi kabi milliy cholg‘ular kiradi. Milliy ansambllardan yana biri surnay, karnay, nog‘ora va doyralardan tuzilgan ansambl bo‘lib, xalqimiz qadimdan to hozirgi kunga qadar to‘y-tomosha, sayl va katta yig‘inlarda keng foydalanib kelishgan.

Estrada san’ati hozirgi kunda keng tarqalgan san’at turlaridan biridir. Estrada deganda ko‘pchilikning ko‘z o‘ngida estrada qo‘shiqchiligi gavdalanadi. Estrada qo‘shiqchiligidan tashqari estrada ansambl va estrada orkestr jamoalari ham

mavjud. Estrada orkestrida asosan estrada va jaz musiqalari ijro etiladi. Estrada orkestri torli, damli, klavishli, zarbli va elektromusika cholg'ularidan tashkil topadi.

Estrada simfonik orkestrida esa katta jamoa birlashgan bo'lib unda zarbli cholg'ular, fortepiano, samsintizator, gitara, bas gitara, truba, trombon, saksofon, simfonik orkestrining kamoncha bilan chalinadigan cholg'u cholg'ular guruhi, yog'och-puflab chalinadigan cholg'u cholg'ular guruhi hamda litavra, arfa va boshqa cholg'ular kiradi.

Orkestr (yun. orchestra – yunon teatrida sahnaning old maydonchasi) – turli musiqa cholg'u cholg'ularini chaluvchilardan tuzilgan va ular uchun yaratilgan asarlarni birgalikda ijro etuvchi sozandalar jamoasi. Orkestr kamer ansambldan dirijyor tomonidan boshqarilishi va ba'zi partiyalar yakka sozlarda emas, balki sozandalar guruhi tomonidan ijro etilishi bilan farqlanadi. Sozlarning turlari va tuzilishiga orkestrlar simfonik orkestr, xalq cholg'u cholg'ulari orkestri, kamer orkestr, puflamalar orkestri, torli cholg'ular orkestri, estrada orkestri, jaz orkestri va boshqa turlarga bo'linadi. O'zbekistonda orkestrlarning barcha turlari mavjud.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar

Savollar:

1. Ansambl so'zining ma'nosi nimani anglatadi?
2. Ansamblning qanday turlari mavjud?
3. An'anaviy cholg'u ansamblari tarkibiga qaysi cholg'ular kiradi?
4. Orkestr so'zining ma'nosi?
5. Orkestrning qaysi turlarini bilasiz?
6. Estrada orkestri va estrada simfonik orkestrlarining farqi nimada?

Topshiriqlar:

1. Ansambl partiturasini bilan tanishib undagi cholg'ularning diapazonini aniqlang.
2. Orkestr ijro etgan asarni tinglab uning partiturasini taxlil etib ko'ring.
3. Kichik musiqa asarini kichik ansambl ijrosiga moslashtirib ko'ring.
4. Internetdan foydalanib cholg'u jamoalari va ularning turlarini, ularning partituralarini o'rganing.

CHOLG'U ORKESTRINING TO'LIQ TARKIBI UCHUN CHOLG'ULASHTIRISH

Partitura (it. partitura – ajratish, taqsimlash) – orkestr, xor, kamer ansambl va boshqalar uchun mo'ljallangan ko'p ovozli musiqa asarining har bir ovoz yoki cholg'u partiyasi ko'rsatilgan nota yozuvi. Ovozlarining bir vaqtda yangrashidagi harakat yo'nalishini oson anglash uchun unda nota belgilari satrma-satr, ustma-ust yoziladi. Partiturani vertikal yo'nalishda o'qiganda tovush (akkord)larning garmonik birligi, gorizontaal (chapdan o'ngga) o'qiganda esa har bir nota yo'lidagi kuy rivoji ifodalanadi. Partiturada ovozlar muayyan tartibda, baland-pastligiga ko'ra, yuqoridan pastga qarab joylashtiriladi. Barcha ovozlar, odatda, italyancha, nemischa (ba'zan, fransuzcha va b.) nomlar bilan ko'rsatiladi. Dastlab xor partituralari (16-asr), keyinchalik cholg'u, vokal-cholg'u ansambllar va orkestr partituralari rivoj topdi. Hozirgi ko'rinishdagi partitura 19 asr o'rtalarida, kompozitorlik ijodiyoti va dirijyorlik san'ati rivoji natijasida yuzaga kelgan.

Cholg'ulashtirish – musiqiy ijod turi; ansambl yoki orkestr (orkestrlash) tarkibi va ijrosiga mo'ljallab moslashtirish. Cholg'ulashtirish jarayonida kompozitor cholg'ular xususiyati va ifodaviy imkoniyatlari, shuningdek asarning badiiy mazmunidan kelib chiqqan holda ovoz yo'llarining qaysi sozda ijro etilishini belgilaydi. Bir asarni har kim o'z bilmidan kelib chiqib, kuyni xis qilib unga ijodiy yondoshib har-xil cholg'ulashtirishi mumkin. Cholg'ulashtirishda jamoaning ijrochilik qobiliyatlari darajasi, jamoa tarkibi, cholg'ular turi, soni, guruhlarini

inobatga olish talab etiladi. Havaskor jamoaga cholg'ulashtirishda jamoadagi tayyorgarligi bor ijrochiga tayanib, kuy ohangi va muhim joylar unga muljallanadi.

Partituralar turlari.

Cholg'u partiyasining ko'p ovozli musiqa asarida nota yozuvi bilan ifodalanishi partitura deyiladi.

Partituradi har bir cholg'u partiyasi alohida nota yo'liga joylashadi. Nota yo'lining ko'pligi tez o'qib olishni qiyinlashtiradi. Shu sababli partiturada akkolada deb ataluvchi qo'shimcha chiziqqa birlashtirilgan cholg'u cholg'ulari gruppalariga bo'linadi. Partiturada takt chizig'i tutash holda qo'yilmasdan, balki cholg'u cholg'ulari gruppasiga qarab tegishli joyiga qo'yiladi. Partitura birinchi betining chap tomonida nota yo'lining qarshisiga cholg'uning nomi qo'yiladi.

O'zbek xalq cholg'ulari orkestri partiturasida guruhlarining joylashish tartibi quyidagicha;

1. Puflama cholg'ular guruhi (kichik nay, nay, surnay, qo'shnay)
2. Urma torli cholg'ular guruhi (chang, qonun)
3. Mezrobli cholg'ular guruhi (prima rubobi, qashqar rubobi, afg'on rubobi, dutor, dutor bas, dutor kontrabas)
4. Urma zarbli cholg'ular guruhi (doyra, nog'ora, qayroq, safoil, litavra, kichik baraban, buben, uchburchak (treugolnik), va tarelka)
5. Kamonli cholg'ular guruhi (g'ijjak, g'ijjak alt, g'ijjak bas, g'ijjak kontrabas)

Simfonik orkestr partiturasida guruhlarining joylashish tartibi quyidagicha;

1. Yog'och-puflab chalinadigan cholg'u cholg'ular guruhi (kichik fleyta, fleyta, goboy, anliya surnayi, klarnet B, klarnet A, Klarnet bas, fagot, kontrafagot)
2. Mis-puflab chalinadigan cholg'u cholg'ular guruhi (Valtorna F, Truba B? Tenor trombon, tenor bastrombon, tuba)
3. Urib zarbli cholg'u cholg'ular guruhi (litavralar, ksilofon, qo'ng'iroq)
4. Torli-chertib chalinadigan va klavishli cholg'u cholg'ulari guruhi (fortepiano, chelesta, arfa)
5. Kamoncha bilan chalinadigan cholg'u cholg'ular guruhi (skripka, alt, violonchel, kontrabas)

Damli cholg'ular orkestrini tashkil topishi va rivojlanishi harbiy tarix bilan chambarchas bog'liqdir. Damli cholg'ular orkestridan, asosan harbiy maqsadlarda, ya'ni harbiy marosimlarga aloqador musiqalar ijro etilganda va harbiy qism hamda bo'linmalarining jangovor harakatlarida foydalanilgan. Damli cholg'ular orkestri boshqa orkestr jamoalaridan ijro uslubi va boshqa ko'p jihatlari bilan farq qiladi.

Damli cholg'ular orkestr partiturasida guruhlarining joylashish tartibi quyidagicha. Damli cholg'ular tarkibi to'rt guruhdan iborat.

1. Yog'ochli damlilar (kichik fleyta, fleyta, goboy, ingliz burg'usi (alt goboy), kichik klarnet, klarnetlar, bas klarnet fagotlar)
2. Xarakterli misli cholg'ular (valtornalar, trubalar, trombonlar)
3. Zarbli cholg'ular (ma'lum balandlikka ega bo'lgan: litavralar, ksilofon, qo'ng'iroqchalar (kolokolchik) vibrafon va b. Ma'lum balandlikka ega bo'lmagan: uchburchak (treugolnik), buben, kichik baraban, katta baraban, tarelkalar va b.)
4. Asosiy misli cholg'ular (kornetlar, altlar, tenorlar, bariton, baslar)

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar

Savollar:

1. Partitura so'zining ma'nosi nimani anglatadi?
2. Cholg'ulashtirish deganda nimani tushunasiz?
3. Moslashtirish, cholg'ulashtirish, qayta ishlash so'zlarining ma'nosini bilasizmi?
4. O'zbek xalq cholg'u orkestrining to'liq tarkibini yoddan aytib bera olasizmi?
5. Simfonik orkestr partiturasida guruhlarining joylashish tartibi qanday?
6. Damli cholg'ular orkestrida guruhlarining joylashish tartibi qanday?

Topshiriqlar:

1. Musiqa asarini o'zbek xalq cholg'ulari orkestri uchun cholg'ulashtirib ko'ring.
2. Simfonik orkestr va damli cholg'ular orkestr partiturasini o'rganing.
3. Orkestrlarda cholg'u guruhlari va ulardagi cholg'ularning partiturada aks ettirilishi qonuniyatlarni aniqlang.
4. Internetdan foydalanib turli orkestrlarning partituralari bilan tanishing.

F. Alimov musiqasi

A.Yusupova cholg'ulashtirgan

Moderato cantabile

124

SIMFONIK ORKESTR PARTITURASI

Piccola Ouverture Italiana

TIZIANO BEDETTI

Moderato (♩ = 104)

Flute 1

Flute 2

Oboe 1

Oboe 2

Clarinet in Bb 1

Clarinet in Bb 2

Bassoon 1

Bassoon 2

Horn in F 1

Horn in F 2

Trumpet in Bb 1

Trumpet in Bb 2

Tenor Trombone

Baritone Trombone

Bass Trombone

Tuba

Timpani

Percussion

Violin I

Violin II

Viola

Cello

Contrabass

DAMLI CHOLG'ULAR ORKESTR PARTITURASI

BAMBOLEO

Gipsy Kings

The musical score is for the song 'BAMBOLEO' by Gipsy Kings. It is written for a full orchestra and percussion ensemble. The score is in 2/4 time and features a key signature of one flat (B-flat). The instruments and their parts are as follows:

- Flute:** Plays a melodic line in the upper register.
- Clarinet -1:** Plays a melodic line in the upper register.
- Clarinet -2,3:** Plays a melodic line in the upper register.
- Alto Saxophone:** Plays a melodic line in the upper register.
- Tenor Saxophone:** Plays a melodic line in the upper register.
- Guitar:** Plays a melodic line in the upper register.
- Piano:** Plays a complex accompaniment in both the upper and lower registers.
- Trumpet -1:** Plays a melodic line in the upper register.
- Trumpet -2:** Plays a melodic line in the upper register.
- Trumpet -3:** Plays a melodic line in the upper register.
- Trombone -1,2:** Plays a melodic line in the lower register.
- Tenore, Baritone:** Plays a melodic line in the lower register.
- Tenore-2:** Plays a melodic line in the lower register.
- Tuba:** Plays a melodic line in the lower register.
- Bass Guitar:** Plays a melodic line in the lower register.
- Drum Set:** Provides the main rhythmic foundation.
- Bongos:** Provides a rhythmic accompaniment.
- Congas:** Provides a rhythmic accompaniment.
- Claves:** Provides a rhythmic accompaniment.
- Maracas:** Provides a rhythmic accompaniment.

GLOSSARIY

Musiqqa cholg'usi – musiqqa hosil qilishda foydalaniladigan barcha asboblari.

Cholg'ular tasnifi – musiqqa cholg'ularini muayyan uslubda guruhlarga bo'lish.

Xalqiy (tabiiy) cholg'u – inson ovozi.

Sun'iy cholg'ular - musiqqa hosil qilishda foydalaniladigan inson tomonidan yaratilgan moslamalar.

Damli cholg'ular – havo yordamida musiqqa tovushi hosil qilishga mo'ljallangan moslamalar.

Urma cholg'ular – qo'l yoki biror moslama bilan urish yordamida musiqiy ritm hosil qilishga mo'ljallangan (qattiq jismdan tayyorlangan) moslamalar.

Torli cholg'ular – torni tebratish orqali musiqqa tovushi hosil qilishga mo'ljallangan moslamalar.

Tilli damli cholg'ular – bir yoki ikki yoqlama tilni tebratish orqali musiqqa hosil qilinadigan damli cholg'ular.

Urma jarangli torli cholg'ular – tortilgan torni maxsus moslama vositasida urish orqali tovush hosil qiladigan musiqqa cholg'ulari.

Tirnama cholg'ular – tortilgan torlarni tirnash vositasida tovush hosil qiladigan musiqqa cholg'ulari.

Mezrobli (plektorli) cholg'ular – tortilgan torlarni maxsus moslama vositasida tirnash orqali tovush hosil qiladigan musiqqa cholg'ulari.

Kamonli cholg'ular – kamon (smichok) ni torga ishqalash vositasi tovush hosil qiladigan musiqqa cholg'ulari.

Cholg'u jamoasi – musiqqa cholg'ulari ijrochilaridan tashkil topgan jamoa.

Orkestr – musiqqa cholg'uchilarini birlashtirgan yirik jamoa.

Cholg'u ansambli – cholg'uchilardan tashkil topgan kichik jamoa.

Kamer orkestri, kamer ansambli – yopiq binoda ijro etishga mo'ljallangan cholg'u jamoalari.

Folklor cholg'ulari – oddiy xalq tomonidan tayyorlanib, o'z his-tuyg'usini ifodalashga xizmat qiladigan sodda musiqa cholg'ulari.

Ko'hna (qadimiy) cholg'ular – uzoq o'tmishdan boshlab insoniyatning hamrohi bo'lgan (ayrimlari unutilgan va ayrimlari shu kungacha iste'molda bo'lgan) cholg'ular.

Rekonstruksiya qilingan (qayta ishlangan) cholg'ular – ma'lum bir cholg'u asosida yangidan yaratilgan cholg'ular.

Takomillashtirilgan cholg'ular – muqaddam iste'molda bo'lib, keyinchalik ijro imkoniyatlari kengaytirilgan cholg'ular.

Qayta tiklangan cholg'ular – muqaddam iste'molda bo'lib, ma'lum davr unutilgan va keyinchalik yana qayta tiklangan cholg'ular.

An'anaviy cholg'ular – an'anaviy musiqa ijrochiligida foydalaniladigan cholg'ular.

Etnik cholg'ular – turli xalqlarga mansub musiqa cholg'ulari.

Cholg'u guruhi – orkestr yoki ansambl tarkibidagi bir turna mansub cholg'ularni birlashtirgan guruh.

Cholg'u oilasi – bitta cholg'u asosida yaratilgan cholg'ularning umumiy nomi (masalan, dutor oilasi).

TEST SAVOLLARI

№	Savollar	To‘g‘ri javob	Muqobil javob	Muqobil javob	Muqobil javob
1.	“Applikatura” nima?	*tegishli notalar ijrosida tegishli barmoqlardan foydalanish	notani cho‘zib ijro etish	notalarni uzib ijro etish	notalarni bitta barmoqda chalish uslubi
2.	Abu Nasr Farobiyning qaysi asarda keltirilgan jadvali diqqatga sazovor?	*Kitobul musiqiy al-kabir	Devonu lug‘otit turk	Devoni xikmati	Nux to‘foni
3.	Al Urmaviyning nota sistemasi qaysi cholg‘uga moslashgan edi?	*ud	ulug‘la	maqto	sato
4.	Al Farobiy dunyoviy ilmda qanday unvonlarga erishgan?	*Sharq Arastusi, Muallim-as-soniy	Muallimi olam	Dunyo muallimi	Buyuk mutafakkir
5.	Al Farobiyning musiqiy estetik qarashlarini kim davom ettirib yuqori pog‘onaga ko‘tardi?	*Abu Ali ibn Sino	Abu Rayxon Beruniy	K. Xo‘jandiy	M.Qoshg‘ariy
6.	Arablarning qo‘shnaysimon cholg‘usi qanday nomlanadi?	*maqruna	al ma‘raba	al ja‘m	makarena
7.	Arablarning eng qadimiy damli cholg‘usi qanday nomlangan?	*fir‘avn nayi	ney	xudolar ovozi	zurna
8.	Afg‘on rubobini yana qanday nomlashgan?	*buxoro rubobi	hind rubobi	rabobi turk	rebaba
9.	Afg‘on rubobining oilasida nechta cholg‘u yaratilgan edi?	*mavjud cholg‘u takomillashtirilgan xolos	ikkita	uchta	to‘rtta
10.	Bir ijrochi bir paytda ko‘povozli musiqani ijro etish imkoniyatini beradigan shotland cholg‘usi qaysi?	*volinka	marimba	xulusi	makarena
11.	Birinchi “Qashqar rubobi” darsligining	*F.Vasilev	Q.Oripov	Q.Usmonov	A.Boboxonov

	muallifini toping				
12.	Birinchi “Nay darsligi”ning muallifini toping	*M.Toirov	S.Kalonov	A.Abdurashidov	H.Jo‘rayev
13.	Birinchi “Chang darsligi”ning muallifini toping	*A.Odilov	R.Abdullayev	R.Ne‘matov	T.Xo‘jamberdiyev
14.	Boburiylar davriga xos qayta tiklangan musiqa cholg‘usi nomini ko‘rsating	*dilnavo	arg‘anun	qiytora	sab‘a
15.	Boburiylar davriga xos qayta tiklangan musiqa cholg‘usi nomini ko‘rsating	*qo‘shyor	arg‘anun	qiytora	sab‘a
16.	Buxoro Shashmaqomi kim tomonidan ilk bor notaga olingan?	*V.Uspenskiy	V.Belyayev	V.Mironov	Y.Rajabiy
17.	Gavay orollarida keng tarqalgan gitarasimon 4 torli cholg‘u qaysi?	*ukulel	kityara	mrimba	ekin
18.	Germaniya va O‘zbekistonda cholg‘u ijrochilarini tayyorlashdagi asosiy farq nimada?	*Germaniyada orkestr ijrochisi, O‘zbekistonda yakka ijrochi tayyorlashga qaratilganligida	Deyarli farqi yo‘q	Germaniyada 10 yoshgacha cholg‘u bilan shug‘ullanmaydi	Internatura mavjudligida
19.	Gitara cholg‘usi qaysi cholg‘udan paydo bo‘lgan?	*ud	qiytora	sitra	mandolina
20.	Goboy qaysi o‘zbek cholg‘usiga o‘xshash prinsipda ovoz hosil qiladi?	*surnay	nay	karnay	qo‘shnay
21.	Damli cholg‘ular guruhiga kiruvchi “tilli cholg‘u”ni toping	*sibizg‘a	nay	shullovuk	g‘ajir nay
22.	Damli cholg‘ular guruhiga kiruvchi “tilli cholg‘u”ni toping	*surnay	karnay	nay	shullovuk
23.	Damli cholg‘ular ularda tovush hosil qilish uslubiga ko‘ra necha turga bo‘linadi?	*2	3	4	5

24.	Doyra dastlab kimlar tomonidan foydalanilgan?	*shamanlarning	folbinlarning	tabiblarning	otinlarning
25.	Duduk qaysi xalqning milliy cholg'usi hisoblanadi?	*arman	ozarbayjon	turk	barcha Sharq xalqlarining
26.	Duduk ozarbayjonlarda qanday nomlanadi?	*balaban	duduk	zurna	nay
27.	Dutor oilasiga kiritiladigan cholg'ular soni nechta?	*oltita	beshta	to'rtta	yettita
28.	Dutor, tanbur kabi cholg'ular qaysi cholg'udan paydo bo'lgan?	*do'mbira	soz	rabob	nuzxa
29.	Dutorchilar ansamblining asoschisi kim?	*G'anijon Toshmatov	Zamira Suyunova	Zamira Raxmatullayeva	Orif Qosimov
30.	Do'mbira qaysi rus cholg'ularining "onasi" hisoblanadi?	*balalayka, domra	svirel, garmon	simbal, bayan	barcha torli cholg'ular
31.	Yozilganidan bir oktava past eshitaladigan cholg'uni ko'rsating	*dutor alt	chang	nay	rubob prima
32.	Yozilganidan bir oktava past eshitaladigan cholg'uni ko'rsating	*qashqar rubobi	nay	rubob prima	chang
33.	Yozilganidan bir oktava yuqori eshitaladigan cholg'uni ko'rsating	*nay pikkolo	rubob prima	nay	chang
34.	Ijro texnikasini o'stirish uchun chalinadigan mashq bu...	*etyud	mazurka	solo	barkarola
35.	Qadimda ud cholg'usi yana qanday nomlangan?	*barbad	qiytora	nuzxa	arg'anun
36.	Qaysi damli cholg'uda tovush cholg'u quvurini uzaytirish yoki qisqartirish orqali	*trombon	truba	tenor	klarnet

	o'zgartiriladi?				
37.	Qaysi cholg'u yog'och damli cholg'ularga mansub	*goboy	trombon	kornet	svirel
38.	Qayta ishlangan o'zbek milliy cholg'usini toping	*dutor bas	nay	surnay	g'ijjak
39.	Qashqar rubobini ommalashtirish va targ'ib etishda katta xizmat ko'rsatgan sozanda va bastakorni toping	*M.Mirzayev	E.Shukrullayev	F.Vasilev	A.Boboxonov
40.	Keyingi yillarda musiqa madaniyatimizga kirib kelgan cholg'uni ko'rsating	*soz	qo'shnay	sibizg'a	chanqo'biz
41.	Qirg'izlarning dutorsimon cholg'usi qanday nomlanadi?	*qomuz	qo'biz	duvtar	do'mbira
42.	Klarnet qaysi o'zbek cholg'usiga o'xshash prinsipda ovoz hosil qiladi?	*sibizg'a	nay	surnay	karnay
43.	Qozoqlarning dutorsimon cholg'usi qanday nomlanadi?	*dombira	domra	dutar	chertar
44.	Ksilofon qaysi Afrika cholg'usiga o'xshaydi?	*balo	soz	rabob	nuzxa
45.	Kugikli deb nomlanadigan rus cholg'usi nimaga o'xshaydi?	*pan fleytasiga	domraga	balalaykaga	svirelga
46.	Quyidagi cholg'ularning paydo bo'lish tartibini toping	*klavesin, klavikord, pianino, royal	klavesin, pianino, klavikord, royal	klavikord, klavesin, pianino, royal	royal, klavesin, klavikord, pianino
47.	Quyidagilar ichidan sozanda-bastakorni aniqlang	*G'anijon Toshmatov	Turg'un Alimatov	Mutal Burxonov	Toxir Rajabiy
48.	Quyidagilar ichidan xonanda, sozanda-bastakorni aniqlang	*Ahmadjon Dadayev	Toxir Rajabiy	Mutal Burxonov	Turg'un Alimatov

49.	Qo‘biz cholg‘usi qaysi cholg‘ularning paydo bo‘lishi uchun asos bo‘lgan?	*viola va undan paydo bo‘lgan cholg‘ularning	barcha kamonli cholg‘ularning	g‘ijjakning	satoning
50.	Ko‘p cholg‘ularda ijrochilik qobiliyati bor ijrochini qanday nomlashadi?	*multi-instrumentalist	multiprofi	mono-instrumental	frayer
51.	Mamlakatimiz hududida topilgan eng qadimiy cholg‘u qayerda saqlanadi?	*Samarqandda	Toshkentda	Urganchda	Quvada
52.	Mamlakatimiz hududida topilgan eng qadimiy cholg‘u nimadan yasalgan?	*suyakdan	sopoldan	metalldan	chinnidan
53.	Ma‘lum vaqt milliy musiqamizda iste‘moldan chiqib ketgan cholg‘uni toping	*qonun	sibizg‘a	chanqo‘biz	bulamon
54.	Mis damli cholg‘ularda tovush hosil qiluvchi qism qanday nomlanadi?	*mundshtuk	til	pristavka	naypachiq
55.	Musiqqa dastlab qaysi fan tarkibida o‘rganilgan?	Fizika	Falakiyot	*Matematika	Kimyo
56.	Musiqqa ilmda piri-ustoz maqomiga erishgan Sharq ayolini toping	*Malika Omonnisaxon	Nodirabegim	Zebuniso	Uvaysiy
57.	Musiqqa ilmda Sharqda “uchinchi ustoz” nomini kim olgan?	*Farobiy	Navoiy	Abu Ali ibn Sino	Jomiy
58.	Musiqqa cholg‘ularini vatandoshlarimizda n birinchi bo‘lib kim tasniflagan?	*Farobiy	Ptolomey	Pafigor	Suqrot
59.	Mo‘g‘ullarning qadimiy kamonli cholg‘usini toping	*morinxur	biva	kayagim	xulusi
60.	Navoiy davrida yashab ijod qilgan sozanda va musiqashunosni	*Pahlavon Muhammad	Pahlavon Mahmud	Sakkokiy	Behbudiy

	toping				
61.	Navoiy davrida yashab ijod qilgan shoir, olim va sozandani toping	*Lutfiy	Pahlavon Mahmud	Sakkokiy	Behbudiy
62.	Nima uchun “kamer” orkestrlari va ansambllari deyiladi?	*yopiq joyda ijroga mo‘ljallanganligi uchun	kamer musiqani ijro etganligi uchun	bir xil cholg‘udan tashkil etilganligi uchun	bir guruhga kiruvchi cholg‘ulardan tuzilganligi uchun
63.	Ozarbayjonlar g‘ijaksimon cholg‘uni qanday ataydi?	*kemancha	skripka	gidjak	kamon
64.	Pianino va royalning umumiy nomi qanday?	*fortepiano	pianino	klavesin	klavikord
65.	Rekonstruksiya uchramagan o‘zbek milliy cholg‘usini toping	*nay	chang	tanbur	g‘ijjak
66.	Sagat cholg‘usi orkestrda ishlatiladigan qaysi cholg‘uga o‘xshaydi?	*orkestr tarelkasiga	bubenga	skripkaga	chanqo‘bizga
67.	Sato va tanburning farqi nimada?	*ijro uslubida	torlar sonida	shaklida	nomlanishida
68.	Sibizg‘a nechta tilli cholg‘u?	*bir tilli	qo‘sh tilli	tilsiz	3 tilli
69.	Simfonik orkestr partiturasida “solo” qaysi guruhdan oldin yoziladi?	*torli	damli	zarbli	farqi yo‘q
70.	Simfonik orkestr partiturasida eng yuqorida qaysi gurux partiyalari yoziladi?	*yog‘och damli	mis damli	torli	urma
71.	Simfonik orkestr tarkibining kattaligi qaysi guruh cholg‘ularining soniga ko‘ra belgilanadi	*yog‘och damli	mis damli	torli	umumiy ijrochilar
72.	Simfonik orkestrda damli cholg‘ular nechta guruhga bo‘linadi?	*2 ta	3 ta	4 ta	1 ta

73.	Simfonik orkestrlarining guruhlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?	*damli, urma, torli	kamonli, torli, urma	mis damli, urma torli, urma zarbli, qo'shimcha	urma torli, urma zarbli, damli
74.	Simfonik orkestrning asosiy vazifasi...	*akademik musiqani ijro etishda	barcha xalqlar musiqasini ijro etishda	faqat nemis va italyan musiqasini targ'ib etishda	xalq musiqasini targ'ib etishda
75.	Simfonik orkestrning asosini qaysi guruh tashkil qiladi?	*torli	damli	urma-zarbli	mis damli
76.	Simfonik orkestrning mis damli cholg'ulari qaysi o'zbek cholg'usiga o'xshash prinsipda ovoz hosil qiladi?	*karnay	nay	surnay	qo'shnay
77.	Skripkasimon cholg'ular qaysi qadimiy cholg'udan paydo bo'lgan?	*viola	g'ijjak	rabob	violonchel
78.	Surnasimon cholg'ularda tovush hosil qiluvchi qism o'zbeklarda qanday nomlanadi?	*naypachoq	til	pristavka	mushtuk
79.	Surxondaryo va Qashqadaryoda keng tarqalgan cholg'u qaysi?	*do'mbira	dutor	qo'biz	g'ijjak
80.	Suyakdan yasaladigan musiqa cholg'usi qaysi?	*g'ajir nay	cho'pon nay	sapalak	chindovul
81.	Tabiiy yoki xalqiy cholg'u bu...	*inson ovozi	nay	ud	doyra
82.	Takomillashtirilgan o'zbek milliy cholg'usini toping	*qashqar rubobi	rubob prima	doyra	karnay
83.	Tanbur va tor asosida ixtiro qilingan yangi cholg'uning nomi nima?	*manzur	dilnur	tanbura	zangula
84.	Tanbur ijrosida o'ziga xos maktab yaratgan sozanda	*Turg'un Alimatov	Jo'rabek Saidaliyev	Orif Qosimov	Maxmud Yunusov

	kim?				
85.	Ud cholg'usi G'arbda qanday nomlanadi?	*lyutnya	al ud	sitra	gitara
86.	Ud cholg'usi Gretsiyada qaysi cholg'uning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan?	*buzuki	gitara	skripka	sitra
87.	Ud cholg'usi dastlab qaysi hududda paydo bo'lgan?	*Markaziy Osiyo	Arabiston	Turkiya	Ispaniya
88.	Ud cholg'usi Italiyada qaysi cholg'uning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan?	*mandolina	skripka	sitra	gitara
89.	Ud cholg'usining Xitoyda tarqalgan varianti qanday nomlanadi?	*pipa	biva	kayagim	xulusi
90.	Ud cholg'usining Yaponiyada tarqalgan varianti qanday nomlanadi?	*biva	kayagim	xulusi	pipa
91.	Usta Olim Komilov kim?	*doyra va chang ijrochisi, xoreograf	raqs san'atining asoschisi	qiziqchi va sozanda	eng birichi doyrachi
92.	O'zbek va qoraqalpoq dutorlarining eng asosiy farqlari nimada?	*grifining uzunligi va torlarining turli materiallardan ekanligida	ijro uslubida	yasaladigan xom ayosida	repertuarida
93.	O'zbek milliy damli cholg'usi qaysi?	*sibizg'a	chanqo'biz	qovoq soz	chindovul
94.	O'zbek milliy damli cholg'usini toping	*bulamon	chanqo'biz	qovoq soz	chindovul
95.	O'zbek musiqa ijodini to'plagan va notaga yozib olishda katta xizmat qilgan qaysi musiqashunoslarni bilasiz?	*V.A.Uspenskiy, YE.YE.Romanovski y, I.A.Akbarov	Abu Nasr Farobiy	Al Urmaviy	Al Buxoriy
96.	O'zbek musiqashunosligi olimi, mohir sozanda va xonanda,	* Y.Rajabiy	K. Normatov	M.Yusupov	I.A.Akbarov

	akademik unvoniga sazovor bo'lgan shaxs kim?				
97.	O'zbek xalq cholg'u orkestri tarkibidagi nechta cholg'u transpozitsiya qilinadi?	*oltita	beshta	to'rtta	yettita
98.	O'zbek chertma-tirnama cholg'usini toping	*do'mbira	g'ijjak	qashqar rubobi	dutor bas
99.	O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi unvonini olgan soz yasovchi usta kim?	*Toshkentlik Usta Usmon Zufarov	Namanganlik usta Ro'zmat Ismatov	Xorazmlik Matyusuf Xarratov	Toshkentlik usta Sirojiddin Muxitdinov
100.	O'rta Osiyo milliy cholg'ulari kolleksiyasini kim birinchi bo'lib to'plagan?	*Eyxgorn	Uspenskiy	Glier	Rajabiy
101.	Farobiy davrida eng keng tarqalgan cholg'u qaysi?	*ud	safoil	tanbur	do'mbira
102.	Farobiy musiqa cholg'ularini necha turga bo'lgan?	*2 turga	4 turga	3 turga	5 turga
103.	Farobiy ta'limotiga ko'ra sun'iy cholg'ularining eng mukammali...	*damli cholg'ular	torli cholg'ular	urma cholg'ular	kamonli cholg'ular
104.	Farobiy ta'limotiga ko'ra eng mukammal cholg'u qaysi?	*inson ovozi	nay	ud	doira
105.	Fortepiano qaysi cholg'ular guruhiga kiradi?	*urma jarangli torli	torli	urma zarbli	urma
106.	Fortepianoning klavesin va klavikorddan ustunligi...	*tovushni cho'zish va o'chirish imkoniyatida	torlar sonining ko'pligida	klaviaturaning rangida	chalish osonligida
107.	Hindistonda keng tarqalgan ko'p torli, qovoqsimon kosaxonaga ega cholg'u	*sitar	setora	changura	tabla

108.	Xitoyda tarqalgan naysimon cholgʻu qaysi	*di	dvojnich	nay	xulusi
109.	Xitoyda foydalaniladigan va bir paytda ikkita ovoz hosil qiladigan damli cholgʻuni toping	*xulusi	okarina	markirada	chanbzi
110.	Hozirgi kunda Oʻzbekistonda nechta katta professional xalq cholgʻulari orkestri mavjud?	*bitta	ikkita	uchta	toʻrtta
111.	Hozirgi chang cholgʻusi Toshkenda birinchi marta qachon paydo boʻlgan?	*XX asrda	1760 yilda	XIX asrda	XV asr boshida
112.	Hozirgi chang cholgʻusi Toshkenda birinchi marta qachon paydo boʻlganda unda ijro etgan cholgʻuchining millati qanday edi?	*dungan	moʻgʻul	uygʻur	qoraxitoy
113.	Hozirda nomi saqlanib qolgan boʻlsada, umuman ishlatilmaydigan rekonstruksiya qilingan cholgʻu qaysi?	*gʻijjak bas	afgʻon rubobi	chang	doʻmbira
114.	Hozirda nomi saqlanib qolgan boʻlsada, umuman ishlatilmaydigan rekonstruksiya qilingan cholgʻu qaysi?	*gʻijjak kontrabas	afgʻon rubobi	chang	doʻmbira
115.	Hozirda nomi saqlanib qolgan boʻlsada, umuman ishlatilmaydigan rekonstruksiya qilingan cholgʻu qaysi?	*chang tenor	chang prima	dutor bas	violonchel
116.	Hozirda	*uch	ikki	toʻrt	bir

	O‘zbekistonda professional musiqiy ta’lim necha bosqichda amalga oshiriladi?				
117.	Xorazm vohasiga xos cholg‘u qaysi ?	*bulamon	sibizg‘a	chang	dutor
118.	Xorazm maqomlarini kim notaga tushirgan?	*Matniyoz Yusupov	Komiljon Otaniyozov	Sulton Xayitboyev	Xojixon Boltayev
119.	Xorazm tanbur chizig‘i kim tomonidan ixtiro etilgan?	*Muxammad Niyoz Paxlavon Mirzaboshi	Ota Jalol Nosir o‘g‘li	Matniyoz Yusupov	Sayfuddin Al – Urmaviy
120.	Xorazmda yashab va ijod qilgan olim, shoir va bastakorni toping.	*Komil Xorazmiy	Al Xorazmiy	Al Urmaviy	X.Dehlaviy
121.	Chang oilasi sifatida necha turli changlar yaratilgan edi?	*to‘rtta	yettita	oltita	beshta
122.	Chanqo‘biz G‘arbda qanday umumiy nomga ega?	*vargan	sopilka	sitra	kitxara
123.	Chanqo‘biz qaysi materiallardan ishlanishi mumkin?	metall, yog‘och, suyak	plastik, metall	qattiq bo‘lgan barcha metallardan	chegarasi yo‘q
124.	Chanqo‘biz qirg‘izlarda qanday nomlanadi?	*temir qo‘buz, og‘och qo‘buz	chinqo‘biz	qo‘biz	ovuz qo‘buz
125.	Chanqo‘biz nemislarda qanday nomlanadi?	*maul trommel	sopilka	sitra	kitxara
126.	Chertma-tirnama cholg‘uni toping	*dutor	g‘ijjak	qashqar rubobi	dutor bas
127.	Chindovul cholg‘usi kimlar tomonidan chalingan?	*suvoriylar	piyodalar	askarlar	doyrachilar
128.	Chindovulning tuzilishi qanday?	*dubulg‘asimon	noksimon	doyrasimon	cho‘zinchoq
129.	Cholg‘u oilasi bu...	*bitta cholg‘u asosida yaratilgan cholg‘ular	bitta guruhga kiruvchi cholg‘ular	oilaviy ijro etiladigan sozlar	bir xil sozlanadigan cholg‘ular
130.	Sharq musiqasigagina xos bezak...	*nola	trel	qochirim	mordent
131.	Sharq xalqlarida “Rabob” deganda	*g‘ijjaksimon	dutorsimon	do‘mbirasimon	changsimon

	qaysi cholg'ularni tushunish lozim?				
132.	Sharqda musiqa ilmida "birinchi ustoz" nomi kimga berilgan?	*Xariz (Abu Turk)	Farobiy	Navoiy	Abu Ali ibn Sino
133.	Shashmaqom ijrosida eng asosiy cholg'u qaysi?	*tanbur	dutor	doyra	ud
134.	Eng birinchi paydo bo'lgan cholg'ular qaysi?	*urma	damli	torli	kamonli
135.	Eng pastki notalarni chalishga mo'ljallangan mis damli cholg'u qaysi?	*tuba	trombon	tenor	bas
136.	Eng so'ng qaysi cholg'ular guruhi paydo bo'lgan?	*torli	damli	urma	sibiziqsimon
137.	Eng yuqori notalarni chalish imkoniyatiga ega damli simfonik orkestr cholg'usi qaysi?	*pikkolo	goboy	klarnet	truba
138.	Estrada orkestri va estrada ansamblining farqi nimada?	*cholg'uchilar sonida	xonanda mavjudligida	fortepianodan foydalanishda	urma cholg'ularning ishtirokida
139.	"Dirijer" so'zi qaysi ma'noni anglatadi?	*boshqarish, yo'naltirish	tashkilotchi	hisobchi	eng mohir
140.	"Dirijer" so'zi qaysi tildan olingan?	*fransuz	nemis	ingliz	italyan
141.	"Mezrob" fors tilida aslida nimani anglatadi?	*tirnoqni	plektrni	mediatorni	noxunni
142.	"Simfonik metall" nima?	*musiqiy ijro uslubi	janr	orkestr tarkibi	maxsus estrada ansambli
143.	"Simfonik rok"da eng asosiy cholg'u qaysi?	*klavishli	torli	urma	kamonli
144.	"Estrada" so'zi aslida nimaga nisbatan qo'llaniladi?	*joy va janrga	cholg'ularga	ijro uslubiga	zamonaviylikka
145.	"Estrada" so'zining lug'aviy ma'nosi nima?	*sahna	maydon	ommaviy musiqa	so'nggi musiqa
146.	17-asrda yashab ijod qilgan mashhur	*Darvish Ali Changiy	Komil Xorazmiy	Abu Nasr Farobiy	Al Xorazmiy

	sozanda va musiqashunosni toping				
147.	1924 yili Buxoro Shashmaqomi kimlarning ijrosidan yozib olinadi?	*Ota Jalol Nosir o'g'li va Ota G'iyos	Niyoz Paxlavon Murzaboshi	YE.Romanovsk aya	A.Uspenskiy
148.	1955 -1956 yillarda nashr qilingan besh jilddan iborat bo'lgan to'plam nomini toping	*O'zbek xalq musiqasi	Tojik xalq musiqasi	Turkiy musiqa	Shashmaqom
149.	Qayta tiklangan Boburiy davriga tegishli cholg'uni ko'rsating	*g'ijjaki Boburiy	g'ipchak	g'ijjaki Shohruhiy	g'ijjaki Andijoniy
150.	“Barbat” cholg'usi nimaga o'xshaganligi uchun shunday nomlangan	*o'rdak to'shiga o'xshaganligi uchun	uni shu nomdagi kishi chalgani uchun	musiqa barbod bo'layotgan davrda yaratilgani uchun	oqqushga o'xshaganligi uchun

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. В.Беляев. Музыкальные инструменты Узбекистана Москва 1933
2. Абу Абдуллох Хоразмий. Мафотиҳ ал-улум (А.Назаров таржимаси).
3. Абу Али ибн Сино. Мусиқа ҳақида рисола Н.Шодмонов таржимаси.
4. Т.С.Вызго. Музыкальные инструменты Средней Азии Музыка. 1980
5. Ал-Фараби. Трактаты о музыке и поэзии.— Алматы: Гилем, 1993.
6. Ў.Тошматов. Чолғ'ушунослик (Ўрта махсус таълим муассасалари учун ўқув-қўлланма) Т.: 2004
7. Ў.Тошматов. Чолғ'ушунослик (Олий таълим муассасалари учун ўқув-қўлланма) Т.: 2006
8. М.Абдукаримов. Чолғ'ушунослик (Олий таълим муассасалари учун ўқув-қўлланма) Насаф нашриёти 2006
9. А.И.Петросьян. Инструментоведение Т.: 1990
10. Р.Абдуллаев. Байсун (Традиционная музыкальная культура). Т.: 2006
11. Женевиёв Дурнон. Анъанавий мусиқа ва мусиқа чолғ'уларини тўплаш бўйича қўлланма. Юнеско нашри 2003
12. Тошматов Ў., Туратов С. “Кўҳна чолғ'улар ижрочилиги” – Т.: Ўқув қўлланма, 2015.
13. Йўлдошев Т. Уд дарслиги. - Т.: Дарслик. 2008. – 346 б.
14. Одилов А. “Чанг” - Т.: Ўқув қўлланма, 2002. – 285 б.
15. Раҳимов Ш. Чолғ'у ижрочилигига ўргатиш методикаси. - Т.: Ўқув қўлланма, 2009. – 224 б.
16. Турапов З. Дутор бас. - Т.: Ўқув қўлланма, 2004. – 211 б.
17. Усмонов Қ. “Рубоб дарслиги” - Т.: Дарслик, 2004. – 312 б.
18. Шарипов Н. “Рубоб примада ижро этишни ўрганиш методикаси” - Т.: Дарслик, 2002. – 295 б.
19. Эргашев Г“. “Афғ'он рубоби дарслиги” - Т.: Дарслик, 2004. – 362 б.
20. Қосимов Р. “Анъанавий танбур ижрочилиги” - Т.: Ўқув қўлланма, 2002. – 258 б.

MUNDARIJA

Kirish.....	5
Predmetning maqsad va vazifalari	7
Musiqqa cholgʻulari va ularni oʻrganish tarixidan.....	12
Musiqqa cholgʻularining oʻrta asr olimlarining risolalarida aks ettirilishi.....	18
Musiqqa cholgʻularini oʻrta asr miniatyuralaridagi tasvirlar orqali oʻrganish.....	25
XIX asr oxiri XX asr boshlarida musiqqa cholgʻulari kolleksiyalari.....	28
XX asr musiqqa cholgʻulari.....	34
Oʻzbek milliy cholgʻularini qayta ishlash va takomillashtirish jarayoni va uning natijalari.....	41
Oʻzbek xalq cholgʻulari orkestrining damli (puflama) cholgʻular guruhi.....	44
Urma jarangli torli cholgʻular guruhi . Chang oilasi.....	53
Mezrobli va chertma (tirnama) cholgʻular.....	58
Dutor oilasi.....	65
Urma shovqinli cholgʻular guruhi.....	72
Oʻzbek xalq cholgʻu orkestrida qoʻllaniladigan qoʻshimcha (simfonik orkestr tarkibida qoʻllaniladigan) urma shovqinli cholgʻular.....	77
Kamonli cholgʻular oilasi.....	82
Xalq cholgʻu orkestrlarida kam qoʻllaniladigan milliy cholgʻular.....	88
Unutilgan musiqqa cholgʻularini tiklash va yangi cholgʻularni ixtiro qilish tajribalari.....	107
Cholgʻu jamoalari.....	118
Cholgʻu orkestrining toʻliq tarkibi uchun cholgʻulashtirish.....	120
Glossariy.....	128
Testlar.....	130
Foydalanilgan adabiyotlar.....	143

ОГЛАВЛЕНИЕ

Введение.....	5
Сел и задачи предмета.....	7
Из истории и изучения музыкальных инструментов.....	12
Отражение музыкальных инструментов в изданиях исследователей Средневековья.....	18
Изучение историю музыкальных инструментов посредством миниатюр Средневековья.....	25
Коллекции музыкальных инструментов конса XIX и начала XX веков	28
Музыкальные инструменты в XX веке.....	34
Процесс реконструкции и усовершенствования музыкальных инструментов и его результаты	41
Группа духовых инструментов узбекского народного оркестра.....	44
Группа струнно-ударных инструментов. Семейство чангов.....	53
Плекторные и струнно-щипковые инструменты.....	58
Семейство дутаров.....	65
Группа ударно-шумовых инструментов.....	72
Дополнительные инструменты, используемые в узбекском народном оркестре (используемых в симфоническом оркестре).....	77
Группа смычковых инструментов	82
Фольклорные инструменты, мало используемые в народных оркестрах.....	88
Опыты по воссозданию забытых и созданию совершенно новых музыкальных инструментов	107
Инструментальные коллективы.....	118
Инструментовка для полного состава оркестра.....	120
Глоссарий.....	128
Тесты.....	130
Использованная литература.....	143

Reviewers:

Mirmukhsin Gafurov - Associate Professor of "Instrumental Performance" faculty of the State Institute of Arts and Culture of Uzbekistan

Karimjan Azimov - Professor of the "Playing folk instruments" faculty of the State Conservatory of Uzbekistan

After the publication of the latest textbooks on the subject "Researching instruments" there was a change in the musical life of our Republic. Some of the tools in this period have been changed, some have ceased to be used, and some, not previously used, have gained popularity. These circumstances have led to the creation of this literature. In this tutorial, the authors tried to collect the maximum information about the history, evolution and current state of musical instruments used in the region.

This textbook is designed for students of undergraduate educational direction 5151600 - Folk art (leadership instrumental ensembles).

Table of Contents

Introduction.....	5
Goals and objectives of the subject	7
Musical instruments and learning their history.....	12
Musical instruments reflected in the medieval scholars' prospectuses.....	18
The study of musical instruments by mid-century miniature images.....	25
The collection of musical instruments at the end of the nineteenth century, beginning of the twentieth century.....	28
XX century musical instruments.....	34
The process of improving the processing of national instruments and and its results.....	41
Uzbek folk instruments orchestra of wind musical group.....	44
Percussion group of the voiced stringed instruments. Chang family.....	53
Mezrobli clicking (scratched) instruments.....	58
Family of Dutor.....	65
Group of noisy percussion instruments.....	72
Uzbek folk instruments used in the orchestra (Symphony applied to the structure of the orchestra), noisy percussion instruments.....	77
Archer musical family	82
Less used instruments in the orchestra of national instruments.....	88
Reconstruction forgotten musical instruments and experiments in the invention of new instruments.....	107
Instrumental ensembles.....	118
Orchesration for the whole orchestra.....	120
Glossary.....	128
Tests.....	130
References.....	143